

So'zboshi



\*\*\* 1 \*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida



# Eslatma

Hurmatli o'quvchim!

Sizning qo'lingizda turgan ushbu kitob tafakkuringizni kengaytirishga xizmat qiluvchi noyob asar. Ushbu kitobni sizga kelib qolishi bejiz emas, chunki siz dunyoqarashingizni boyitish va kreativ fikrlash iqtidoringizni rivojlantirishga intilayotgan inson ekansiz.

[Bu kitobni tayyorlash uchun biz mehr va muhabbat bilan mehnat qildik, har bir savol va javobda shijoatimiz aks etgan. Kitobimizda 1000 ta mantiqiy savollar to'plangan bo'lib, ulardan dastlabki 100 ta savolning javoblari ham keltirilgan. Agar kitobimiz sizga yoqsa va qolgan 900 ta savolning javoblarini ham bilishni istasangiz, kitobning to'liq variantini sotib olishingiz mumkin. Kitobning narxi ko'pchilikning imkoniyatini hisobga olgan holda 50 000 \(ellik ming\) so'm etib belgilangan. Ushbu summani 9860042414935942 karta raqamiga o'tkazishingiz mumkin. Karta egasi sifatida Razikov Bahtiyor chiqadi. Summani yuborganingizdan so'ng, telegram orqali @baxtiyozadminbot boti orqali xabar berishingiz mumkin. Shunda sizga kitobning to'liq shakli yuboriladi.](#)

Kitobdan qanday foydalanish mumkin?

Qulaylik maqsadida har 100 ta savolni alohida bo'lim sifatida belgiladik. Mundarija orqali istalgan yuzlikka bosganingizda shu yuzlikdagi savollar ro'yhatiga yo'naltirilasiz. Savolning javobini qidirish shart emas, savolga bosganingizda javobga yo'naltirilasiz, javobga bosilganda yana shu savolga qayta yo'naltirilasiz. Dastlabki 100 ta savoldan keyingi savolga bosilganda javob ko'rsatilmaydi, balki kitobning to'liq variantini sotib olish kerakligi eslatiladi.

Kitobni sodda, ortiqcha bezaklarsiz, chin sevgimiz bilan yaratdik. Sizga mazmunli hordiq va tafakkur ziyosini tilab qolamiz. Har bir sahifada siz uchun yangi bilimlar va qiziqarli sirli jumboqlar mavjud. Kitobimizning har bir satri sizni mantiqiy fikrlash olamiga chorlashini va undan rohatlanishingizni chin dildan istaymiz.

Muvaffaqiyat tilaymiz va har doim siz bilan birgamiz!

Hurmat va ehtirom bilan [BAXTIYOR.UZ](#) sayti va [@baxtiyor.uz](#) kanali admini Baxtiyor Roziq

# **MUNDARIJA**

1 DAN 100 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR: 4- bet

101 DAN 200 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR: 11- bet

201 DAN 300 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR: 19- bet

301 DAN 400 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR: 26- bet

401 DAN 500 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR: 34- bet

501 DAN 600 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR: 41- bet

601 DAN 700 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR: 48- bet

701 DAN 800 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR: 57- bet

801 DAN 900 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR: 65- bet

901 DAN 1000 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR: 73- bet

BARCHA JAVOBLAR: 81- bet

# 1 DAN 100 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR

1. Bir kishi olmalarni 500 so'mdan sotib olib, ularni 300 so'mdan sotardi. Bir muncha vaqt o'tgach, u kishi millionerga aylandi. Buning sababi nimada?

2. Nima hech qachon yolg'on gapirmaydi?

3. Onasi Ahmadga 4 litr suv olib kelishni tayinladi. Lekin onasi unga faqat ikkita idish berdi, ulardan biri 3 litrlik, ikkinchisi 5 litrlik edi. Ahmad bu idishlar yordamida 4 litr suv o'lchashi mumkinmi? Ahmadga yordam bering.

4. Mixail Svetlov hayotning past-balandligini unga o'xshatadi. Mantiqan o'xshatish juda to'g'ri. Uni toping.

5. Rivoyat qilishlaricha, bir rassom dunyodagi eng go'zal narsani siymosini yaratmoqchi bo'libdi. Ammo, boshi qotibdi. Nima dunyodagi eng go'zal narsa bo'lishi mumkin? Bu savolni yo'lida uchragan bir qariyaga, yosh ayolga, askar yigitga berib ko'ribdi. Qariya-mehr, ayol-vafo, askar-tinchlik deb javob beribdi."Xo'sh-deb o'ylabdi rassom-dunyodagi eng go'zal narsa mehr, vafo, tinchlik bo'lsa, nimaning suratini chizishim kerak?" shu xayol bilan uyiga qaytibdi va birdan savoliga javob topibdi. Rassom shu ondayoq eng chiroyli narsaning suratini chiza boshlabdi. Savol: Rassom nimaning suratini chizgan?

6. "Iks" bu barcha maxbuslari mutlaqo begunoh bolgan dunyodagi yagona qamoqxonadir."Iks" nima yoki qayer ?

7. Inson o'zi yashedigan joyda 90 km uzoqlashsa nima bo'ladi?

8. Futbol o'yinida hakamlar hushtak o'rnida avval nimani ishlatishgan?

9. Cheti gulli, patir non, Ichi to'la g'ij - g'ij don.

10. Eng birinchi uning yorug'ligi ko'rinadi, so'ng ovozi eshitiladi, so'ng shamolini his qilasiz, ana undan keyingina o'zi kirib keladi. Gap nima haqida ketmoqda?

11. Frantsuzlar uchun ovqatning sifati muhim, inglizlar uchun odamning ovqatlanish paytida o'zini tuta bilishi muhim. Ho'sh endi aytingchi, bu borada nemislarni nima qiziqtiradi?

12. Fransuzlarda "Tuxumdan olmagacha" degan ibora bor. Ular bu koni foyda ekani uchun ham bunga amal qilishadi. Savol: "Tuxumdan olmagacha" iborasida nima nazarda tutilmoqda?

13. Nimaga kirish oson, undan chiqish qiyin?

14. Hindistonda sigirni muqaddas jonzot deb ehtirom ko'rsatishadi. Ular masofani o'lchashda ham sigirdan foydalanishar ekan. Savol: hindlar masofani o'lchashda sigirdan qanday qilib foydalanishi mumkin?

15. Sa'd ibn Abu Vaqqos r.a o'g'liga nasihat qilib shunday deydilar: Shar'iy kishiga ya'ni hurmatli kishiga " bu ish " ni aslo qilma hasad, kudurot, gina paydo bo'ladi o'rtada. Razil past odamga ham " bu ish " ni qilma senga nisbatan juratlik bo'lib ketadi. "bu ish" ni og'zaki, yozma yoki hatto grafik shaklda ifodalash mumkin. Hatto rasmda ham. Ko'pchilik kunda bir marta bo'lsa ham " bu ish" qiladi deb o'ylayman. Savol: " bu ish" o'rnidagi ikki so'zni toping.

16. Angliya yo'llarida "qonli mototsiklchilar" nomini olgan haydovchilar bo'lib, ular bu nomni o'z vazifalari uchun olgan. Savol: Ularni vazifasini toping.

17. Tarvuzim bor urug'siz, Pichoq bilan kesilmas. Kesganingda ham uni, Maza qilib yeb bo'lmas.

18. U faqat dekabr oyida topiladi, boshqa oylarda esa yo'q. U nima?

19. Ko'mir tosh ichida osh.

20. Qish edi. Jahongir Ozoda va Shohista singillarini qidirib yuribdi. Qidirib-qidirib daryo bo'yiga keldi va singillarini daryoning narigi qirg'og'ida ekanligin ko'rdi. Bir tomonda o'rmon bo'lib unda qalin-qalin daraxtlar o'sardi. Jahongir qanday qilib daryodan o'tib olishi mumkin?

21. Echki olti yoshdan keyin nima bo'ladi?

22. Avvaliga dafn marosimida qatnashganlarning barchasini askarlar oldirgan. Keyin esa askarlar ozlarini ozlari oldirgan. Bu kimning dafn marosimi edi?

23. Sinfda 35 o'quvchi bor. Ulardan 20 tasi matematika to'garagiga, 11 tasi biologiya to'garagiga qatnashadi. 10 tasi esa hech qaysi to'garakga qatnashmaydi. Nechta o'quvchi ham biologiya, ham matematika to'garagiga qatnashadi?

24. Uning qirqdan ortiq turi bor: ivitma, bedana, to'g'rama, to'y, sofaki, qorma, suzma va b.. Ularni tayyorlash o'zbeklar o'rtasida, ayniqsa erkaklarga hos fazilat hisoblanadi. U nima?

25. Boshi taroq, dumi o'roq.

26. Mahmudning 10 ta qo'yi bor edi. 9 tadan boshqa hamma qo'ylari o'lib qoldi. Mahmudning nechta qo'yi qoldi?

27. "O'tmishdagi jinoyatlar" asari personaji ta'til kunlarini fermada o'tkazish jarayonida, fermada hech dam olib bo'lmasligini aytib, 1991-yilgi filmni oksyumoron deb ataydi. Film nomini toping.

28. Bir kishidan yoshini so'rashganda u yonidagi qarindoshini ko'rsatib men qarindoshimdan 600 marta kattaman dedi. Uning gapiga ishonish mumkinmi?

29. Vyetnamdan shunday yo'lbarzlarni ko'payishiga sabab Vyetnam urushi va turli yillardagi vabolar keltiriladi. Qanday?

30. Beshta 1 yordamida 100 sonini qanday hosil qilish mumkin?

31. Har doim o'sib boradigan va hech qachon kamaymaydigan narsa nima?

32. Ular aldagan kishilarni yoqtirishmaydi. Ammo o'zlari ham nuqul aldaydilar. Aldash ularning kasbining mohiyati, aldashgani sayin odamlarning ishonchini qozonadilar. Savol: aldoqchilar deb kim nazarda tutilmoqda?

33. Osiyoning turli joylarida uni iste'mol qilishgan, rimliklar uni badbo'y o'simlik deb atagan, Pifagor esa uni ziralar shohi deb atagan. U nima?

34. Uning qora, yashil, sariq, qizil turlari mavjud. U deyarli har bir honadonda bor. O'zbekistonda uni qora va yashil turlarini ko'p iste'mol qilishadi. Savol: u nima?

35. Ikki xonali sonning raqamlari yig'indisi eng kichik ikki xonali songa teng. O'nlar xonasidagi raqam birlar xonasidagi raqamdan to'rt marta kichik. Bu sonni toping.

36. Men hech kim emasman, lekin mening ismim bor. Men katta ham, kichik ham bo'lishim mumkin, lekin yolg'iz bo'lolmayman. Men kimman?

37. 30 diametrli pitsaning narxi 30 \$. 40 diametrli pitsaning narxi 40\$, qaysi pissani sotib olish foydali.

38. Xalqimizda "Mijja qoqmadi" iborasi bor. Mijja so'zi bu o'zbek yoki forsiy so'z emas. Demak savol: Mijja so'zi manosi nima?

39. Nima uchun qushlar tuxum qo'yadilar?

40. Hazil savol: Agar xo'roz molxona tomining tepasida tuxum qo'ysa, u qaysi tomonga o'giriladi?

41. Seriallarni birida otasi o'zini evtanaziya qilishga qaror qilgan doktor o'g'il, otasi qaroriga qarshi bo'lishga ikki sabab keltiradi. Biri o'g'li ekanligi, ikkinchisini siz toping.

42. O'zi bitta, Kallasi ikkita, Dumi bitta, Oyog'l oltita.

43. O'zi bitta, tuxumi to'rtta, bolasi o'n oltita

44. Avstraliyaning Yangi Janubiy Uels shtatida qazishmalar olib borgan arxeologlar uning birinchi qurbonini topishgan. Psixologiyada esa uning teskari effekti mavjud. Diqqat savol: Uni toping.

45. Yer yuzida shunday tarjimon borki, u xohlagan tilda gapiring, u gapingizni tarjima qilib tilingizda javob qaytara oladi. Mantiqiy o'ylab ko'ring, qanday tarjimon so'ralmoqda?

46. Yapon olimlari bu xizmatchilar boshqalarga nisbatan 2 soat ko'p uxlashlari, har kuni 1 soat oftobda toblanishlari zarurligini tavsiya qilishadi. Savol: bu qaysi xizmatchilar

47. O'n oyoqlab olg'a yurar, Shoshar bo'lsa, ortga suzar.

48. Ukraina, Xitoy, Turkiya, Kanada kabi davlatlarda u 2 ta, O'zbekiston, Rossiya, Frantsiya, Italiya kabi davlatlarda - 3 ta, Efiopiya, Surinam, Quvayt, Suriyada - 4 ta. Savol: Lixtenshteyn va Liviyada u nechta?

49. Osmondan tushdi bir tugun, usti baxmal, ichi un

50. Niderlandiya va Belgiya chegarasidagi Baarl shaxarchasi ko'chalar chigalligi bilan mashhur. Shaharchada qo'lida sumka ushlab turgan odam haykali bo'lib, hozirda bu "kasb" egalari o'z ahamiyatini yo'qotishgan. Bunga sabab esa Yevropa ittifoqidir. Diqqat savol: Bu kasb egalarini toping.

51. Bilasizki Qadimgi Misrda mushuklarga ehtirom yuqori darajada bo'lgan. Mushuk vafotidan keyin uzoq yo'l yurishini hisobga olib, shunday u ham mushuk yoniga qo'yilgan. Diqqat savol: Shunday uni toping.

52. Yordam bering ustozlar! Suv bo'yida olti hayvon Bo'ri soni quyondan Uchta bo'ri, uchta quyon. Aslo ortib ketmasin! Daryodan o'tish sirin Aks holda yeb qo'yishar Bilolmasdan ular hayron Quyonlarning barchasin Daryoda bitta qayiq Yordam bering ustozlar, Ko'tara olar ikkitasin. Masalani yechishga Qayiqni boshqarishni Vaqt g'animat ular shoshar Hayvonlar o'zi eplasini. O'rmonlarga ketishga. Savol: 2 ta hayvonni ko'tara oladigan qayiqdan 3 ta bo'ri va 3 ta quyon qanday o'tadi. (Bo'ri soni quyondan ortib ketsa quyonlarni yeb qo'yishadi.)

\*\*\* 7 \*\*\*

53. 22-fevralda ayrim mutaxassislar odamlarga eng yaxshi tilaklarini aytishni, uyda umumiy tozalashni aytishgan. Biroq ular ko'zgodan boshlash yoki u ko'zgu bilan tugatishni eslashmagan. Nechanchi yilda?

54. Bir hazilda aytilishicha butun olam tortishish qonuni aynan shu paytda kuchliroq ishlar ekan. Qaysi payt?

55. Hazil savol: Jaziramada savdogar shlyapani nimaga sotib oldi?

56. Rim papasi Frensis Shotlandiya safari haqidagi hujjatli filmni Vatikan matbuoti senzura qilishga majbur bo'lgan. Sababi esa Frensis hazil tariqasida unga berilgan viskini "shunday u" deb ataydi. Diqqat savol: Shunday u so'zlari bilan almashgan ikki so'zni toping.

57. To'la kvadratni (butun sonning kvadrati) 3 ga bo'lganda qanday qoldiq qolishi mumkin?

58. Shunday bir tuyg'u borki u oyoqlarga qanot berishi ham, oyoqlarni yerga kishanlashi ham mumkin. Savol: bu qaysi tuyg'u?

59. U qush o'z qanotlari yordamida suv tagida suza oladi. Tezligi esa 10 m/s. Eng qizig'i, u qush shuncha tez suzsa ham ucha olmaydi. Bu qaysi qush?

60. "Men bo'lmagan shahar" seriali personaji voqealarni o'zgartirish uchun doim vaqt mashinasida sayohat qiladi. Qizig'i shundaki u har doim sayohat qilishidan avval ko'z oldida u paydo bo'ladi. Diqqat savol: Uni toping.

61. Qaysi havon ustida odam yurishi, hatto mashinalar ham harakatlanishi mumkin?

62. 1 termometr +15 darajani ko'rsatmoqda, ikkita termometr bo'lsa necha darajani ko'rsatadi?

63. Ikki qo'shni bitta garajga mashinalarini qo'yishadi. Garajni qulflash uchun xar birida aloxida qulf va aloxida kalitlari mavjud, Ikkisi ikki mahalda garajni ochishadi. Ular bir-biridan ayro qanday ochib -yopib yurgan.

64. X - bu afsuslanishning boshlanishi ovvoraning oxiri. Har ahloqning boshi natijaning so'ngi. Gap nima haqida ketmoqda?

65. O'zim o'ta tortinchoqman. Doim bir chekkada turaman. Mening to'rtta sho'x va to'polonchi akalarim bor. Ular meni juda ehtiyot qilishadi. Lekin ular boshqalar bilan yoqalashib qolishsa men ham qarab turmayman. Hammamiz bir bo'lib uning yoqasidan olamiz. Akalarimdan ko'ra men ko'proq sulhparvarman. Darrov meni elchi qilib saylashadi. Tinchlikka nima yetsin. Savol: bu morologning muallifini toping.



66. Qadimgi hind traktatida shunday yozilgan: «Aql mayli hurmatni tug'dirsa, qalb mayli do'stlikni, tana mayli hohishni tug'diradi. Aql, qalb, tana mayli bir bo'lib uni tug'diradi». Nimani tug'diradi?

67. Maysa rangli mitti ko'zi, Bor xivchini, bordir ko'zi.

68. Qanoti gulga o'xshar, Xartumi qilga o'xshar.

69. Ingliz sayyohlari bo'lgan samolyot Gollandiyadan Ispaniyaga uchib ketdi. Frantsiyada u qulab tushdi. Tirik qolgan (yaralangan) sayyohlarni qaerga ko'mish kerak?

70. Yo'llari bor, yurib bo'lmaydi, yerlari bor – ekib bo'lmaydi, yam-yashil o'tloq bor – yulishni iloji yo'q, dengiz, daryo ko'llari bor, ammo suvi yo'q. Bu nima?

71. Bir otim bor ajabgina, Dumlari bor, gajakkina.

72. Kimlarga o'z narsangizni berib, uni olganligi uchun pul to'laysiz?

73. Is biladi it emas, In izlaydi tulki emas. Qanoti bor uchadi, Ammo o'zi qush emas.

74. Kur bulib tugilgan kishiga nisbatan keyinchalik kur bulib kolgan kishining orasida fark yuk.U xam bu xam 100% foyz kurmaydi.Ammo kur bulib tugilgan odam bilan keyinchalik kurmay kolgan odam orasida bir katta fark bor. Savol: Fark nimada ?

75. Bo'sh stakanda nechta yong'oq bor?

76. Bu “mashina” umuman harakatlanish uchun mo'ljallanmagan. Ammo butun dunyodagi ularning yurgan “yo'lini” hisoblasak ular avtomobil va samolyot bosib o'tgan masofadan ortib ketadi. Hammamiz ko'rgan va ba'zilarimizda bor bo'lgan bu “mashinaning” nomi nima?

77. Mo'ylovi bor, soqoli yo'q.

78. O'zining badanini o'zi yeydi.

79. O'tgan asr oxirlarida iguanalar uy jonivori sifatida mashhur bo'lib ketadi. Tabiiy dushmani bo'lmagan iguanalar tezda ko'payib ketadi. Bu holatda iguanalarga atalgan bunday kitoblar chiqa boshlaydi. Diqqat savol: Qanday?

80. Ko'lda nilufar barglari bilan qoplangan maydon har kuni ikki baravar ko'payadi. Agar ular butun ko'lni 48 kunda qoplasa, ko'lning yarmini qancha vaqt ketadi?

\*\*\* 9 \*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

81. Uzunligi 15 sm, kengligi 7 sm. U barchaga yoqadi. Ayniqsa ayollarga. U nima?

82. Bozordan bir narsa ol: ham o'zing ye, ham tovug'ing yesin, ham moling yesin.

83. It, jirafa, tuya. Bularning qanday umumiy xususiyatlari bor?

84. Dedektiv savol: Erkak va Ayol restaranga ovqatlangani kelishdi. Asosiy taom tayyor bo'lguncha muz solingan 5 ta ichimlik buyurishdi, chunki, xona issiq edi. Ayol darhol 4 ta ichimlikni ichib qo'ydi, erkak esa 1 tasini ichishga ulgurdi. Bir muncha vaqt o'tganch erkak kasal bo'lib qoldi. Shifokor kelgunda vafot etdi. Shifokorlar darhol barcha ichimliklar Zaxarlanganini aniqlashdi. SAVOL: Unda nega ayol tirik qoldi erkak esa Yo'q?

85. Vashington Irvingning "Nyu-York tarixi" asarida personaj noodatiy aravani yaxshiroq ko'rish uchun baland daraxtga uchiga chiqdi. Bu arava uning prototipi deb atalgan. Diqqat savol: Uni ikki so'zli javobni toping.

86. Ko'kka qarab tolmaydi ko'kdan ko'zin olmaydi.

87. O'zbekiston hududida ular dastlab kishilarning qish faslida istiqomat qiladigan joyi sifatida vujudga kelgan. Hozirda esa u yerlarda kishilar to'rttala faslda ham hayot kechirmoqdalar. Qayerda?

88. Bir podsho u bilan suhbatga kelgan kishilarni taxt oldidagi sherning ochiq og'ziga qarab gapirishni talab qilgan. Mantiqiy o'ylab aytingchi, shoh nega shunday yo'l tutgan?

89. Uzun terak ichi kovak.

90. Ko'pincha g'iybat boshlanishidan oldin aytiladigan gap?

91. Avtomobil o'ng tomonga burilayotganda qaysi g'ildirak harakat qilmaydi?

92. Nimani urib pachoqlab tashlasangiz ham yig'lamaydi?

93. Kechadan oldin Murod 17 yosh edi. Keyingi yilda u 20 yoshga kiradi. Bu qanday yuz beradi?

94. G'oz bir oyog'ida turganda uning vazni 7 kg. Agar g'oz ikki oyoqda tursa, uning vazni qancha bo'ladi?

95. Sherlock Xolms ko'chada sayr qilib yurgan edi. To'satdan u yerda jonsiz yotgan ayol tanasiga ko'zi tushdi. Aftidan qotillikka o'xshardi. U ayolning yoniga kelib, uning sumkasini ochdi va uning telefonini oldi.

Telefonda uning turmush o'rtog'i raqamini topib, unga qo'ng'iroq qildi va shunday dedi: – Tezda yetib keling. Sizning ayolingiz jonsiz topildi. Bir necha daqiqadan keyin ayolning turmush o'rtog'i yetib kelib: “Azizam, senga nima bo'ldi, nega?”, – deya yig'lab yubordi. Shundan so'ng politsiya yetib kelgach, Sherlok barmog'i bilan ayolning turmush o'rtog'iga ko'rsatib: “Bu odamni hibsga oling, u o'z ayolining qotili”, – deb aytdi. Savol: Sherlok nega bunday qarorga keldi?

96. Oddiy savol: Nimaning 5 ta barmog'l bor, tirnoqlari yo'q?

97. U har yili 1,2 metr qalinlikdagi qoyalarni yemirib bormoqda va bu ketishda bu mojizadan insoniyat mahrum bolishi mumkin. Qaysi mo'jiza?

98. U boshqasining yelkasiga o'tiradi, lekin o'zi ham yuk ko'taradi. U nima?

99. Undan qancha olsangiz, shuncha kattalashib boraveradi. U nima?

100. Malayziyada «Sen qaerga ketayapsan?» deyishadi, bu savolga «Aylangani» deb javob berishadi. Yahudiy «Sizga tinchlik» desa, fors «Quvnoq bo'l» deydi, Grenlandiyaliklar esa «Yaxshi ob-havo» deyishadi. Biz bunday holatda nima deymiz?

## **101 DAN 200 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR**

101. 1 uyni to'liq qurib bo'lish uchun nechta g'isht kerak?

102. Qiziqarli savol: Yaqinda g'arb matbuotida dunyodagi eng yoqimsiz budelniklar ro'yxati e'lon qilindi. Bu ro'yhatda 5- o'rinni olgan budelnikni o'chirish uchun siz krossvord yechishingizga to'g'ri keladi. 4- o'rindagisi esa ertalab sizni har xil haqoratli so'zlar bilan uyg'otadi. 3- o'rin mozayka budelnigiga nasib qildi. Tovuq shaklidagi budelnik 2- o'rinni olgan bo'lib, u ertalab bir nechta tuxum tug'adi. Tuxumlarni yig'ib joyiga qo'ymaguningizcha tovuqning ovozi o'chmaydi. 1- o'rinni olgan budelnik ishga tushganidan so'ng uni o'chirish uchun ancha harakat qilishingizga to'g'ri keladi. Aslida uni o'chirish unchalik qiyin ish emas, bitta tugmani bosish kifoya, lekin bu tugmani bosishdan oldin siz boshqa bir ishni qilishingiz talab qilinadi. Siz budelnikni o'chirish uchun nima qilishingiz kerak?

103. Mantiqiy savol: Qaysi ot jo'xori yemaydi?

104. Kunduzi kaltaklashar,

Kechasi quchoqlashar.

105. Rimliklar sanchqi (vilka) konstruksiyasiga revolyutsion yangilik kiritishdi. Sanchqilarning barcha keyingi modellari ularning kashfiyoti

varianti qilib yasala boshlandi. Bu kashfiyotdan oldin sanchqi qanaqa edi?

106. Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.

107. Agar gapingni hamma eshitsin desang baland ovozda gapir. Agar gapingni hamma tushunsin desang oddiy qilib gapir. Agar gaping esda qolishini istasang aqlli gap gapir. Diqqat savol? Odamlar gapingni ham tushunib ham eslab ham eshitishini istasang qanaqa gap gapirish zarur??

108. Buyuk ipak yo'li savdogarlari asosan uzoq muddatga yaraydigan, sifatini yo'qotmaydigan va albatta yo'lda aynimaydigan tovarlar bilan savdo qilishgan. Vaqt o'tib shu narsa ma'lum bo'ladiki ular aynimas deb bilgan bir mahsulot yo'l-yo'lakay o'z sifatini yo'qotib borgan. Savdogarlar buni oldini olish maqsadida o'sha mahsulotni maxsus qalin bo'z qoplarga solishib paxta toylari orasida olib ketishgan. Savol: gap qaysi mahsulot haqida ketmoqda?

109. Parkda 8 ta o'rindiqli bor, uchtasi bo'yalgan. Parkda hammasi bo'lib nechta o'rindiqli bor?

110. Zilola bilan Hilola quyidagicha o'yin o'ynashayapti: Zilola yuqoriga tanga otadi, Hilola esa tanganing qaysi tomoni bilan erga tushushini oldindan aytishi kerak. Agar tanga Hilola aytgan tomoni tushsa, Zilola unga bu nechanchi tanga otish bo'lsa, shuncha konfet beradi, agarda Hilola tangani qaysi tomoni bilan tushushini topa olmagan bo'lsa, u Zilolaga shuncha konfet beradi. a) Tanga 11 marta otilganidan keyin Zilolaning konfetlari soni oldingidek bo'lishi mumkin-mi? b) 30 marta otilganidan keyin-chi?

111. Kurd ayollari dushmanlardan himoyalash uchun qurol ishlatishadi. Abdulla O'jalan buni o'ziga xos tariflaydi: X larda y lar birovga ziyon yetkazish uchun emas, balki o'zlarini himoya qilish uchun paydo bo'lgan. Diqqat savol: X va y ni toping.

112. Bu metal platina va uranga nisbatan tabiatda kam uchraydi, lekin u har bir honadonda bo'lishi mumkin. Savol: bu qaysi metal?

113. Said Ahmadning bir asarida, kutish – mashaqqatli jarayonlardan biri sifatida eslab o'tiladi. Kutishni yengish, ya'ni vaqtni tezroq o'tkazish uchun esa uchta omil ko'rsatiladi:

1) Ayollar bilan vaqt o'tkazish 2) Uhlash 3) ? Uchinchisini esa siz toping.

114. Tikan po'stin shalpang quloq.

O'sti ko'lrang osti oq.

115. Bu ro'yxatda it birinchi o'rinni egallaydi. Ot esa ushbu ro'yxatda oxirgi o'rinlardan birida turadi. Bu qanday ro'yxat bo'lishi mumkin?



116. U savol emas, lekin unga javob berish kerak.

117. Jorj Vashington, Sherlok Xolms, Vilyam Shekspir, Lyudvig Van Betxoven, Napoleon Bonapart, Aleksandr Pushkin – ushbu ro'yxatda kim "ortiqcha"?

118. Ikkita soat taqib yuradigan kasb egalari kimlar?

119. 3 dona tuxum 5 daqiqada qaynab pishsa 2 dona tuxum qancha vaqtda pishadi?

120. Uzun tasma - ichaksiz,

To'rt qo'rg'ichli ilmoqsiz.

121. Insonda juda ko'p his-tuyg'ular bor.Ular asosan 2ga bo'linadi:salbiy va ijobiy.XV asrda yashagan fransuz faylasufu Mishel' Monten':"Insonda bir tuyg'u bor-ki,u goh oyoqlarga qanot beradi,goh ularniyerga kishanlab qo'yadi"deb yozgan.Savol:Bu qanday tuy'gu?

122. - 45. Mantiqiy savol: Bu ikki aka uka bir joyda tug'ilgan. Yosh orasi ham uncha uzoq emas. Akasi 4 yil yashagan, ukasi akasidan 2 yil ko'proq yashagan. Bu g'alati mashhur aka ukalar nimalar?

123. 4 ta 2 dan har xil matematik amallardan 9 chiqarib bering.

124. Chir-chir qushlar,chirmashiq qushlar

O'zining joni yo'q, odam kelsa tishlar. Savol: Topishmoqni javobini toping?

125. Qiziqarli savol: Bo'ri o'lgan qo'yni qanday yeydi?

126. Bu ixtironi qilgan Erno ismli odam o'zi ixtiro qilgan narsa bilan muvafaqqiyatga erishish uchun naqd bir oy vaqtini sarflagan ekan. U nima ixtiro qilgan?

127. Og'zi bitta, qo'rg'ichi ikkita.

128. Suv emas, suyuq, qor emas oq.

129. Bir qutida 25 ta yong'oq bor edi. Olmaxon 17 tadan tashqari barcha yong'oqlarni o'g'irladi. Qutida nechta yong'oq qolgan?

130. Suvga biroz pichan soldik ,

O'sha suvdan tomchi oldik. Unda tirik jonni ko'rib, Biz hammamiz hayron qoldik.

131. Bir o'zbek qo'shig'ida unga shunday tarif beriladi: " U soyadek taqib qiladi. U ni deb na yaxshilik, na yomonlik qilib bo'ladi. Uni deb na yashab bo'ladi, na o'lib". Uni qisqa so'zli javobni toping.

132. Dedektiv savol: Yakshanba kuni oiladagi eng yosh qiz o'ldirildi. Otasi gazeta o'qiyotgan, onasi oshxonada nonushta tayyorlayotgan, akasi video o'yinlar o'ynayotgan, pochta yon Jorj amaki xat keltirgan edi. Qizni kim o'ldirgan?

133. Professor do'stlarini o'zining maxsus salati bilan mehmon qilishni niyat qildi. Buning uchun unga: 3 ta bulg'or qalampiri va huddi shuncha pomidor, pomidorlardan ko'ra kamroq, ammo piyozdan ko'proq bodring kerak bo'ladi. Professor jami bo'lib necha dona turli xil sabzavotlar ishlatadi?

134. Toshkentdan Samarqand tomon poyezd yo'lga chiqdi. U belgilangan vaqtdan yarim soatga kech qoldi. Samarqanddan Toshkent tomon ham poyezd yo'lga chiqdi, u jadvaldagidan 10 daqiqaga kech yo'lga chiqdi. Har ikki poyezd bir-biri bilan uchrashgan vaqtda qaysi poyezd Toshkentga yaqinroq bo'ladi?

135. Bir allegorik(majoziy ma'nodagi) she'rda personaj qorli qoyalarda siyoh dog'lari paydo bo'lganida yordamga keladi. Diqqat savol: Sher muallifi nafaqat shoir, yana bu kasb vakili edi. Qaysi kasb?

136. Siz o'z yo'nalishingiz bo'ylab avtobusda ketyapsiz. Birinchi bekatda Asror buvisi Zulfiya bilan chiqishdi. Keyingi bekatda buvisi tushib qolib xalta ko'targan Nodira ismli ayol chiqdi, unga Begzod xamroh edi. Avtobus 15 daqiqa yurgach bekatda to'xtadi. Avtobusga Ali Vali va Mirvali do'stlar chiqishdi. Diqqat, shofyorning ismi nima?

137. Ildam - ildam

Sakrab o'tadi, Tutay desam Qochib ketadi.

138. Shimoliy Normandiya vikinglarini boshqargan yetakchisini nomi Rolf. Laqabi esa piyoda. Diqqat savol: Piyoda laqabini unga qanday hususiyati uchun berilgan?

139. Florensiyadagi muzeyda teleskop va ko'zgular orasida bir eksponat bo'lib, unga berilgan tarifda " u osmonni teshib o'tgan" yozuvini ko'rish mumkin. Diqqat savol: Bu eksponat kimga tegishli edi?

140. Indoneziyaning Bali orolida yashovchi har bir inson umrida uch marotaba ibodatxonaga zambilda keltiriladi: birinchi marta-yigit yoki qiz balog'atga yetganida, ikkinchi marta-nikoh to'yida. Uchinchi marta qachon?

141. Mantiqiy savol: 2 kun ketma-ket yomg'ir yog'ishi mumkinmi?

\*\*\* 14 \*\*\*

142. Shunday insonlar borki, ular otni ham, filni ham qiyinchiliksiz ko'tara oladi, joyini o'zgartira oladi. Ular kimlar?

143. Tarix bilimdonlari uchun savol: Xitoy imperatori (Min sulolasi 1368 yil) Amir Temurga yuborgan maktublarida unga bir nom bilan murojaat qilardi. Diplomatiya tilida esa bu «sen menga tobesan» degan ma'noni bildirardi. Imperator o'z maktublarida Amir Temurga qanday murojaat qilardi?

144. Tibbiyotda juda keng ishlatiladigan bu so'zning asl ma'nosi «quritilgan» degan ma'noni bildiradi. U inson organizmining asosi bo'lib xisoblanadi. Bu qanday so'z?

145. Jo'jani bolasi nima deyiladi ?

146. Yoshi 100 yoshdan kam bo'lgan bir to'tiqush bor edi. U savolga faqat Ha yoki yo'q deb javob bera olardi. Uning yoshini aniqlash uchun necha marta savol berish kerak?

147. Ikki marta tug'iladi, bir marta o'ladi. Bu nima?

148. Sarvar 5 ta natural son o'yladi va ularni kvadratga oshirdi. Anvar bu kvadratlar

orasida ayirmasi 9 ga bo'linadigan ikkita son bor dedi. U haqmi?

149. Bir g'orga ofitserlar qo'riqchiga parol va parol javobini aytib kirishar edi. Josus ularning parol tizimini o'rganish uchun butalar orasiga yashirinib oldi va kuzatdi. Ofitser g'or og'ziga keldi.

Qo'riqchi: -parol? Ofitser: 12 Qo'riqchi: Javob? Ofitser: - 6 Qo'riqchi: Kiring! Yana bir ofitser keldi. Qo'riqchi: - Parol? Ofitser: - 22 Qo'riqchi: - Javob? Ofitser: 11 Qo'riqchi: Kiring! Josus ularning parol tizimini o'rgandim deb o'ylab qo'riqchining oldiga bordi. Qo'riqchi: - Parol? Josus: 100 Qo'riqchi: - Javob? Josus: 50 Qo'riqchi noto'g'ri javobdan josusni aniqlab ushlab oldi. Yuqoridagilardan kelib chiqib o'ylab ko'rib aytingchi, parol 100 bo'lsa javob necha bo'lishi kerak edi?

150. Mashhur sayyox Jeyms Kuk Taiti va Yangi Zelandiya orollariga ikkinchi bor tashrif buyurganida o'zi bilan qo'y va cho'chkalar olib boradi. 2 ta maksadi bor edi: birinchisi orolliklar turmush farovonligini oshirish, ikkinchisini siz o'ylab ko'ring.

151. Komi Respublikasida (RF tarkibida) unga haykal o'rnatilgan bo'lib, "Stokgolm sindromi" ga misol bo'la oladi. Chunki u inson qotillari bo'yicha reytingda fugu, timsoh, akulalardan oldinda turadi. Uni toping.

152. Nimani faqat 1 marta baham ko'rish mumkin?

153. Mashhur bu amerikalik yoshligida cherkov omborida yuk tashuvchi, ombor qorovuli vazifasida ishlagan. Ko'pincha u yolg'iz qolganida,

ombordagi sichqonlarni kuzatadi. Diqqat savol: Bu amerikalikni ism familiyasini toping.

154. Tunda chiqar onasi.

Necha minglab bolasi. Berkinishar qo'rqqandan, Kelib qolsa otasi.

155. Kim o'tirgan holda yuradi?

156. Vyurtsburg universiteti olimlari tajribalaridan birida, Fransiya va Germaniyada tug'ilgan chaqaloqlarni taxlil qilib, chaqaloq yig'isida ham uni tanib olish mumkin degan xulosaga kelishdi. Uni lotincha so'zli javobni toping.

157. Uning bunday nomlanishiga kompozitorlar sabab bo'lishgan ekan. Qo'shiqlar yozilgan, qog'ozlarni dastalab o'qishga qulay qilib qo'yishgan. Bu dastani shunday deb nomlashganki, bugun juda ko'pchiligimiz uni ulardek ataymiz. Savol: u qog'ozlar yig'masini qanday ataymiz?

158. Ko'zga ko'rinmas, qo'lga tutilmas.

159. Rus bastakori Borodin kimyo bo'yicha professor hisoblanar edi. Uning do'stlari tinmay ta'kidlashar edilar: "Senga sog'lik emas, kasallik tilaymiz". Nima uchun bunday gapirishar edi?

160. Kichkina mitti, echkini yiqittdi.

161. Uning yengil va og'ir turi bor, ammo og'irligi yuk emas.

U tez va sekin bo'lishi mumkin, lekin, yurmaydi, yugurmaydi, uchmaydi. U nima?

162. Toshkentda - 7 ta, Namanganda - 8 ta, Samarqandda - 9 ta. Gap nima haqida ketyapti?

163. Muxtasham yuz yil serialida Sulton Sulaymonga Usmoniylar xaritasi tasviri tushirilgan uni sovg'a qilishadi. Bu sovg'a bilan barcha hududlar sizning izmingizda deyishmoqchi edi. Diqqat savol: Uni ayting.

164. Bir kema halokatga uchrab birgina erkak kishi omon qolibdi. To'lqinlar uni faqat ayollar yashaydigan orolga eltib tashlabdi. Erkak hushiga kelganda ayollar uni qurbonlik qilish uchun tayyorlanishayotgan ekan. Ular erkakka so'nggi so'zlarini aytishini taklif qilishibdi. U so'nggi so'zlarini aytgach ayollar uni o'ldirish o'rniga qayiq yasab, oziq-ovqatlar bilan ta'minlab qo'yib yuborishibdi. Qiziq, erkak nima degan?

165. Qanoti bor pati yo'q.

Suti bor - u tuyog'l yo'q.



166. Italiya hukumati o'tgan asr 60-yillarida Keniyadagi eski neft qazib olish platformasi kosmodromga aylantiradi. Bu joyni tanlashdan asosiy maqsad pul tejash bo'lgan. Diqqat savol: Geografik joylashuvdan kelib chiqib aytingchi, italyanlar nega aynan Keniyani tanlashgan edi?

167. Oppoq tovuq don cho'qir,

Suv ichadi qorasi. Necha tovuq bo'ladi, Qo'shilganda olasi.

168. Bir nechtdan ko'zi bor,

Olma kabi yuzi bor.

169. Qaysi so'zni doimo "Notog'ri" yozamiz?

170. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida shunday yozilgan: "Ey farzand, bilgilki, donishmandlar uni kichik o'lim deganlar. Uni ko'p bo'lishi yomon odatdirki, badanni sust, tabiatni vayron qiladi, yuzni kasalga o'xshatib qo'yadi". U nima?

171. Meni ziyofatga taklif qilishdi. Men u yerda kamdan-kam odamda uchraydigan soati bor kishini uchratdim. Bu soat o'g'irlanganliginibildim. Savol buni qanday aniqladim?

172. Bita va koptok 1,10 dollar turadi. Bita koptokka qaraganda 1 dollardan qimmatroq turadi. Koptok qancha turadi?

173. Ular taqillatib, taqillatib zerikishmaydi, yurishadi, yurishadi, lekin hech qayerga ketishmaydi. Gap nima haqida ketyapti?

174. Matematik savol: Bir kishi bozordan 50 so'mga ot sotib oldi. Otlar narxi ko'tarilgani uchun uni 60 so'mga sotdi. Otsiz qiynalishini bilib 70 so'mga yana ot sotib oldi. Otasining qimmat olibsan deyishidan cho'chib 80 so'mga sotib yubordi. U qancha foyda ko'rdi?

175. Tuyaqush o'zini qush deb atay oladimi?

176. 1 kishi o'tiribdi, siz uning o'rniga also o'tirolmaysiz, hatto turib ketsa ham uning o'rniga o'tira olmaysiz. U qayerda o'tirgan bo'lishi mumkin?

177. Mantiqiy o'ylab toping, qanday olov kechayu kunduz yonib tursa ham xonana isitmaydi?

178. Alifboda nechta harf bor?

179. - 64. Qiziqarli boshqotirma. Ikkita bir xil stakan. Ularning birida sut, ikkinchisida kofe. Ularning miqdori bir xil. Birinchi stakandan 1 qoshiq sut olib ikkinchi stakanga solindi va aralashtirildi, keyin ikkinchi stakandagi sut aralashgan bir qoshiq olib sut solingan stakanga quyildi va aralashtirildi. Savol: sutda kofe ko'pmi, kofeda sut?

180. 8 tup olma daraxti bir qatorda joylashgan. Yonma-yon joylashgan daraxtlardagi

mevalar soni 1 taga farq qiladi. Barcha tuplardagi olma mevalari soni 2007 ta bo'lishi mumkin-mi?

181. Guvohlarning ko'rsatma berishicha, "Titanik"da voqea ro'y bergan vaqtida ular kemanding aysbergga urilgan ovozidan qo'rqishmagan, chunki uni kam sonli yo'lovchilar eshitishgan; kema a'zolarining yugur-yuguridan ham qo'rqishmagan, chunki buni xam kam odam sezgan; kema yo'nalishini o'zgartirganlik holatidan qo'rqishmagan, chunki uni faqat mutaxassislar sezishi mumkin edi. Tirik qolgan yo'lovchilarning hammasi kema aysberg bilan to'qnashgandan so'ng faqat "X"dan qo'rqishgan ekan. "X"ni mashhur adibimiz Said Ahmad ham ta'kidlab o'tgan. "X" ni toping?

182. Yaponiyada XX asrning eng katta yutug'i u tan olingan. 1999-yilda unga Osakada muzey ochilgan. Diqqat savol: Tezkorlik bilan javob bering. U nima?

183. Urdim gup[ etdi, yer tagiga kirib ketdi.

184. Tijortda raqobatga qarshi uchta qudratli qurol bor: 1. Sifat. 2. Narx. 3-nima?

185. Kattalar uchun savol: Bu so'z arab tilidan olingan bo'lib «tirikchilik, umr kechirish, yashash» degan ma'nolarni bildiradi. Lekin hozirgi kunda bu narsa yashash va umr kechirish uchun unchalik ham yetmasligi mumkinligini ko'rish mumkin. Bu qanday so'z?

186. XVIII asrda Shotlandiyada viski ishlab chiqarish uchun yuqori soliq joriy etiladi. Bazi odamlar soliqga chap berish uchun viskini tunda tayyorlashgan. Chunki tunda u unchalik sezilmaydi. Diqqat savol: Uni unililari bir xil so'zli javobni toping.

187. Menda 10 sum bor, sizda 15 sum bor. Pulimiz teng bo'lishi uchun necha pul berasiz menga?

188. 7 ta sham yonib turgan edi. Ulardan 3 tasini o'chirib qo'yishdi. Necha sham qoldi?

189. Oqila qog'ozga 86 sonini yozib, dugonasidan "ushbu sonni qog'ozda hech narsani o'chirmasdan, bo'yamasdan va chizmasdan 12 ga oshira olasanmi" deb so'radi.

Dugonasi buni eplay oldi. Qanday qilib?

190. Qadimgi Misrda don, sabzavot omborlari ibodatxonalarga yaqin qurilgan. Taxlilchilar fikriga ko'ra uni muqaddas hisoblanishi ham bu malumotga bog'liq. Diqqat savol: Uni ayting.

[191. Oyog‘l yo‘q yuradi, og‘zi yo‘q gapiradi.](#)

[192. Bu shaxmat donasi sabab o‘rta asrlarda arab shohlari bu o‘yinni o‘ynashni istashmagan.](#)

[193. Ular tabiatning buyuk xodisasi xisoblanadi.Xech bir kompaniya eki](#)

tashkilot uni yasay olmaydi.Tabiat uni uta chiroyli, ranglarga boy kilib yaratgan.Ok rang, kuk rang xatto kora ranglari xam uchraydi.

Savol:Tabiatda uchraydigan bu katta va chiroyli narsa nima ?

[194. Bu asar Avliyo Avgustino va Russoning kashfiyotlari,Gibbon va n‘yutonning yodnomalari qatoridan o‘rin olgan.Mazkur kitob yuksalishlar va tanazzullarni boshidan kechirgan insonning ibratli tarixidir-ki,uning yuksalishlari qanchalik sarbaland bo‘lsa,tanazzullari ham shunchalik tubsizdir.Savol:bu qaysi asar](#)

[195. U yog‘l arra, bu yog‘l arra, o‘rtasida go‘shiti barra.](#)

[196. Yaqin Sharq mojarlariga bag‘ishlangan videorolikda u femida ko‘rinishida tasvirlangan bo‘lib, uning tarozisini bir pallasida avtomat o‘qlari va o‘lim tasvirlangan. Ikki so‘zli javobni toping.](#)

[197. Steve yo‘lda ketayotganida tunelga kirib ketibdi. Shu vaqtda uning karmoni yo‘qolibdi. Unda 3 ta gumondor bor edi.](#)

Qiz: Men qo‘shiq eshitib o‘tiringandim Kampir: Uxlab yotgan edi. Bola: Men yo‘llarni tomosha qilayotgan edim. Savol: Kim aldayapti?

[198. Ko‘prikdan o‘tayotganda odamning oyoqlari tagida nima bo‘ladi?](#)

[199. Boshi bor – u sochi yo‘q,](#)

Ko‘zi bor – u , qoshi yo‘q.

[200. Bodrirallar aytgan: «U turmani mahbuslar bilan to‘ldirib turuvchi xizmatkordir». U nima?](#)

## **201 DAN 300 GACHA BO‘LGAN SAVOLLAR**

[201. Qaysi oyda 28 kun bor?](#)

[202. Bolalar uchun savol: Uning 5 barmog‘l bor, lekin u tirik jonzot emas. U nima?](#)

[203. Sinfda 30 ta o‘quvchi o‘qiydi. Ulardan 20 tasi rus tilini biladi. 18 tasi ingliz tilini biladi. Savol: nechtasi har ikkala tilni biladi?](#)

[204. Qaysi hayvon tosh ko‘ylak kiyadi?](#)

205. 5 ta yigit 1 ta etikda qolishi uchun nima qilish kerak?

206. Temir qo'rg'on ichida, qizil toychoq o'ynaydi.

207. Nima uchun odam orqasiga qaraydi?

208. Tarix bo'yicha savol: Buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnaynning qo'shinlari orasida maxsus 700 kishilik saralangan jangchilari bor edi. Ularning bir xislati tufayli raqib qo'shinlari ular bilan jang qilishga qiynalishar edi. Savol: saralangan jangchilarning qanday xislati bor edi?

209. Filmlarning birida personaj xona ichra dushmanini quvlab, unga avtomatdan o'q otadi. Garchi o'q to'g'ri borgan bo'lsada raqibiga hech narsa qilmaydi. Garchi bronjileti bo'lmasa ham. Diqqat savol: Nega?

210. Qozon ichida oppoq qor.

211. 16 qavatli uyda bir liliput (pakana) odam yashaydi. U har kuni ertalab ishga ketayotib liftda pastga tushib, so'ng ishga ketadi, ishdan qaytayotganda esa 10- qavatgacha liftda ko'tarilib, u yog'iga piyoda ketadi. U nimaga shunday qiladi?

212. Rossiya imperiyasida uning savdosidan davlatga tushgan daromad budjetning 40% ni tashkil qilgani qiziq. U?

213. Hazil savol: Taroziqa chiqib, vazni og'ir chiqqanida aytiladigan eng yaxshi bahona?

214. 19-asr ohiri va 20-asr boshlarida Amerikada "shunday" klublar soni ko'payadi. Klubda "shunday" odamlar jamlanib turli taomlar istemol qilishar, suhbatlar qurishardi. Klubga azo bo'lish uchun boy va albatta klub nomiga mos "shunday" bo'lishlari kerak edi. Diqqat savol: Qanday?

215. Odessa ko'chalaridan birida 3 ta tikuvchilik ustaxonasi bor edi. Ulardan birinchisi o'zini shunday reklama qildi: Odessadagi eng yaxshi tikuvchilikustaxonasi. Ikkinchisi shunday reklama qildi: Dunyodagi eng yaxshi tikuvchilik ustaxonasi. Uchinchisi har ikkalasini ham ortda qoldirdi. Uning ustaxonasiga nima deb reklama yozilgan edi?

216. Oddiy savol: Kishi xona ichida qachon boshsiz bo'lishi mumkin?

217. Islandiya poytahti Reykyavikdan 112 km janubi-sharqda Surtsey degan vulkan bor. Bu vulkanning boshqa vulkanlardan farqi bor. Bu farq nimada?

218. Qirol oy davomida har kuni shirinlik sifatida pirojniyning ikki turini

buyurdi. Agar qaysidir ikki kunda shirinliklar bir xil bo'lib qolsa,

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida



oshpazning boshi ketadi. Oshpaz boshi ketmasligi uchun pirojniyning necha xilini pishirishni bilishi kerak?

[219. Janubiy Afrikada yashovchi yovvoyi bushmenlar suv qidirishda babuin maymunlaridan foydalanishadi. Babuinlarga ko'p miqdorda uni berishadi va qo'yib yuborib ortidan quvlashadi. Diqqat savol: Babuinlarga nima berishadi?](#)

[220. Olma sharbatini qanday stakanga quyib bo'lmaydi?](#)

[221. Ingliz fermerlari sigirlarga ko'proq tuz berish samarali ekan deyishmoqda. Tuzning qanday foydasi bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?](#)

[222. Yugurganda insonni qaysi a'zosi terlamaydi?](#)

[223. Bir versiyaga ko'ra "bu ishni" mashhur bo'lishiga 1700-yilda tug'ilgan graf Zizendorf sababchi. Do'stining yozishicha 1746-yilgi bayramda graf uyida 50 ga yaqin ular bo'lgan. Ular nima?](#)

[224. Mantiqiy savol: Qizil shar qora dengizga tushib qolsa nima bo'ladi?](#)

[225. Aynan bir poytaxt shaharning ichida boshqa bir davlat joylashgan. Bu qaysi shahar va davlat?](#)

[226. Mahfuza kechasi 2 da uyg'ondi. Kitobni varaqlay boshladi. Shu vaqt derazadan o'g'rilar oshib tushib shkafdagi tilla taqinchoqlarni o'g'irlab ketishdi. Ertalab militsiya kelganda Mahfuza o'g'rilar bu ishni qanday amalga oshirganligini va ular kimligini aytib bera olmadi. Savol: Mahfuza nega og'rilar haqida aytib bermadi?](#)

Eslatma, Mhfuzaga ko'zi ojiz ham, kar ham, soqov ham emas.

[227. Qaysi askar eng katta dubulg'a kiygan?](#)

[228. Uyingizga mehmonlar keldi. Muzlatgichda 1 shisha limonad, 1 shisha olma sharbati, 1 shisha mineral suv bor. Qay birini ochishingiz to'g'ri bo'ladi?](#)

[229. Beli qilday.](#)

Boshi xumday.

[230. Jefri Myuller kiyikning shoxi, bulbulning qo'shig'i va tovus dumini undagi atributlar deb ataydi. 1971-yilgi film nomi ham u. Diqqat savol: Shu filmda talablarga nisbatan berilgan taklif ro'yxatdagi so'nggisini toping.](#)

[231. O'zi boldan shirin, yesa bo'lmaydi.](#)

[232. U daryoda, okeanda hatto botqoqda ham bo'ladi, lekin ariqda bo'lmaydi. Gap nima haqida ketayotganligini toping.](#)

[233. Yer tagida qubba igna.](#)

[234. Bir gap borki uni xursand odamga aytsangiz, hafa bo'ladi, hafa bo'lgan insonga aytsangiz xursand bo'ladi. Bu qanday gap?](#)

[235. Bu poytaxt shaharga o'sha davlatning 1- prezidentining nomi berilgan. Bu qaysi shahar?](#)

[236. Xempshir kubogida Paulsgrove klubi o'z maydonida noodatij Kingston Arrows klubi bilan o'yin o'tkazadi. Kingston Arrows jamoasi javob bahsiga mehmonga bora olmaydi. Diqqat savol: Agarda moliyaviy jihatdan, sog'liq tomonidan muammo, bo'lmasa, nega mehmonga bora olishmagan?](#)

[237. Tasavvur qiling, dalaning o'rtasida bir bug'u o'lib yotibdi. Ammo unga birona hayvon yaqinlashmayapti. U kasal bo'lib o'lmagan.](#)

Savol: nima uchun yirtqichlar uning go'shtini eyishdan hazar qiladi?

[238. Yaponiyada o'limga hukm qilingan mahbus Yaponiya qonunlariga kora qurol orqali otib o'ldirilar ekan. Ammo bazi hollarda istisno qilinar, mahbus boshqa qatl usullari orqali o'ldirilar ekan.](#)

SAVOL. Nima sababdan mahbusni qatl qilish o'zgartiriladi?

[239. Chalgituvchi savol: Nimani bog'lash mumkin-u, ammo yechib bo'lmaydi?](#)

[240. Ikki narsa hayotning asosi, tiriklik manbai hisoblanadi. Ular bir-biriga juda bog'liq va o'xshash. Insoniyat esa o'sha ikki narsasiz kun ko'ra olmaydi. Birinchisini ushlab ko'rish mumkin, ikkinchisini ushlab bo'lmaydi, xatto yaqinlashib ham bo'lmaydi. Savol: Bular nima?](#)

[241. Matematik savol: Shaxmat taxtasining a1 katagida turgan ot har bir katakka bir martadan yurib, oxirida h8 katagiga kelishi mumkinmi?](#)

[242. Yashil gumbaz ichida.](#)

Qip – qizil xona Bir xil libos , teng bo'yli. Ming bir dugona.

[243. Stolda 3 ta bodring va 4 ta olma bor edi. Bola olmadan 1 ta olsa, stolda nechta meva qoladi?](#)

[244. Bu transport vositasi Sharq xalq ogzaki ijodi uchun xos. Chunki osha buyumning o'zi Sharq uchun juda qadrlil. Qaysi transport?](#)

[245. Nurotada bu narsa juda ham ko'p. Bu narsaga quyidagicha nomlar ham qo'yilgan: Mastak, Zuli, Zulfiqor, Mozor, Begli, Tayla, Maston. Nurotadagi bu nomlar nima narsaga qo'yilgan?](#)

[246. Yevropada yashovchi ayolni Kanadada dafn qilib bo'lmaydi. Nega?](#)

247. Bir shifoxonada bemorlar soni qabul qila olish ko'rsatkichidan oshib keta boshladi. Bemorlarning aksariyati YTH jarohat olgan haydovchilar edi. Bemorlar sonini kamaytirish uchun shahar ma'muriyati haydovchilarga xavfsizlik kamarini taqishni majburiy qilib qo'ydi. Vaqt o'tgach, statistika o'rganilganda YTH-lar soni kamaymagani, ammo kasalxonaga tushgan bemorlar soni ancha ko'payganini aniqlandi. Buning sababi nimada?

248. Og'izdan chiqqancha meniki, og'izdan chiqqani elniki.

249. O'quvchilar uchun savol: Nima ko'ylak kiyadi-yu, shim kiymaydi?

250. Akasi 12 yosh 7 oylik. U singlisidan 3 yosh 5 oy katta bo'lsa, singlisi necha yoshda?

251. Quyvon emas, uzunquloq.

Ot emas, to'rtta tuyoq.

252. Mexmonxonani shifoxonaga aylantiruvchi belgi qaysi?

253. Japan Airlines Corporation bir guruh yo'lovchilarni turli reyslarga joylashtirishga majbur bo'ladi. Diqqat savol: Bu yo'lovchilar kimlar edi?

254. Ko'k ko'ylakli xotin sariq

bola ko'targan.

255. Ot o'z bo'yniga bog'langan qo'ng'iroqning ovozini eshitmaslik uchun necha km/soat tezlikda chopishi kerak?

256. Ko'plab bu turdagi kompaniyalar o'zining ishchilariga soqol qo'yishga ruhsat bermaydi. Chunki kutilmagan vaziyatda soqol halaqit qilishi mumkin. Diqqat savol: ishchilarni kasbi nima bo'lgan?

257. VII-VIII asrlarda Eronda topilgan tarixiy hujjatda shunday majburiyatlar yozilgan edi: "Xudo nomi bilan qasam ichaman, uni sotmayman, qarz hisobiga qullikka ham, boshqalar himoyasiga ham bermayman" Savol: ushbu hujjatda qanday majburiyat zikr etilgan?

258. Kakku qushlari tuxumlarini boshqa qushlar iniga tashlab ketadi. Odatda kakku polaponlari o'gay aka-ukalaridan ancha kuchli bo'ladi va ularni jangsiz indan tushirib yuboradi. Lekin janglar ham bo'lib turadi, xattoki kakku polaponining o'zi ham uloqtirib yuborilishi mumkin. Savol: qaysi holatlarda shunday bo'lishi mumkin?

259. Cho'ntakning doim bo'sh bo'lishi nimadan dalolat?

260. Baland shiftda biro dam osilgan holda topildi. Uning tag qismida suv ko'lmagidan boshqa hech narsa yo'q edi. Nima deb o'ylaysiz, bu jinoyatmi, yoki o'zini osish?

261. Uzun terak, ichi kovak.

262. Dunyo bo'ylab meva yetishtirish bo'yicha banan birinchi o'rinda turadi, ikkinchi o'rinda sitrus mevalar, uchunchi o'rinda qaysi meva turadi?

263. Qisqa savol: suvga tushsa nima ho'l bo'lmaydi?

264. Bir romanda yozilishicha Venetsiya shu qadar go'zal shaharki, odamlar ularga ikki barobar sadaqa berishadi. Bryugel ijodida ham ular bor. Diqqat savol: Ularni ayting.

265. Bu son ayollar uchun 803 erkaklar uchun 1401 bolalar uchun 106 o'lganlar uchun nech?

266. Hazilomuz savol: Yotishdan avval oxirgi marta nimani olib chiqasiz?

267. Ismi bor, jismi yo'q.

268. Ikki kishi daryo sohiliga keldilar. Ularning har ikkisi ham daryoning narigi tarafiga o'tishi kerak edi. Sohilda bitta qayiq bo'lib u faqat bir kishini ko'tara olardi. Shunga qaramay ular maqsadlariga yetdilar. Ular buni qanday uddalashdi?

269. - 75. Matematik boshqotirma. Qirg'oqqa 2 yosh bola va 1 katta odam kelishdi. Ular daryoning u betiga o'tibshlari kerak. Qirg'oqda 1 ta qayiq bo'lib u 2 yosh bolani yoki 1 odamni ko'tara oladi xolos. Ular o'ylab ko'rib buning yechimini topishdi. Siz ham yechim izlab ko'ring.

270. Mantiqiy topishmoq: Ikki qorin, to'rtta quloq

271. Ikkinchi jahon urushidan keyin nemis restoranlari 25-30 yoshlardagi yoshlarni ishga oladi. Ular na taom tayyorlashgan, na ofitsant(ka) lik qilishgan. Diqqat savol: Bu yoshlar nima ish qilishgan?

272. ndeyslar sabzavoti bölmish X Yevropada dastlab gulzorlarni bezash uchun ekilgan. Amerikadan keltirilgan X mevalarining rangi sariq bölgan. Italyanlar ularni "oltin olmalar" deb atashgan. Hozirda biz ishlatayotgan X ning nomi shundan olingan.

D/s: bu qaysi sabzavot?

273. Ilmiy kitoblarda u holatga shunday baho berilgan: katta hajmdagi energiya qisqa muddatda va o'lchangan miqdorda ozodlikka chiqadi.

Savol: bu nimaga berilgan baho?

274. Sotib olganingizda qora, ishlatganingizda qizil, tashlab yuborganingizda kulrang bo'ladi. Bu nima?

\*\*\* 24 \*\*\*



[275. Har qanday kosmonavt parvoz vaqtida nimani yo'qotadi?](#)

[276. Emaklagan toshni ko'rdim, toshdan chiqqan boshni ko'rdim.](#)

[277. Bir quruvchi bir uyni 30 kunda qurib bitirdi. Ikkinchi quruvchi shu uyni 20 kunda qurdi. Ikkala quruvchi baravariga ishlashsa necha kunda uyni bitirishadi?](#)

[278. Alisher Navoiy Amur Temurga qaysi tilda xat yozgan?](#)

[279. U tartib bo'yicha to'qqizinchida turadi, lekin uning nomi lotincha bo'lib tarjimai yettinchi degan ma'noni bildiradi. Bu nima?](#)

[280. Qirq xujrada qizil qizlar.](#)

[281. Erta bilan to'rt oyoqlab yuradi.](#)

Tushda ikki oyoqlab yuradi, Kechqurun uch oyoqlab yuradi.

[282. Mantiqiy: Quyosh qaysi davlatdan chiqadi ?](#)

[283. Bir davrali futbol musobaqasida "PAXTAKOR" boshqa hamma jamoalardan ko'p go'l o'tkazib yubordi va ko'p go'l kiritdi. U ohirgi o'rinni olishi mumkinmi?](#)

[284. Tottenham futbolchisi Son Xyon Min futbol matchidan keyin muxlislar bilan suratga tushishga rozi bo'ladi. Biroq Son telefonni ushlab qarshilik qiladi va muxlis o'zi suratga olishini iltimos qiladi. Chunki Sonda u bor edi. Diqqat savol: Uni bir necha so'zli javobni toping.](#)

[285. Dedektiv savol: Qish kunlarining birida kuchli qor tufayli maktab va ish to'xtatildi.](#)

Jek tashqariga chiqib, qo'shnilarining qorda o'ldirilganini ko'rib, politsiyani chaqirdi. Politsiya kelib, uchta qo'shnini shubhada ayblab, so'roq qiladi.1 Jek: Men qorni quritgani chiqdim, lekin hech kimni ko'rmadim. 2 Toni: Men o'rta maktabdan qaytib keldim, bilmayman. 3 Elis: Men uydan chiqmadim, uxladim. Politsiya bu haqda eshitgandan keyin gumondorlardan birini hibsga oldi! Hurmatli olimlar: Aytingchi, kim qatil bo'lishi mumkin?

[286. Ovqatlanayotgan vaqtda nima yo'qoladi?](#)

[287. Endi hech qachon ko'rinmaydigan narsa nima?](#)

[288. Sankt Peterburgdagi Yozgi bog'da bir haykal bor. Uning atrofida har doim bolalar gavjum. O'rindiqda o'tirgan qariya chuqur o'yga tolgan, uning poyida hayvonlarning bronza haykalchalari. Bu odam kim?](#)

[289. U dastlab "Misr-Osiyoga yorug'lik olib keladi" shiori ostida qurilishi kerak edi. U?](#)

290.  $2+2*2$  ning javobi necha bo'ladi?

291. Yem bersangiz yashaydi, suv bersangiz o'ladi.

292. Afsonaga ko'ra Gerostat Afina ibodatxonasini yoqib yuborganida, Afina unga doyalik qilish bilan band bo'lgan. Diqqat savol: Kimga?

293. Bir vaqtning o'zida 2 uy yonmoqda, biri bdavlat kishiniki, ikkinchisi kambag'al kishiniki. Qaysi uyni politsiya birinchi bo'lib o'chirishga shoshiladi?

294. Qizilini o'zim yedim sarig'ini molga berdim.

295. Bitta tayoqning 2 ta uchi bo'lsa, 1 yarimta tayoqning nechta uchi bo'ladi?

296. Yumiqlik ko'zlar bilan nima ko'rish mumkin?

297. Adabiyot bilimdonlari uchun savol: O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» ida shunday yozilgan: «Ikkita eng holis hakam sinovidan o'tgan asar haqiqiy asardir. Birinchisi tabiiyki, kitobxon. Ikkinchisi nima?»

298. Hech qanday qo'lsiz nima qarsak chalishi mumkin?

299. Sevimli shoirimiz Erkin Vohidovularnio'z she'rlarida quyidagicha ta'riflaganlar:

Ularda reja bor, ish bor, g'ayrat bor, Ular hordiq kun qilmaslar talab.  
Dushanba boshlari og'rimas nahor, Kechikib kelmaslar ishga ertalab.  
Savol: ular nima?

300. Agar 5 ta mushuk 5 ta sichqonni 5 daqiqada ushlasa, 1 ta mushuk 1 ta sichqonni necha daqiqada ushlaydi?

## **301 DAN 400 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR**

301. Mashhur fransuz adiblaridan birining Eyfel minorasini ko'rishga ko'zi yo'q edi. Ammo u har kuni Eyfelning birinchi qavatida tushlik qilardi. Bu holatni qanday qilib izohlash mumkin?

302. Mashhur ixtirochi Edisonning o'g'li turli noodatij qurilmalar savdosi bilan shug'ullanar, ular sehirli deb atardi. Kunlarning birida Tomas Edison o'g'liga otasi uchun bir yaxshilik qilishga rozi bo'lsa unga mo'maygina pul berishga rozi bo'lardi. Diqqat savol: Qanday ish?

\*\*\* 26 \*\*\*

303. Qo'llarda 10 ta barmoq bor, 10 ta qo'lde nechta barmoq bor?

304. Qisqa savol: Koreys tiliga poytaxt so'zini tarjima qiling.

305. Dunyoda ikki davlat borki, mustaqil bo'lishlarini oldingi tarkibida bo'lgan davlat tashabbus ko'rsatgan. Birinchisi Lyuksemburg bo'lib, Otto fon Bismark Germaniya hukumatida bo'lganida tashabbus ko'rsatgan edi. Diqqat savol: Siz dunyodagi ikkinchi davlatni toping.

306. Oddiy savol: O'rta bo'yli erkak qahvaxonaga kirdi va non, qahva, salat va taom buyurtirdi. Ofitsant savol berdi

-siz o't o'chiruvchimisiz? -ha Ofitsant bu kelishgan erkakni o't o'chiruvchi ekanligini qayerdan bildi?

307. Ular o'rtasidagi janglar Filippinda sportning milliy turi darajasiga chiqarilgan. Jangdan oldin ular sarimsoqpiyoz iste'mol qiladi va ustiga ham sarimsoqpiyoz surkaladi. Ularni toping.

308. Matematik savol: Akbar sakkizga to'lganida otasi 31 yoshda edi. Endi esa otasi Akbardan ikki baravar katta. Xo'sh, Akbar necha yoshga kirdi?

309. Nega Betxoven tugallanmagan simfoniyani tugatmadi?

310. Qaysi hayvonlar doim ko'zlarini ochib uxlaydilar?

311. Inson terisini eng qalinn va eng yupqa joyi qayerda?

312. 9 ta shesterna (tishli doiralar) quyidagicha joylashtirilgan: birinchi shesterna

ikkinchisi bilan, ikkinchisi uchinchisi bilan,... , sakkizinchisi to'qqizinchisi bilan, to'qqizinchisi esa birinchisi bilan tutashtirilgan. Sobir birinchi shesternani soat milining harakati yo'nalishida aylantirdi. Qanday hodisa ro'y beradi? Nima uchun?

313. U narsa ham tepaga chiqadi, ham pastga tushadi, lekin joyida qoladi. U nima?

314. Suv ostida bor bir teshik.

Teshikmas - ochiq ikki eshik.

315. Odamda bitta, qarg'ada ikkita, itda yo'q. U nima?

316. Ular tug'iliboq uchishni boshlashadi, ularning ko'rinishi yolg'ondan iborat, ular halok bo'lganda suzib yurishlari ham mumkin. Bolalar yaxshi ko'ruvchi nima haqida gap ketmoqda?

317. Sham o'chganda Akbar qayerda qoldi?

318. Kichkina lo'li

\*\*\* 27 \*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

Qorniga yetmaydi to'ni.

[319. Bernard Rassel fikriga ko'ra tilanchilar boylarga havas qilmaydi, aksincha ularga hasad qiladi. Diqqat savol: Ular so'zi bilan almashgan bir necha so'zni toping.](#)

[320. Juda och qoringa nechta tuxum yeyish mumkin?](#)

[321. Sevimli shoir Erkin Vohidov ularni shunday ta'riflagan:](#)

Ularda reja bor, ish bor, g'ayrat bor, Ular hordiq kun qilmaslar talab. Dushanba boshlari og'rimas nahot? Kechikib kelmaslar ishga ertalab!

O'zbekiston qahramoni Erkin Vohidov ular degandanimani ta'riflagan?

[322. NASA malumotiga ko'ra, Somon yo'li galaktikasida taxminan 100-400 milliard yulduz bor. Sayyoramizda esa 3 trillion u bor. Bu yaxshi holat. Nima?](#)

[323. 9 qavatli binoda lift bor. 1-qavatda 2 kishi, 2-qavatda 4 kishi, 3-qavatda 8 kishi, 4-qavatda 16 kishi, 5-qavatda 32 kishi va boshqalar yashaydi. Ushbu binoning nechanchi qavatida lift tugmasi ko'proq bosiladi?](#)

[324. Saddam Husaynning "Yashil kitob" asarida "Ayol - ham inson", "Erkak ham inson" kabi jo'shqin so'zlar bilan boyitilgan bo'lsada, asar kommunistik g'oyalarga, yakka hukmronlikka chorlovchi fikrlarga to'la bo'lgani uchun bu mahsulotga o'xshatiladi. Savol: Qaysi mahsulot?](#)

[325. Niderlandiyaning Zaanse Schans shaharchasiga tashrif buyuruvchi ko'plab sayyohlar keyinchalik quloq og'rishidan shikoyat qilishadi. Chunki bu toponim ochiq osmonidagi ularning muzeyi hisoblanadi. Ularni toping.](#)

[326. Yomg'irda quyon qanday daraxt tagida turishi mumkin?](#)

[327. O'zi pillaga o'xshar.](#)

Ichi tillaga o'xshar.

[328. Bir kunda bitta tug'ruqxonada ikki o'g'il farzand dunyoga keldi. Ularning ota-onalari bitta ko'p qavatli uyda yashashardi. Ikkita bola bitta bog'chaga, bitta maktabga borishdi, bir sinfda o'qishdi. Lekin hech qachon bir-birini ko'rmadi. Bu qanday qilib bo'lishi mumkin?](#)

[329. Yuliy Sezar o'z qo'shinlariga qalqon va qilichlarini qimmatbaho narsalar bilan bezatishni buyurgan. Nima uchun?](#)

[330. - 68. Topishmoq: Dengiz ham emas, yer ham emas. Unda kema ham suzmaydi, odam ham yurmaydi.](#)

331. Matematik topishmoq: pastda turgan bir g'oz osmonda uchib ketayotgan g'ozlarga qarab "Hooy yuz g'ozlar, meni ham olib ketinglar!" - debdi. Shunda osmondagi g'ozlar "Biz 100 ta emasmiz, bizga bizcha, bizning yarmimizcha, yarmimizni yarmicha keyin sen qo'shilsang 100 ta bo'lamiz" - deyishibdi Osmondagi g'ozlar nechta?

332. Olim Robert Oppenheymer olimlar bilan o'zaro yozishuvlarni yoqtirgan. 1910-yillarda taniqli olimlar bilan yozishmalar olib borar ekan u faqatgina yozuv mashinkasidan foydalanadi. Diqqat savol: Oppenheymer nega qo'l yozuvidan emas, yozuv mashinkasidan foydalanganini toping.

333. Uzun tor ko'cha, ichi to'la lo'libachcha.

334. Hakimlar aytishlaricha, u charchog'i yo'q ibodat, bezaksiz ziynat, davlatsiz haybat, devorsiz qo'rg'ondir, u olim uchun ziynat, johil uchun pardadir. Hakimlar nimani nazarda tutganlar?

335. 5 xonali sondan iborat parol qo'yilgan, Bu parolni ochish uchun necha xil variantda son terish kerak ?

336. Besh og'ayni yosh edi,

Ichida biri bosh edi.

337. U ilk bor rus imperatoriga saroyiga olib kelinganida, u haqida "Yaxshi chaynalmaydi", "Tami achchiq" deya fikrlar bildirilgan. Diqqat savol: U nima?

338. Bir uyning uch asosiy xonasi bor edi. 1-xonada pullar, 2-xonada hujjatlar, 3-xonada tilla buyumlar turar edi. Kunlarning birida uyga o't ketdi. Politsiyachilar kelib olovni o'chirishni qaysi xonadan boshlaganliklari to'g'ri bo'ladi?

339. Bolalr uchun savol: Suaxili tilini bilmaysiz, lekin u tildagi bir so'zni mashhur multfilmdan ko'p eshitganmiz va ishlatganmiz. Bu so'zning ma'nosi havotirsiz yaxshi yashash degani. Bu qaysi so'z?

340. AQSH davlatining Xitoy respublikasiga sotadigan mahsulotlari orasida u 3- o'rinda turar ekan. Bu AQSHga bir yilda 1 milliard 300 million dollar foyda keltirar ekan. Savol: qanday mahsulot (uni mahsulot deyish ham mushkul) haqida gap ketyapti?

341. Ingliz komik aktyori Billy Konolli bir kuni juda mast bo'lib, undan chiqqa olmay qoladi. Billy keyinchalik telefon orqali yordam chaqiradi. Diqqat savol: Billy qayerda qamalib qolgan edi?

342. Bir bola ko'chadan 1 so'm pul topib oldi, agar ko'chaga 2 ta bola chiqsa necha so'm topib olardi?

[343. Haydovchi yuk mashinasini haydab ketayotgan edi. Mashinaning yoritgichlari \(faralari\) o'chgan, osmonda oy ham ko'rinmasdi. Shu vaqt yo'lni bir ayol kesib o'ta boshladi, lekin haydovchi u ayolni uzoqdan ko'ra oldi. Haydovchining bunday muvaffaqiyati nimaga bog'liq edi?](#)

[344. Mantiqiy savol: Ali va Vali baliq ovlagani chiqishibdi. Ular o'g'illarini olvolishibdi. Vlining o'g'lini ismi Mirvali ekan. Ali 4 ta, Vali 3 ta, Mirvali 6 ta baliq tutibdi. Savol: Alining o'g'lini ismi nima?](#)

[345. Nimaning patlari bor, qanotlari yo'q?](#)

[346. Savol matnida bir so'z boshqa ikki so'z o'rnida kelgan.](#)

1952-yilgi Misr inqilobida monarxiya ag'dariladi. Bundan hursand bo'lgan butun xalq faqat quvonchdan qo'shiqlar aytardi. Hattoki darslar to'xtab qolgani aytiladi. Diqqat savol: Almashgan ikki so'zni toping.

[347. Tepadan pastga nima o'sadi?](#)

[348. Sherlock Xolms va Doktor Vatson Londonning bir chekkasidagi qahvaxonaga kirishadi, chekkadagi stulga borib o'tirishadi. Xolms qahvaxona xo'jayiniga "Ilgari qahvaxonangizda to's-to'polonlar bo'lib turarmidi?" - deb so'raydi. Xo'jayin og'zi ochilib buni qayerdan bildingiz deb so'raydi. Xolms buni qayerdan bilgan edi?](#)

[349. Chalg'ituvchi savol: 5 ta bola 1 ta etikni kiyish uchun nima qilish kerak?](#)

[350. Yog'ochni 12 bo'lakka bo'lish uchun uni necha marta arralash kerak?](#)

[351. Bir mashhur shifokor huzuriga bir ayol kelib menga ozishning yo'llarini o'rgating debdi. Shifokor ayolga menga qarang, boshingizni o'ngga qarating, chapga qarating, mana shu harakatni tez-tez qilib turing debdi. Savol: ayol bu harakatni qachon qilay deb so'raganda shifokor nima deb javob bergan?](#)

[352. She'riy savol:](#)

She'riyatning timsoli - qalam, U hakda-ku she'rlar behisob, Ey shoirlar, bitganda kitob Eslab qo'ying buni ham. Busiz bo'lmas she'ringiz ravon, Busiz qilmas satrlar xanda, Siz qalamga she'r aytganda, Bunga bag'ishlang doston. Shoir Erkin Vohidov Bu deganda nimani nazarda tutgan?

[353. U yog'l tog', bu yog'l tog', o'rtasida sariyog'](#)

[354. Har yili 13-iyulda rebus sevuvchilar, xalqaro boshqotirmalar kunini nishonlashadi. Chunki u shu kunda tug'ilgan. Kim?](#)

[355. Hazil savol:](#)



Ota onalar bolasidan menda turib tursin deb oladigan pul?

356. Qiziqarli savol: Uning o'rnida Sulaymon orollarida odamning bosh suyagi, Santa Krus orollarida qush patlaridan yasalgan 10 m. lik tasma, Tinch okeanidagi ba'zi orollarda 100 yil oldin diametric 4 m. lik bo'lgan toshlar ishlatilgan. Savol: uning o'rnida biz hozir nima ishlatamiz?

357. Shunday mo'rt narsa borki, nomini aytilsa ham buziladi.

358. Kongoda qora tanlilar oilasida chaqaloq tug'ildi. U oppoq edi, hatto tishlari ham oppoq. Bu gapda qanday xato bor?

359. Angliyada birinchi o'rinda, Daniyada ikkinchi o'rinda, Braziliyada uchinchi o'rinda, O'zbekistonda yo'q. Gap nima haqida ketmoqda?

360. Ona tiliga qiziquvchilar uchun savol:

Yalqov, tanbal, dangasa, Sen emasmi Mirolim? O'qib keldim domlajon, Bular bari... Nuqtalar o'rnida qaysi so'z bo'lishi kerak edi?

361. Shoir William Wordsworth(1770-1850) unga nisbatan nafratda ekanligin aytib, uni sudralib yuruvchi ilonga qiyoslaydi. Bizdagi u 2002-yilda tashkil etilgan. Diqqat savol: Uni aniq ayting.

362. Bikford shnuri tekis yonmaydi va aniq 1 minutda yonib tugaydi. Shunday ikkita shnur yordamida 45 sekund vaqtni o'lchash mumkinmi?

363. Dahshatli savol: U barcha erkaklarda bo'ladi, ba'zilarida qisqa, ba'zilarida uzun. Uylanganlarida uni xotinlariga berishadi. U nima?

364. It 10 metrlik ipga boylangan, ammo u 300 metrga ketib qoldi. Qanday qilib?

365. "Passport to Pimlico" (1949) komedik filmida London tumanlaridan biri Burgundiya gertsogligiga sovg'a qilinadi. Keyinchalik bu tuman simlar bilan o'rab olinib, Angliya ichidagi Burgundiya yeri deb ataladi. Film syujeti bir necha yil avval Ottavadagi xonalardan biriga nisbatan qilingan qarordan ilhomlangan. Diqqat savol: Bu xona qanday vazifasini bajargan?

366. Qaysi kemani kapitan emas komandir boshqaradi?

367. Transportlar ichida eng xavfsizlaridan biri bolgan U har yili 27 nafar insonning olimiga sabab bo'larkan. U qanaqa transport?

368. Marsdagi ular bir necha hafta davom etishi, texnikalarni ishdan chiqarishi kuzatilgan. Suriyadagi harbiy amaliyotlar tufayli ular soni ortib, aholi jabr ko'rmoqda. O'zbekiston asosan g'arbiy va janubiy hududlari u ko'proq sodir bo'ladi. Diqqat ikki so'zli javobni toping.

369. Ulug' mutafakkir Mir Alisher Navoiy bu so'zning har bir harfiga bir ma'no berganlar. Bu so'zda ittifoqlik, saodat, latofat, oqibat va muhabbat mujassamlashgandir. Bu qaysi so'z?

370. O'rmon yong'inlarining oldini olish uchun kanadaliklar oddiy ogohlantiruvchi belgi bilan cheklanmaslikka qaror qilishgan. Ular park hududiga belgi o'rniga: "bu yerga bu ishni qilgan odamni ham osib qo'yish kerak" deb yozib qo'yishgan. Savol: bu ish deganda nima nazarda tutilmoqda

371. Bir kuni chol ikki nabirasi bilan yo'lga chiqibdi. Ular yo'lda ketayotib katta daryoga duch kelibdi. Daryoda qayiq bor ekan. Qayiq esa faqatgina 100 kilogram yukni ko'tara olarkan. Chol o'zi 100 kilo ekan. Nabiralar esa 50 kilodan ekan. Ular daryoni u betiga o'tishlari shart. Qanday qilib o'tib olish mumkin?

372. 6- sinf o'quvchilari 2 ta masala yechishdi. Dars oxirida Shokir Qosimovich to'rtta ro'yxat tuzdi: 1 - birinchi masalani yechganlar, 2 - faqat bitta masala yechganlar, 3 - kamida bitta masala yechganlar, 4 - ikkala masalani yechganlar. Ro'yxatlardan eng uzuni qaysi? Ikkita ro'yxat tarkibi bo'yicha ustma-ust tushishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, qaysilari?

373. Qiziq savol: Skavarotkaga ikkitadan prashka sig'adi. Bitta prashkani bir tomonini pishirish uchun 1 minut vaqt ketadi. 3 ta prashkani pishirish uchun eng kami bilan necha minut vaqt sarflash mumkin?

374. Qo'lsiz, oyoqsiz gul soladi.

375. 4 ta 4 sonidan turli matematik (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish) amallarini bajarib 20 sonini chiqaring.

376. Samolyot, vertolyot, paraxod, havo shari. Bu yerda qay biri ortiqcha?

377. Misr firavni Ramzes II ning 3000 yillik mumiyosini Parijga olib kelishmoqchi edi. Fransiya qonunlarida esa mamlakatga kirishda qat'iy bir talab mavjud bolgan. Shu tariqa mumiyo Unga ega bolgan. Nimaga?

378. Stolning 4 ta burchagi bor. Uning bir burchagini kesib yuborsak nechta burchak qoladi?

379. Yaponiya aviakompaniyalardan biri ishlab chiqarayotgan samalyotlarining burun qismiga ulkan ko'z shaklini ham chizishadi. Nega shunday qilishadi?

380. Sen notanish xonaga kirib qolding. U erda benzin va gaz bilan yonadigan chiroqlar bor ekan. Sen birinchi bo'lib nimani yoqishing kerak?

381. Shaxmat bo'yicha 9-jahon chempioni Tigran Petrosyaning shunday gapi bor: "Shaxmat -bu shakli bo'yicha o'yin, mazmuni bo'yicha-san'at, o'yinni o'rganish qiyinligi bo'yicha esa - udir". U nima?

382. Chalg'ituvchi savol: Bir traktorining ukasi bor ekan, ukasining akasi yo'q ekan. Mantiqiy fikrlab savolning javobini izohlab bering.

383. Qanday sharoitda qora mushukka uyga kirish oson bo'ladi?

384. Xitoydagi chiqindi qayta ishlab chiqarish zavodida "ularni" qochib ketishini oldini olish uchun zavod suv bilan o'rab qo'yilgan. 1972-yilda Germaniyada tug'ilgan mashhur qo'shiqchini bazi o'zbeklar ham "u" deyishadi. Diqqat savol: Uni nimaligini toping.

385. Saudiya Arabistoni mamlakatida nechta daryo o'rin olgan?

386. Bir sutkada soatning minut strelkasi necha marta ustma-ust tushadi???

387. Balandligi 10 metr keladigan narvondan sakrab, umuman jarohat olmaslik uchun nima qilish kerak?

388. Qayerda fevral yanvardan oldin keladi?

389. Siz osmonda bulutlar orasida ketayotgan bo'lsangiz nimani ustida o'tirgan bo'lasiz?

390. Qanday sonni hech qanday matematik amal bajarmasdan cheksizlik belgisiga aylantirish mumkin?

391. Bir qurbaqa 30 m quduqdan kunduz 3 metr yuqoriga, kechalari 2 metr pastga harakat etsa, quduqdan necha kunda chiqadi?

392. Bir hazilga ko'ra Nikolay Ivanovich Buxarin kompartiya daholari oldida shunday degan edi: "Hammingiz nomizga shaharlar ataldi. Kaliningrad, Stalingrad, Leningrad, Kirov va hkz". Stalin esa kulib ,

-Sizning nomingizda ham shahar borku!, deb javob beradi. Diqqat savol: Stalin qaysi shaharni ko'zda tutgan edi?

393. Qisqa savol: Nimaning 40 qulochi 1 gramga teng?

394. O'zi bitta, ko'zi mingta.

395. Kechqurun menga ertalab uchun topshiriq berishadi, men kulaman, shunda menga tanbeh berishadi. Men kimman?

396. XIX asr ohiri XX asr boshlarida X lar hayvon hisoblangan. Hatto zooparklarda saqlanib insonlarga namoyish qilingan!

X ni toping

397. Kunu tun yuradi, doim bir joyda turadi.

398. Kichkina mitti, qo'limga olsam qovurg'asi sinib ketdi.

399. Sport bilimdonlari uchun savol: O'tmishda Yevropaning ayrim mamlakatlarida chopar orqali yetkazilgan xat-xabar shunday atalgan, hozirgi kunda esa bu so'z bilan bir sport musobaqasi ataladi. Bu qaysi so'z?

400. Qanday holatda 3 ta yosh bola, 4 ta katta yoshli odam, 1 ta mushuk va 1 ta it bittagina soyabon tagida turib, yomg'ir ostida nam bo'lmaydi?

## **401 DAN 500 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR**

401. Biz quritganimiz sari nima ho'l bo'lib boradi?

402. Yo'l - yo'l to'ni bor.

Odam qo'rqar turqi bor.

403. [ Bu joy nomi yozda judayam issiq, qishda esa judayam sovib ketishi tufayli o'z nomini olgan. Qaysi joy?

404. Bir juft ot 20 kilometr masofani bosib o'tdi. Savol: har bir ot alohida necha kilometr yurgan?

405. Qaysi yegulikni pishirish vaqtida qancha tuz solsangiz ham sho'r bo'lib ketmaydi?

406. 81 ta bir xil ko'rinishli tangalar bor. Ammo bulardan bittasi qalbaki va u boshqalaridan biroz yengil. Ikki pallali tarozi yordamida 4 marta tortish bilan shu qalbaki tangani topib bering.

407. Qaysi qizning otasi yo'q, onasi yo'q - bobosi bor?

408. O'rindiqda 5 bola o'tirar edi. Ulardan 2 tasi ketishga qaror qildi. O'rindiqda nechta bola qoldi?

409. Aka-uka 2 soat mobaynida shashka o'ynadi. Ularning har biri qancha vaqt o'ynagan bo'ladi?

410. Qiziqarli savol: Diyego, Manfrid va Sid qaysi "davrda" do'stlashadi?

411. Yugurish musobaqasida siz ikkinchi o'rinda borayotgan kishidan o'tib ketdingiz. Siz endi nechanchi o'rinda siz?

412. Afsonalarga ko'ra Afina va Poseydon yunonlar poytaxti kimning nomi berilishi uchun bahslashishgan. Afina yunonlar ga zaytun daraxtini sovg'a qoladi. Poseydon esa buloq. Yunonlar uchun suv juda muhim bo'lsada ular Afina sovg'asini qabul qilishgan. Diqqat savol nega?

413. Nima tushadi, lekin ko'tarilmaydi?

414. Qoziq ustida qor turmas.

415. Hisoblab ko'ring, birdan yuzgacha bo'lgan sonlar ketma-ket yozilgan. Bu yozuvda a) nol; b) uch raqami necha marta uchraydi?

416. Qozonda emas qaynaydi, qishin yozin tinmaydi.

417. Bir nafasda olamni kezar.

418. Bu kiyimning narxi 12 million dollar turadi va bu kiyim hammaga ham berilavermaydi. Qaysi kiyim?

419. Birinchi jahon urushidan keyin Fransiya va Germaniya tashqi ishlar vazirlari tushlik vaqtida uchrashadilar. Davlatlararo muzokaralar yakunlanadi. Uchrashuv yakunida ular biroz tortishib qolishadi. Diqqat savol: Nima sabab tortishib qolishadi?

420. Qiziq savol: XIX asrlarda yevropada velosiped minish juda ommalashib ketadi. Velosiped bahona ayollarning azaliy orzularining ushalihi tezlashib ketadi. Savol: velosiped bahona ayollar qanday orzularini amalgam oshirib olishdi?

421. Hazil savol: Dugonalar o'rtasida kimni yigiti eng zo'ri aniqlanadigan kun qaysi?

422. Bir oilada 5 qiz bor ekan. 1- kitob o'qiyapti, 2- shaxmat o'ynayapti, 3- ovqat yeyapti, 4- yig'ishtiryapti, 5- nima qilyapti?

423. Zar gilam zar-zar gilam, ko'taray desam og'ir gilam.

424. Shotlandiyada uni namoyishkorona ko'tarib yurish taqiqlangan. U diniy provkatsiyaga sabab bo'ladi va jinoiy javobgarlikga sabab bo'ladi. Siz unda ikki kalitni ham ko'rishingiz mumkin. Diqqat savol: Uni ikki so'zli javobni toping.

425. Bir kishi sochini oldirib bo'lib qancha bo'ladi dedi. Usta esa g'aladanda necha so'm bo'lsa shuncha tashlab 2000 so'm oling dedi. Keyingi odamga ham shu qaytarildi va 3- odam ham g'aladanda qancha bo'lsa shuncha pul tashlab 2000 so'm olib chiqib ketdi va galadanda pul tugadi. Dastlab g'aladonda necha so'm bor bo'lgan?

[426. Kun va tun nima bilan tugaydi?](#)

[427. O'zi yo'qdek, tovushi o'qdek.](#)

[428. Daraxtning shoxida qarg'a bor. Qarg'ani cho'chitmasdan shoxni arralash uchun nima qilish kerak?](#)

[429. Bir zolim podsho xalqqa: "Mening bo'yimga loyiq ko'rpa tikib kelinglar" deb buyuribdi. Ertasiga podsho ko'rpalarni birma-bir ustiga yopib ko'ra boshlabdi. Ko'rpa agar uzunroq bo'lsa, uni ataylab bosh tomonga tortib, oyoqlarini cho'zib: "le bu kalta-ku!" deb, agar kaltaroq bo'lsa jo'rtaga oyoqlarini yig'ib olib: "le bu uzun-ku" deb baqiraveribdi. Shunda navbat bir cholga kelibdi. Podsho u keltirgan ko'rpani ustiga yopibdi-da, bosh tomonga tortib oyoqlarini tizzasigacha ochib: "le bu kalta-ku!" deb baqirgan ekan, sabr kosasi to'lib turgan chol qo'lidagi hassasi bilan podshohning oyoqlariga bir tushirib, bir gap aytibdi. U podshoga nima degan?](#)

[430. Qat, qat, qatlama, aqling bo'lsa tashlama](#)

[431. Vena opera teatri kiyim topshiradigan xonada sizga uzoqni yaxshi ko'rsatadigan vosita va bepul xapdori \(tabletk\) taklif etishadi. Savol: xapdori nima vazifani bajaradi?](#)

[432. Bu so'z frantsuzcha «darveshning kulbasi, hilvat joy» degan ma'nolarni anglatadi. Shahardan tashqarida qurilgan villa, atroflari bog'li pavilonlarning nomi hisoblanadi. Bu so'z bilan jahon madaniyati durdonalari bilan bog'liq bir joy ataladi. Bu qanday nom?](#)

[433. Ichakda bor bir xivich.](#)

Bo'yi rosa bir qarich.

[434. Eng xotirasi past bo'lgan kulrang olmaxonlar o'rmondagi daraxtlar ko'payishiga xissa qo'shar ekan. Savol: Ular qanday qilib daraxtlar ko'payishiga yordam beradi?](#)

[435. 7 ta tuyaqush uchib ketayotgan edi. Ovchi ulardan birini o'ldirib, birini yaraladi. Nechta tuyaqush qoldi?](#)

[436. Sun'iy yo'ldosh yer atrofida aylanishni birinchi marta 1 soat 40 daqiqada amalgam oshirdi, ikkinchi aylanishni 100 daqiqada amalgam oshirdi. Nega shunday bo'ldi?](#)

[437. Idishda oq va qora sharlar bor. Undan bitta qora shar olsak, idishdagi oq va qora sharlar soni teng bo'ladi. Bitta oq sharni olsak, qora sharlardan ikki marta kam oq sharlar qoladi. Idishda nechta oq va nechta qora shar bor?](#)

[438. Siz uni bog'lashingiz mumkin, <sup>\\*\\*\\* 36 \\*\\*\\*</sup> lekin yechib bo'lmaydi. Bu?](#)

Yahada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida



439. Mantiqiy jumboq: Chorrahada kamaz, arava qo'shilgan ot va motosiklchi turardi. Svetofor sariq yonganda kamaz harakatga keldi. Ot hurkib ketib motosiklchining qulog'ini tishlab oldi. Bir qarasa baxtsiz voqeadek, ammo bu yerda qoida buzilish bor. Kim qoidani buzgan?

440. Hadisda shunday deyilgan: «Pishay desang u ishni qil. Unda besh foyda bor: ko'ngil yozish, kuch to'plash, ilm va adab o'rganish, dono kishilar bilan ziyoratda, suxbatda bo'lish». Qaysi ish haqida shunday deyilgan?

441. Qiziqarli savol: Xasan va Xusan ismli egizaklar judayam sho'x bolalar edi. Ular ikkalasi omborxonada rosa o'ynashdi. Omborxona qorong'u va chang edi. Ular omborxonadan chiqishganidan so'ng qarashsa Xasanning yuzi top-toza Xusanning yuzi qora bo'lib ketibdi. Ammo shunga qaramay Xasan yuvinishga ketibdi. Savol nega Xasan yuvinishga ketti?

442. Shaxmatda eng kuchsiz dona qaysi?

443. 19-asrda Rossiyada bu kiyim turi: odam jismoniy mashqlarni ko'paytirishga, ozish uchun yordam berishga va ko'p terlashga yordam beradi, deya reklama qilingan. Bu qaysi kiyim turi?

444. Tangasi bor, pul emas,

Qanoti bor, ucholmas.

445. Men hechqachon bo'lmaganman. Meni hechkim hechqachon ko'rmagan. Meni hamisha har yerda kutishadi. Yashab kelayotgan tirik jon borki menga tayanadi. Men kimman?

446. Dehqonlar ekinlarni biroz kechroq ekishganda ustiga qora ko'mir sepib qo'yishar ekan. Savol: nega qora ko'mir sepishlari kerak?

447. O'zi katta, dumi kalta.

448. - 21. U odamzod o'zi uchun tuzib oladigan qora ro'yhatda turadi, uning kattasi emas, ba'zan ko'zga ko'rinmaydiganlari havfliroq. Uning kattasimi, kichigimi har birimizda bor. Mantiqiy o'ylab javobini toping.

449. Odatdagi asalarilar oilasi bir mavsumda 50-60 kilogrammgacha asal va 1-1,5kilogramm uni berishi mumkin. U nima?

450. Matematik masala. Bir mamlakat sultoni xazinasiga o'z hukmdorligi ostidagi 12 viloyat noiblari keltirgan tilla tanga bilan to'ldirilgan qoplarni yig'ibdi. Kutilmaganda bir chopar halloslab kelib qolibdi va sultonga shunday debdi:

- Ey buyuk sulton, noiblaringizdan bir<sup>7</sup>sizni sotdi. U yuborgan qop

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

qalbaki tangalar bilan to'ldirilgan. Ular tashqi ko'rinishidan haqiqiydan farq qilmaydi, faqat ularning og'irligi haqiqiy tilla tanga kabi 10 gramm emas, 9 gramm. Sulton qaysi noib yuborgan qopni bir tortishda aniqlashga ahd qilindi. Siz unga 1 marta tortishda qaysi qop qalbaki tangalar bilan to'ldirilganligini aniqlashda yordam bera olasizmi?

[451. Qadimdan bizgacha yetib kelgan lotin aforizmiga ko'ra - "Siz haqiqatni so'zlasangiz, "X"ning keragi yo'q!" Aforizmda keltirilgan "X" kim?](#)

[452. Biz edik, biz edik,](#)

O'ttiz ikki qiz edik. Bir taxtaga tizildik, Berar, berar uzildik.

[453. U qozoqlarda «kures», gruzinlarda «chidaoba», armanlarda «kox», ozarbayjonlarda «gyulesh» deb ataladi. U o'zbeklarda qanday nomlanadi?](#)

[454. 3 ta archa o'sardi. Har birida 7 tadan shox mavjud. Har bir shoxda 3 tadan olma meva bor. Barcha daraxtning jami mevalari soni nechta bo'ladi?](#)

[455. Antiqa savol: 1-b, 2-l, 3-u, 4-t, 5-b. Siz qolgan beshta harfni yozib bering.](#)

[456. Qaysi oyda odamlar kam gapiradilar?](#)

[457. Nimaning oshqozonida tishlari bor?](#)

[458. Bir vaqtlar Nissa shahrida eng chidamli chekuvchi bo'yicha konkurs o'tkazildi. Ishtirokchilardan biri ketma-ket 60 dona sigareta chekib, rekord o'rnatdi, lekin sovrin olmadi. Nega?](#)

[459. O'zbekiston kubogi Paxtakor 2: 3 Sug'diyona o'yinida 20 daqiqa ichida 4 gol uriladi. Abror Imomxo'jayev bu vaziyatda shunday deb izoh bildiradi. Turli ta'lim muassasalarida bo'lajak o'quvchilarni muassa bilan tanishtirish ham shunday. Diqqat savol: Shunday so'zi o'rnidagi 3 so'zni toping.](#)

[460. Jiddiy savol: U eng arzon va eng qimmat mulk. Undan to'g'ri foydalanilsa dahoga aylanish mumkin. U nima?](#)

[461. Mantiqiy savol: Bahrom 10 daqiqada 3 ta baliq tutdi. Bahrom 10 ta baliq tutish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?](#)

[462. Yerga ko'milmaydi, kosaga quyilmaydi,](#)

Dunyoda hamma odam, ichmay qo'ymaydi.

[463. Yosh bolalar uchun savol: Suv ostida gugrtini qanday yoqish mumkin?](#)

464. Mantiqiy savol: Bir qizcha oyisidan birorta uy hayvoni olib berishni iltimos qildi. Hayvonlar bozorida esa unga bitta quyon yoqib qoldi. Ammo oyisi "qizim quyonlar tez ko'payadi bir oyda bitta quyon beshtaga bolalaydi boqa olmaymiz" dedi. Savol Agar quyonni sotib olishsa bir yildan keyin qizaloqda nechta quyon bolishi mumkin?

465. To'rtida tariqday, o'ttizda ayiqday, to'qsonda tovuqday.

466. Bolalar uchun mantiqiy savol:

18=2 19=1 68=3 17=0 Mantiqan o'ylab ayting, teng qo'yilgan sonlarni aniqlashda nima hisobga olingan?

467. Chang'ichi Frida Karlson musobaqa tugagach beixtiyor kiyimlari yonib ketadi. Shifoxonaga yotqizilgach unda kuyish jarohati sezilmagan. Bu holatdan keyin Norvegiya termasi musobaqani tark etishga qaror qilishgan. Diqqat savol: Fridaga qanday tashxis qo'yilgan?

468. Kulgili savol: Ovchi avtobusda ketayotgan vaqtda yugurib borayotgan quyonni ko'rib o'q uzdi. U qayerga ketdi?

469. The sixth sick sheikh's sixth sheep's sick.

Bu ingliz tilidagi eng murakkab U hisoblanadi. U nima?

470. Kongoda aholi uning 500 tasidan, Indoneziyada 250 tasidan, Sudanda esa 117 tasidan foydalanishadi. U nima?

471. Bu taom nomi turkchada «tovada pishiriladigan ovqat» degan ma'noni bildiradi. Bu gruzin xalqining milliy taomidir. Uni hammamiz sevib iste'mol qilamiz. Bu taom qanday ataladi?

472. Bu xarf deyarli dunyoning barcha alfavitlarida 1 xil yozilishi bilan rekord o'rnatgan. bu qaysi xarf?

473. Qiziq savol: Aynan shu daqiqada chapdan o'ngga nima harakat qilmoqda?

474. Kulgili savol: Qishloqqa kelgan sayyohlarni doim bir narsa ajablantirar ekan. U yerda telbaroq bir o'spirin bo'lib, sayyohlar unga 50 sentlik yaltiroq tanga yoki 5 dollarlik qog'oz kupyuralardan birini olishni taklif qilishsa doim 50 sentlikni tanlar ekan. Holbuki, 50 sent 5 dollardan 10 barobar kam. Qiziq, telba o'spirin nega doim 50 sentlik tangani tanlashi mumkin? Balki, bunga sababi border, juda telba ham emasdir?

475. Men shunchalik oddiymanki faqat ishora qila olaman, lekin butun dunyo bo'ylab odamlarga yo'l boshchilik qila olaman. Men kimman?

476. Diqqat, tungi 12 da yomg'ir yog'sa yana 72 soatdan keyin quyoshli ob-havo bo'lishini kutish muimkinmi?

\*\*\* 39 \*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

477. Uning oyoqlari va suyaklari yo'q. Siz uni iliq havoda bir necha kun saqlasangiz u yurib ketishi mumkin. U nima?

478. Agar siz bu jarayonga qarshilik qilmoqchi bolsangiz, boyin va boshdagi tomirlar yorilib ketib, bu o'limga olib kelishi ham mumkin. Qaysi jarayon?

479. Ibtidoiy davirlarda it bilan bo'rini ko'rish qobilyati birxil bo'lga. Itni odamlar boqisha boshlagandan keyin ko'rish qobilyati pasaygan bunga sabab nima?

480. Shahari bor, odami yo'q.

Daryosi bor, suvi yo'q.

481. Daraxt shohida sakson tuxum.

482. Pak, pakana bo'yi bor, yeti qavat to'ni bor.

483. Astrapiya qushi Yangi Gvineyada yashaydi. Zoologlar takidlashicha astrapiya o'zidagi u tufayli tez orada qirilib ketishi mumkin. U?

484. Tasavvur qiling, dengizda qayiqda suzib yuribsiz. Birdan qayiq teshilib cho'ka boshladi. Dengizga cho'kayotib siz tomon akulalar kelayotganligini ko'rdingiz. O'zingizni qutqarish uchun nima qilishingiz kerak?

485. Aqsh hukumati 2-jahon urushidan keyin Yaponiya o'zining oldingi harbiy qudratiga qaytmasligiga harakat qilgan. Shuning uchundur Yaponiyada unga ruxsat berilishiga General MakArturning roli katta edi. O'zbekistonda uning o'rtacha yillik soni 35 mingta ekanligi, balki achinarlidir. Diqqat savol nima haqida gap ketyapti?

486. Bir reklamada uzoq yo'l yurib, to'xtab turgan shlyapali kavboy tasvirlangan. Bu reklama shlyapa ishlab chiqaruvchi kompaniyaga tegishli bo'lib, unda kavboy "bu ishni" qilayotgani tasvirlangan. Diqqat savol: Bu ish so'zlari bilan almashgan so'zlarni toping.

487. 1955-yilda FQB Jek Gilbert Gremmi Denverdan Vankuverga oilasi bilan uchgan 629-reysni portlatgani uchun hibsga olishmoqchi, bo'lishadi. Biroq samolyotlarni portlatish qonunan federal jinoyat emas edi. Diqqat savol: Keyinchalik FQB unga qanday ayblov qo'ygan?

488. 1970-yillarda Maldiv prezident ma'muriyatida teletayp paydo bo'ladi. Prezident zudlik bilan "bu ish" haqida yangi farmon tayinlaydi, yangi kitoblar chop etiladi. O'zbekistonda bu ish mustaqillik arafasida sodir bo'ldi. Savol muallifi ham qaysidur ma'noda " bu ishni" bajarmoqda. Diqqat savol: Bu ish bilan almashgan uch so'zli javobni toping.

489. JAR da mahbuslar, davlat iqtisodiyotidan kelib chiqib bir ishga jalb qilinadi. Mahbuslarni jazo muddati tugashiga bir necha kun qolganida bir kishilik kamerga joylashtirilib, hech qayerga chiqarilmaydi. Bu ehtimoliy o'g'rilik xavfidan bajariladi. Diqqat savol: Bu mahbuslar aynan qayerda ishlashadi?

490. Bir kishi barga kirib bufetchining oldiga bordi va bir stakan suv so'radi. Suv berish o'rniga bufetchi unga miltiq tirkadi. Suv so'ragan odam bufetchiga rahmat dedi va ketdi. Savol, nega bufetchiga rahmat dedi?

491. U qozoqlarda «kures», gruzinlarda «chidaoba», armanlarda «kox», ozarbayjonlarda «gyulesh» deb ataladi. U o'zbeklarda qanday nomlanadi?

492. U mustahkamlik jihatdan po'lat simga o'xshaydi uni uzish qiyin bo'lib bir kvadtat millimetirni uzish uchun 50 kg kuch kerak bo'ladi, u nima?

493. Tebranadi joni yo'q

494. Kongoda aholi uning 500 tasidan, Indoneziyada 250 tasidan, Sudanda esa 117 tasidan foydalanishadi. U nima?

495. Osh ichida tosh, tosh ichida osh.

496. Mantiqiy: Quduqqa tushgan qush qanday chiqadi?

497. 100 raqamini yozish uchun nechta raqamdan foydalaniladi?

498. Qadimgi Yunonistonda papka ko'targan kishilarni bir nom bilan atashganki biz ularni boshqacha nom bilan ataymiz. Savol: Yunon tilida papka ko'targan kishilar bizda nima deb ataladi?

499. Dilmurod 6 yoshda, uning singlisi Gulnora yarim yoshda edi. Agar Dilmurod bugun 40 yoshda bo'lsa, Gulnora necha yoshda?

500. Dunyodagi eng yebto'ymas mavjudot u ekan. Chunki, u 2 soat ichida 40 ta pashsha va chivinlvrni yeb bitirar ekan. U qaysi mavjudot?

## **501 DAN 600 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR**

501. «Deyli telegraf» gazetasining 1976 yil 29 iyul sonida «Qanday qilib omadsiz bo'lib, hech narsa qilmaganlik uchun pul olinadi?» sarlavxasi ostida material chop etilgan. Bu maqola kimlar haqida edi?

502. Birinchi marta ularni ko'rgan dengizchilar ularni uzoqdan frak va sutdek oppoq mashnika kiyib olgan odamlar to'dasi deb o'ylashgan. O'sha zamonlarda erkaklar tantanli marosimlarda shunday kiyinishar edi. Dengizchilar o'shanda aslida nimani ko'rishgandi?

503. Qaysi yilda odamlar odatdagi yillardan ko'proq ovqat yeyishadi?

504. Uni chap qo'l bilan ushlasa bo'ladi, o'ng qo'l bilan umuman ushlab bo'lmaydi.

505. Ovozasi azonda, mazaligi qozonda.

506. Miloddan avvalgi 133-yilda bu shahar 1 million aholiga ega boldi va birinchi millioner shahar maqomini qolga kiritdi. Qaysi?

507. Agar 7 kishi bir-biri bilan uchrashsa va har biri boshqalari bilan faqat bir marta qo'l berib ko'rsa, qancha qo'l siqishgan bo'lar edi?

508. Qiz uzukni choy to'la piyolaga tashladi, lekin uzuk ho'l bo'lmadi. Bu qanday sodir bo'ldi?

509. Uning balandligi ham, eni va bo'yi ham yo'q, lekin uni o'lchasa bo'ladi. U nima?

510. 25 dan 3 ni necha marta ayirish mumkin?

511. U har doim oyoq kiyimi bilan uyquga ketadi. Uni toping.

512. Bir odam olma donasini 5 so'mdan sotib olib, uni 3 so'mdan sotgan. Oradan bir qancha vaqt o'tib u millionerga aylangan. U buni qanday uddaladi?

513. O'tda yonmas, suvda cho'kmas, yerda chirimas.

514. Zarga sotilmas, Zo'rga topilmas.

515. 19 ni shunday yozingki, 1 ni olib tashlasa 20 qolishi kerak.

516. Xitoyning internetdagi ekspansiyasiga qarshi harakatga Gonkong, Tayvan, Hindiston va boshqa bir qancha mamlakatlar faollari qo'shilgan. Bu guruh nomi "shunday u" bo'lib, a'zolar o'zlarining ichish an'analari va xitoyliklardan o'zlarini farqli ekanligini isbotlashmoqchi. Yuqoridagilarga inglizlar tasirini bilgan holda aytingchi, shunday u so'zlari bilan qaysi ikki so'zni almashtirdik.

517. Podsho bayram munosabati bilan barcha mahbuslarga o'z jinoyatlari uchun belgilangan muddatning teng yarmini avf etishni buyuribdi. Bunga ko'ra 10 yilga qamalganlar 5 yilda, 4 yilga qamalganlar 2 yilda, 20 yilga qamalganlar 10 yilda o'zod etiladigan bo'libdi. Qizig'i,



[qamoqda butun umrga ozodlikdan mahkum etilgan mahbuslar ham bor edi. Fikrlab ko'rib aytingchi, barchaga jazoning teng yarmini kechiladigan bo'lsa umrbod qamalganlarga qanday yo'l tutish mumkin?](#)

[518. 1987-yilgi malumotda Yaponiya 6852 ta oroldan iborat ekanligini yozilgan. 2015-yilga kelib orollar soni 14125 tani tashkil qildi. Diqqat savol: bunday yirik o'sish sababchisini toping.](#)

[519. Juda nozik savol: Faqat 25 tonna yukni ko'taradigan ko'prik bor edi. Undan haydovchisi va barcha jihozlari bilan 25 tonna keladigan yuk mashinasi o'tdi. Yuk mashinasi ko'prikning o'rtasiga kelganda unga 30 gram og'irlikdagi qush qo'ndi, lekin ko'prik qulamadi. Buning sababi nima?](#)

[520. Qirol vazirini ishdan bo'shatishni o'ylab yurar, ammo ayb topolmas edi. Bir kuni u vazirini chaqirib unga ikki qog'oz parchasini ko'rsatib dedi:](#)

Bu qog'ozlarga ket va qol deb yozilgan, bulardan birini tanla, tanloving sening ishda qolish-qolmasligingni hal qiladi. Dono vazir har ikki qog'ozda ham ket deb yozilganligini fahmlab shunday ish qildiki, shoh uni yana ishda qoldirishga majbur bo'ldi. Savol, har ikki qog'ozga ham ket deb yozilgan bo'lsa vazir nima qilib vaziyatni to'g'irlagan?

[521. Ikki o'tim bor, bir-biridan chopag'on](#)

[522. Kelganda to'rt oyoq, ketganda ikki oyoq.](#)

[523. Bir kuni shofyor o'z mashinasining g'ildiraklaridan birini dami chiqib qolganini ko'rdi, lekin parvo qilmay uydan chiqib ketdi va qiyinchiliksiz yurib kechgacha tomon qaytib keldi. U buni qanday uddaladi?](#)

[524. Parad boshida har doim nimani ko'rasiz?](#)

[525. Bola o'rmonda adashib qoldi. O'rmondan chiqib ketish uchun trubada oqayotgan suv yo'nalishini bilishi kerak. Suv oqayotgan tomonda uyi. Bola qanday qilib truba ichidagi suv yo'nalishini bilib olishi mumkin?](#)

[526. Bir qavatli pushti uyda pushti odam, pushti mushuk, pushti baliq yashar edi, pushti kompyuter, pushti stul, pushti stol, pushti telefon, pushti dush - hamma narsa pushti edi! Shunday holda zinapoya qanday rangda bo'lishi mumkin?](#)

[527. Asrimmizga kelib sayyorada turli mintaqalarida mojarolar ortishi, Xitoy va AQSh o'rtasidagi qurollanish poygasi, ikki Koreya o'rtasidagi mojarolar, Rossiya va AQSh o'rtasida keskinlashuvning ortishi haqida gapirar ekan jurnalist "shunday u" endi "shunday u" emas deb aytadi. Diqqat savol: Shunday u bilan almashgan ikki so'zni toping.](#)

528. Yevropaliklar asosan XVIII asrdan boshlab Xitoy hududiga kirib kela boshlagan. Xitoyliklar fikricha, evropaliklar ancha jahldor xalq edi.

Savol: nimaga asoslanib ular bu fikrga kelishgan?

529. Uzunligi 36 metr bo'lgan chitni sotuvchi har qaysi xaridorga 3 metrdan sotdi. Savol: sotuvchi chitni necha marta kesgan?

530. Bir qop un ichida ustun.

531. O'tgan yil yoqqan qorni qanday toppish mumkin?

532. Ertalab boshini yo'qotadi, kechqurun topib oladi. Mantiqan o'ylang, u nima?

533. Sizdan uni so'rashsa rahmat deyishadi, lekin siz sog' bo'ling deyolmaysiz. Sizdan nimani so'rashmoqda?

534. Tirik kelib o'likdan osh so'radi, o'lik turib tirikni bo'g'ib oldi.

535. 1 daqiqada 2 marta, 1 soatda 1 marta, 1 kunda topib bo'lmaydigan narsa nima?

536. Odatda odamning yuragi 1 ta bo'ladi. Mantiqan o'ylab aytingchi, qanday odamda yurak 2 ta bo'ladi?

537. Qushda 4 gr, itda 100 gr, otda 500 gr, filda 4-5 kg, odamda 1,4 kg. Bu nima?

538. Yo'lda ketma-ket qator qilib 10 ta ustun o'rnatilgan. Har bir ustundan keyingisigacha bo'lgan masofa 10 metrdan. Sportchi 1-ustundan 10-ustungacha yetib bordi va yana 1-ustunga qaytib keldi. Sportchi qancha yo'l bosgan?

539. Yilda eng kalta oy qaysi?

540. Gilles Gratton hamkasblaridan o'z kasbini yomon ko'rishi bilan ajralib turardi. Gilles hayotida bo'lib o'tgan gunohlari uchun jazolanayotganini odamlar unga tosh otayotgani bilan izohlaydi. Diqqat savol: Uni kasbini ikki so'zli javobni toping.

541. Antiqa savol: 12 baliqdan 3 tasi cho'kib ketsa nechta baliq qoladi?

542. Bu jonzot juda ham yaxshi suza oladi, chunki u suzish paytida tabiiy havo trubasidan foydalanishi mumkin. Qaysi jonzot?

543. Kulgili savol: 5 ta buqa 10 litr sut beradi. Shunday bo'lsa 10 ta buqa qancha sut beradi?

544. Bir inson samolyotdan parashyutsiz sakrab, qattiq yerga hech bir jarohat olmasdan tushdi. Unga hech kim yordam bermadi. Buni qanday izohlash mumkin?

545. Xitoy imperatorlaridan biri o'z munajjimlarini qatl qiladi, chunki ular ushbu tabiiy hodisani oldindan aytib bera olmaganlar. Qaysi hodisa?

546. Bir matematik masalada 6 912 000 soniya eslab o'tiladi. Uning javobida esa bir roman nomi keltiriladi. Bu romanni toping.

547. Suvorov muxim janglar oldidan jangchilar diqqatini bir erga

to'plash uchun tunda ochiq joyda yotqizgan. Savol: Diqqatni to'plash uchun ularga qanday vazifa bergan?

548. Bu multqahramonning ismi nemis tilida "qorqinchli" degan manoni bildiradi. Qaysi qahramon?

549. Uilyam Cherchilldan iqtibos:

- Munozarada so'zingiz oxirgi bo'lishini xohlaysizmi? Raqibingizga bu so'zni ayting: - \*\*\*. Qaysi ikki so'z?

550. 126 raqamdagi savolga o'xshash savol: 1 teshikdan kirasiz, 3 teshikdan chiqasiz. Siz tashqariga chiqdim deb o'ylamang, aslida ichkaridasiz. Gap nima haqida ketyapti?

551. Hazil savol: Eng ko'p haqorat eshitadigan kishilar kimlar?

552. Oson savol: Qaysi qushning ko'zlari miyasidan kattaroq bo'ladi?

553. Og'zi yo'gu tishi bor, boshimizda ishi bor

554. Ko'chaning u tomonidagi uylarning eng oxirgisiga 34 raqam berilgan. Savol: ko'chaning bu tomonida nechta uy bor?

555. Non uch qismga bo'lindi. Buning uchun necha marta kesilgan?

556. Ko'k otim ko'kka qarab yo'rg'alaydi.

557. Qanday holda 12 sonini teng ikkiga bo'lsak, 7 chiqadi?

558. 1 dan 100 gacha sonlar orasida nechta 9 bor?

559. Qayerda ot ustidan ot sakrab o'tishini ko'rish mumkin?

560. Qaysi holatda 2 ga qarab, 10 deymiz?

561. Qaysi o'simlik yig'ib olinganidan so'ng, uning 90% yoqib yuboriladi, 10% esa tashlab yuboriladi.

562. 1920-yillarda Kanada omborlarida mol go'shti ko'payib ketadi. Taxlilchining so'zlariga bunga sabab birinchidan ikkinchiga o'tish bo'lgan. Diqqat savol: Birinchi va ikkinchini topib bering.

563. Kembridj universiteti matematika o'qituvchisi eng a'lochi talabaga bir ishi uchun yog'och qoshiq berar edi. Aytingchi, qanday ishi uchun shunday qilardi?

564. Salimda 29 so'm bor. U har biri 3 so'mga teng bo'lgan 4 ta rasm daftarini va har biri 2 so'mga teng bo'lgan 4 ta quti qalam sotib oldi. U qolgan pullarini bo'yoqlarga sarf qildi. U bo'yoqlarga qancha pul sarfladi?

565. O'zi yo'qdek.

Ovozi o'qdek.

566. U Toshkent, Buxoro va Samarqandda yashamagan. Jizzax, Guliston, Navoiy va boshqa shaharlarda yashagan. U nima?

567. Otlari har xil, yoshlari bir xil.

568. Mariya Mitchell astronomiyadan dars bergan. U ish jarayonida o'qishdagi bir qoidani o'zgartirgan. Qanday?

569. Qadimgi Rimliklarning fikricha, eng shafqatsiz xo'jayinlar - ular. Savol: ular kimlar?

570. Itning bo'yniga 3 metr keladigan arqon bog'langan edi, lekin it to'g'ri yo'nalish bilan 5 metr yura oldi. U bunga qanday erishdi?

571. Yuliy Sezar g'animlar o'qiy olmasligi uchun mahfiy maktublarini maxsus shrift bilan yozar edi. Mana maxsus shriftda yozilgan so'zga namuna: nblubd. Shriftni tushunganlar bu so'zni maktab deb o'qishgan. Namunaga diqqat bilan qarab aytingchi, mahfiy shriftning qoidasi nima edi?

572. Kunga qarab tolmaydi, kundan ko'zni olmaydi.

573. Negadir insonlar xafa bo'lganda, onasining qornida qaytargan harakatni eslab qolishadi.

Savol:bu qaysi harakat? (Ps: bolalarda kop kuzatamiz )

574. Bu harf deyarli dunyoning barcha alfavitlarida 1 xil yozilishi bilan rekord o'rnatgan. bu qaysi xarf?

575. U yoqqa qarasangiz ko'rinmaydi, bu yoqqa qarasangiz ko'rinmaydi, osmonga qarasangiz ko'rinmaydi, soyangizga qarasangiz ko'rinadi.

576. O'rindiqda er va xotin, akasi va singlisi, qayin va kuyov bor edi. Ularning soni qancha?

577. Qafasda 3 ta quyon bor edi. Uchta qizcha ularga bittadan quyon berishlarini so'rashdi. Ularga so'raganlaridek bittadan quyon berildi. Lekin baribir qafasda bitta quyon qoldi. Buni qanday tushuntirish mumkin?

578. Zoolog Jozef Vagnerning ta'kidlashicha, "X" ham yog'larga, ham vitaminlarga boy, shuning uchun uni to'plagan qadimgi qabilalar ham hayvonlar, ham o'simlik ozuqalariga bo'lgan ehtiyojni qondirganlar. "X" ni toping. Yordam: hasharot u.

579. E'tibor bering, odam qanday qilib 8 kun uxlamasligi mumkin?

580. Mantiqiy: Saroy va kulba yonayapti. Militsiya xodimlari birinchi qaysi birini o'chiradi?

581. Pishmaganda mazali, pishganda mazasiz.

582. Yosh bo'lsa baland, qari bo'lsa kalta. U nima?

583. Akasi uy poylaydi, ukasi o'ynab yuradi.

584. Amerikalik yozuvchi yaxudiy ayol Dara Xorn eslashicha u umrida bir marta bir muassasada bo'lganidagina cho'chqa go'shti sotib olgan ekan. Diqqat savol: Qayerda?

585. Uning «qulog'i chinoq bo'lmasin, oyog'i oqsoq yo kasal bo'lmasin; salimul a'zosi benuqson bo'lsin» degan shartlari bor. Bu shartlar nimaga nisbatan aytilgan?

586. Koreys afsonasiga ko'ra bir ayol eri uyda yo'qligida uni o'g'irlab ketishmoqchi ekanligidan habar topadi. Shundan keyin erining x siga taqlid qilish uchun asalari va cicada qo'ng'izidan foydalanadi. Diqqat savol: Nimaga taqlid qilganini toping.

587. 20 mm dan 100 mm bo'lgan 7 ta bo'yoq cho'tkasi to'plami mavjud bo'lib, uning eng kichiki sichqon, keyingisi mushuk. Diqqat savol: Bu to'plamda eng kattasi nomini toping.

588. Bir hayvon o'rgatuvchi unga kubik-rubik yig'ishni o'rgatgani ajablanarli voqea. Biroq savol muallifi fikriga ko'ra unga birdaniga 4 ta kubik-rubik yig'ishni o'rgatish ham mumkin. Diqqat savol: Uni toping.

589. Qaysi raqamni bir xil qilib bir-biriga qo'shib, chiqqan sonni 4 ga ko'paytirib, hosil bo'lgan sonni 8 ga bo'lsak birinchi o'ylangan son hosil bo'ladi?

590. Bir boyvachcha honim xizmatkoriga men o'lsam boyligimni senga xatlab beraman deb aytadi. Honim xizmatkoriga yana bir gap aytadiki xizmatkor uni uzoq vaqt yashashini xohlaydi. Savol: mantiqiy fikrlab ko'ring, xizmatkor nega honimni uzoq yashashini istagan?

591. Yer yuzida ularning 6000 mingga yaqin turi bor deb aytiladi. Har yili 25-30 turi kamayib bormoqda. Bora-bora yo'q bo'lib ketar ekanda deb o'ylasangiz yanglishasiz. Hayot bor ekan, u butunlay yo'qolib ketmaydi. U nima?

592. Doniyorning tovusi Sanjarning uyida tuxum qo'ysa tuxum kimniki bo'ladi?

593. Qiyin savol:

Qalam – rbmbn Daftar – ebgbs Kitob – ljupd Sumka - ?

594. Rejissyor Y. Lyubimov intervyularidan birida sovet hukumatini tanqid qiladi. Sovet elchixonasi bunga raddiya berar ekan, intervyu jarayonida birinchi sodir bo'lganini, tez orada ikkinchi amalga oshishini aytib o'tadi. Keyinchalik rejissyor sahnalashtirgan spektakl nomini toping.

595. Bir askar Eyfel minorasi oldida qurolini chiqarib o'q uzdi. U qayerga ketdi?

596. Mantiqiy savol: Qush qorovulning boshiga qo'ndi. Qorovul nima qilayotgan edi?

597. Polkovnikning 4 qizi bor. Har bir qizning akasi ham bo'lsa polkovnikning nechta farzandi bor?

598. Geymer uzoq vaqt planshetga bog'lanib qolgach, ko'zi yomon ko'ra boshladi. Shifokorga borganidan keyin esa u laqabini oladi. Bu laqab o'ziga juda yoqdi, chunki yoshligida bolalar bilan o'ynaganida doim u obrazida bo'lardi. Diqqat savol: Uni toping.

599. Sakkizta 8 raqami orasiga faqat qo'shuv amalini bajargan holda 1000 raqamini hosil qiling.

600. Ko'p qavatli kiyim kiygan, usti yashil ichi sariq, bolalari qator-qator, pishganda mazali.

## **601 DAN 700 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR**

601. Ssenariy muallif Piter Viertel Amerikaga Xeminguey uyiga mehmonga boradi. Xeminguey har ~~ku~~ <sup>\*\*48\*\*</sup> ongda Viertelni uyg'otib, uni bir



necha bor bir necha soatga yolg'iz qoldiradi. Diqqat savol: Qayerda yolg'iz qoldirgan?

602. Ko'zi bor, lekin ko'rolmaydigan narsa nima?

603. Garchi u yengil bo'lsa ham nimani 10 daqiqadan ortiq ushlab turib bo'lmaydi?

604. Cho'pon karam, qo'y va bo'rini olib ketayotgan edi. Oldidan daryo chiqib qoldi. Qarasa sohilda qayiq turibdi, faqat unga cho'pon o'zi bilan birga uchta narsadan birini olib o'tirishi mumkin edi. Cho'pon qo'y, karam va bo'rini sohilni narigi betiga olib o'tish uchun nima qilishi kerak? (Cho'pon qarovisiz qolganda bo'ri qo'yni, qo'y esa karamni yeb qo'yishi mumkin)

605. Uning 88 ta kaliti bor, lekin 1 eshikni ham ocholmaydi. U nima?

606. Ota har doim farzandiga nima beradi va uni ona bera olmaydi?

607. Sayyohlar guruhi chet ellar bo'ylab sayohatga chiqishdi. Ulardan 28 kishi ingliz tilini, 13 kishi frantsuz tilini, 10 kishi nemis tilini, 8 kishi ingliz va frantsuz tilini, 5 kishi frantsuz va nemis tilini, 6 kishi ingliz va nemis tilini, ikki kishi uchchala tilni xam biladi, 41 kishi yuqoridagi uchta tildan hech birini bilmaydi. Sayyohlarning umumiy sonini toping.

608. Bir koreys guruhining Genius ( ) qo'shig'i klipida "daho - bu sen" satrlari bor. Klip davomida "for you" so'zlari yangragan lahzada ekran qora tusga kiradi. Diqqat savol: Ijodkorlarning g'oyasiga ko'ra ayni shu lahzada qora ekan nimaning vazifasini bajarishi lozim?

609. Tuxumni balandlikdan tashlab yuborishdi. U pastga tomon 3 metr tushganda ham yorilmadi. Buning sababi nimada?

610. Uch xonali son 4 raqami bilan boshlanadi. Agar bu raqamni soning

3 oxiriga o'tkazsak, berilgan sonning 3/4 qismiga teng bo'lgan son hosil bo'ladi. Berilgan sonni toping.

611. Mantiqiy savol: Qaysi yo'ldan hech kimyurmaydi, mashinalar qatnamaydi?

612. Futbolda "Quruq barg" degan termin bor, qaysi holda ishlatiladi?

613. Galileo Galiley hayotida 1638-yilda zulmatli kunlar boshlanadi. Keyinchalik olim eslashicha bunga sabab yoshligidan juda tez-tez ko'p marta "bu ishni" qilgani bilan izohlaydi. Diqqat savol: Bu ish " so'zlari bilan almashgan, bir xil harfdan boshlanuvchi ikki so'zli javobni toping.

614. L'Ekliss filmida brokerlar doimiy ishga keluvchi hamkasbi birinchi marta ishga kelmaganini bilishgach, "Bu ishni" bajarishadi. Shu "bu ish"

ni qilishguncha brokerlar bir necha milliard yo'qotishgan edi. Diqqat savol: Bu ish so'zlari bilan almashgan so'zlarni toping.

615. Antuan de Sent Ekzyuperi unga shunday ta'rif bergan: «Sening na ta'ming, na ranging, na xiding bor, seni ta'riflash mumkin emas, sendan sening nima ekanligingni bilmagan holda lazzatlnishadi. Seni hayot uchun zarur deb bo'lmaydi - sen hayotning o'zisan. Sen biz o'z tuyg'ularimiz bilan tushuntirib bo'lmaydigan quvonch bilan bizni to'ldirasan. Sen dunyodagi eng katta boylikсан...». U nimaga ta'rif bergan?

Antuan de Sent Ekzyuperi unga shunday ta'rif bergan: «Sening na ta'ming, na ranging, na xiding bor, seni ta'riflash mumkin emas, sendan sening nima ekanligingni bilmagan holda lazzatlnishadi. Seni hayot uchun zarur deb bo'lmaydi - sen hayotning o'zisan. Sen biz o'z tuyg'ularimiz bilan tushuntirib bo'lmaydigan quvonch bilan bizni to'ldirasan. Sen dunyodagi eng katta boylikсан...». U nimaga ta'rif bergan?

616. U sizda bor edi va men bilan baham ko'rdingiz, endi esa u yo'q bo'ldi. Bu nima?

617. Ikkinchi jahon urushidan keyin mag'lub Germaniya aholisi chuqur qayg'uga tushib qoladi. Iqtisod o'ladi. 1954-yilga kelibgina aholida kayfiyat yaxshilanib, aholida kelajakka umid paydo bo'ladi. Diqqat savol: Qaysi voqea bunga sabab bo'lgan?

618. Ro'yxat: xo'roz, bolg'a, makkajo'xori, mevali savat, daraxt, samolyot, telefon va xkz. Keniyadagi unda ro'yxatdagilarni ko'rish mumkin. Uni fransuzcha so'zda toping.

619. Lyudovik XIV esa ularga bugungi ekvivalent bilan hisoblaganda 600 000 dollar sarflagan. Lyudovikda bir komplekt u120 ming dollarlik olmos bilan bezatilgan ham bo'lgan. U?

620. Qayin daraxtining 8 ta shoxi bor, har bir shoxida 8 tadan shoxcha, har bir shoxchada yana 8 tadan shoxcha bor va har bir shoxchada 8 tadan olma bo'lsa, hammasi bo'lib nechta olma bor?

621. Tomdan tuxum irg'itdi.

622. Ikki butun sonni qo'shishda o'quvchi ikkinchi qo'shiluvchining oxiriga ortiqcha nol qo'yib yubordi. Natijada 2411 sonining o'rniga 6641 soni hosil qildi. Ikkinchi qo'shiluvchini toping.

623. Unda dukkakli o'simliklardagidek oqsil moddasi serob.Unda rux elementi ham bisyor.Agar undan taom yoki sharbat tayyorlansa,kaloriyasi sigir go'shtinikidan to'rt barobar yuqori bo'ladi.Xitoyda fermerlar maxsus beton bokslarida ularni boqib,restoran va kafelarga sotadilar.Savol:u nima?

\*\*\* 50 \*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

624. U jonzot sof turkiy tilda "yuqoriga ko'taril" ma'nosini anglatgan. Tristan-da Kunya arxipelagida esa, havo issiqroq bo'lishiga qaramay u jonzotni uchratish juda qiyin. Shavkat Rahmon esa, muhabbatni - chiroyli u jonzotga qiyoslab qo'rqaman uni ushlashga degan. U jonzotni toping

625. U sizniki, lekin undan sizdan ko'ra boshqalar ko'proq foydalanishadi.

626. Uzun - uzun iz qolgan

Zar ko'ylakli kim o'tgan.

627. Oppoq qushim qaqillar,

Qanotlari shaqillar.

628. Bundan 4-5 yil oldingi bir videoreklamada — ota ertalab ishga ketish oldidan uxlab yotgan qizchasini peshonasidan o'padi, qizcha esa "Ishga yaxshi borib-keling oyijon" deydi. Savol - ushbu jarayonda nima reklama qilingan?

629. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun: 2 litr sutni qanday qilib bir litr bankaga joylash mumkin?

630. Jahongir vertalyotga chiqdi. Oldida ot, otning orqasida mashina Jahongir qayerda?

631. Olma daraxtida tuxum bo'lishi mumkinmi?

632. Kichkina, ko'rimsiz narsa nomidan yozilgan monolog:

"Mening holimga qilmangiz havas, Boshim yerga qaraganu, oyog'im oyog'ga. Taqdirim qursin - na kunduz, na tongda Yorug'lik ko'rmasdan o'tib ketaman" Savol: Ushbu monolog nima nomidan aytilgan?

633. Perudagi ayrim uylarning yuqori qismida armaturalar chiqib turadi. Qurilish yakunlanmagandek. Bundan maqsad nima?

634. Qachon qo'lingizni suv bilan kesib olishingiz mumkin?

635. Teg desam tegmaydi, tegma desam tegadi.

636. Yozuvchilar uning muallifi bo'lmaydi, u doimo hammualliflikda yaratiladi, deyishadi. Balki salbiy holatni aks ettirgani uchun ham unga muallif topilmas. Uning paydo bo'lishi uchun eng kamida ikkita odam zarur.

Savol: u nima?

637. Aqlli o'quvchilar uchun savol: Ko'chada ketayotib yashil odamni ko'rsak nima qilamiz?

\*\*\* 51 \*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

638. Xonaning qaysi joyiga qalam qo'yilsa, uning ustidan sakrab o'tib bo'lmaydi?

639. Bir tanga yig'uvchi tanga topib oladi. U tangaga miloddan avvalgi 175-yil deb yozilgan edi. U tangani kollektorga olib boradi. Kollektor arzonga bo'lsa ham bu tangani sotib olmaydi. Nima uchun?

640. Jang qiladi ikki polvon

Boshida qizil alvon.

641. Matematiklar uchun qiziqarli masala: Ushbu vazifaning yaxshi analogi bor:

$1 = 5 \quad 2 = 25 \quad 3 = 125 \quad 4 = 625 \quad 5 = ?$

642. Uning qadru qimmatini kam, ko'ksi va bo'g'zi tor, qochoq bo'lmasa ham bandi, o'g'ri bo'lmasa ham bog'langan, urushda bo'lmasa ham nayza urilgan, jarohatlangan, o'tga tushsa o'zgaradi, dam beradi, dam ham oladi, suhbatdoshdan ardoqliroq, qarindoshdan uzoqroq. U narsa atrofda ham bor.

Savol: u nima?

643. U juda qiyinchilik chog'ida dunyoga keladi. Yoshlik chog'idayoq uydan chiqib ketadi. Tirik qolish uchun qo'shiq aytib kun ko'radi va oz konserti vaqtida joniga qasd qilishadi. Ushbu qahramon va qotilni toping.

644. Pishirsa osh bo'lur, pishirmasa qush bo'lur.

645. 7 ta sham yoqishgandi, 2 tasi o'chib qoldi. Nechta sham qoldi?

646. Yozuvchi O. Henrining fikriga ko'ra u tirnog'l kesiladigan yagona hayvondir. Bu qaysi hayvon?

647. Siz uni eshita olasiz, lekin o'zini ko'rolmaysiz, ushlolmaysiz ham. Savol, u nima?

648. Qaysi xashorotlar xonakilashtirilgan?

649. Bu sonlarning orasiga to'qqizta plyus yoki minus ishorasini shunday quydingki, ifodaning javobi to'g'ri chiqsin:

$0 \ 1 \ 2 \ 3 \ 4 \ 5 \ 6 \ 7 \ 8 \ 9 = 1$

650. Teskari o'girilganda katta bo'ladigan narsa nima?

651. Adabiyot ixlosmandlari uchun mantiqiy savol. Alisher Navoiy shunday falsafiy fikrlar bitganlar:

“Halol va pok yashab komillikka erishmoq uchun yigitlik chog'ida

\*\*\*52\*\*\*  
Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

xarakat qilish zarur. Zero payti kelib o'zing qo'ygan nuqtalarga xomush termulib xotiralarga berilishingga to'g'ri keladi". Savol: o'zing qo'ygan nuqtalar deb nimaga shama qilingan?

652. Osti sariq, usti sariq, shirin totli ichi tariq.

653. Bu aka-ukalarni biz bolalikdan taniymiz. Lekin bu nemislar biz bilgan sohasidan kora koproq nemis tilining izohli lug'atini tuzgani bilar mashhurroq. Aka-ukalarning familiyasi nima?

654. Moskvaga bir ayol uchib ketayotgan edi. 3 kishi uni kutib oldi. 3 kishining qo'lida xalta, har bir xaltada 1 tadan mushuk bor edi. Savol: Moskvaga necha kishi uchdi?

655. O'zbekiston, Urugvay, BAA, AQSH, Ukraina, Uganda. Bu davlatlarni ingliz tilini ishlatgan holda bog'liqligini aniqlang.

656. Bir detektiv filmda personajlar kema-dagi qotillik jumbog'ini yechishadi. Bu ishlari uchun hukumat tarafidan yutuq sifatida Parijdan bu shaharga poyezd chiptasi bilan taqdirlanadi. Diqqat savol: Qaysi shahar ga?

657. U jonli narsa emas, lekin o'sadi. Uning o'pkasi yo'q, lekin unga havo kerak. Uning og'zi yo'q, lekin suv uning dushmani. U nima?

658. Bir kishi olmani 1000 so'mdan sotib olib 500 so'mdan sota boshladi. U tez orada millionerga aylandi. Bu qanday bo'lishi mumkin?

659. Dum – dumaloq jajji oy .

Chaqib yesang, g'ij – g'ij moy.

660. Mahsulotning narhini 50% ga oshirib 50% ga tushirilsa. Bahosi o'zgaradimi?

661. Oson savol: Bir kishining 7 ta qizi bor. Qizlarning har birini bittadan akasi bor. Savol: u kishining nechta farzandi bor?

662. Mutahassislarning fikriga ko'ra, agar ular yer yuzida yo'q bo'lib ketganlarida yuz ming tur o'simlik o'lib ketgan bo'lardi. Bu o'simlik «halaskorlar» ini ayting.

663. Murabbiy Viktor Bondarenko Mozambikga ishlash uchun kelgan davri fuqarolar urushiga to'g'ri keladi. Murabbiy futbolchilari shug'ullantirish uchun plyajga taklif qiladi. Biroq futbolchilar undan qo'rqib, qatidan rad etishadi. Uni nima ekanligini toping.

664. Ular ovchilarga qaraganda ko'proq kiyiklarni o'ldiradi. Kimlar?

[665. Ba'zi baliqlar yirtqichlardan qochib, o'zlarini himoya qilish uchun ular ichida yurishadi. Boshida bir necha suyaklari bor dinozavr turiga ham u nomini berilgan. Diqqat savol: U ni toping.](#)

[666. Ikki bog'lamda 30 ta daftar bor. Agar birinchi bog'lamdan ikkinchisiga 2 ta daftar olib qo'shilsa, birinchi bog'lamda ikkinchi bog'lamdagidan ikki marta ko'p daftar qoladi. Birinchi bog'lamda nechta daftar bo'lgan?](#)

[667. Mantiqiy savol: Dahshatli qotillik sodir bo'ldi. Ikki kishini sud qilishdi. Hakamlar hay'ati bittasini aybdor deb topdi, boshqasi aybsiz ekan. Yakuniy nutqda sudya mahkumga qarab dedi:](#)

"Bu men uchun eng ajoyib sud bo'ldi. Garchi sizning aybingiz aniq bo'lsa ham, qonun bo'yicha men sizni ozod qilaman ". Savol: Sud hay'ati nega bunday qilgan?

[668. Nimani buzish mumkin, lekin hech qachon ushlab turib bo'lmaydi?](#)

[669. Uning vatani Xitoy. Qadimgi Ossuriyaliklar loydan, Qadimgi Misrliklar botqoq o'simligidan, yevropaliklar buzoq terisidan, Qadimgi ruslar esa daraxt پوستloigidan uning ornida foydalanganlar. Savol: U nima va u bizda nimadan olingan?](#)

[670. 1 kg tosh og'irimi, 1 kg paxta?](#)

[671. Bir reklama roligida go'zal bir qiz trubkacha orqali stakandan suvni tortib ichmoqda. Savol: Nima reklama qilinmoqda?](#)

[672. Bir yigit bor ekan. U kambag'al bo'lib uning farzandi yo'q ekan. Bu ham yetmagandek otasining ko'zlari ojiz ekan. Kunlarning birida unga farishta uchrabdi va bittagina tilagingni amalgam oshiraman debdi. Yigit bitta tilak bilan uchchala orzusiga ham yetibdi. Savol: u qanday tilak aytgan?](#)

[673. Erkak kishi o'zining bevasining singlisiga uylanishi mumkinmi?](#)

[674. Shunday ikki sonni topingki, ularning ko'paytmasi 28 bo'lib, kattasini kichkinaga bo'lganda ham 28 chiqsin!](#)

[675. Er va xotin kemada dam olish uchun uzoq orolga borishadi. Dam olish uzoq davom etmay, ikkinchi kuni er uyga qaytadi va militsiyaga, xotinini sohilda katta to'lqinga uchrab a lok bo'lganligi hamda jasadini topishda yordam berishlarini so'rab ariza yozadi.](#)

Ertasi kuni eshiq taqillaydi, ochib qarasa militsiya xodimlari, xotinini o'ldirishda ayblab xibsga olishadi. Militsiya buni qanday aniqlagan?

[676. Qizil va qora avtomobillar birgalikda 190 \\$. Qizili qorasidan 100\\$ qimmatroq. Qora avtomashinaning narxini toping.](#)

Qizil va qora avtomobillar birgalikda 190 \$. Qizili qorasidan 100\$ qimmatroq. Qora avtomashinaning narxini toping.

677. 1502 yilning yozida Florentsiya aholisi ko'chalarda ko'pincha tashqi qiyofasi g'alati bir kishini uchratishardi. Uning oq oralagan uzun sochlari bosh kiyimi tagidan yelkasiga yoyilagan, soqoli yuzini qoplab, ko'ksiga tushgan edi. Quyuq qoshlari ostidan sinchkov ko'zlari termulib turardi. Baland yirik gavdasiga keng kiyim yarashardi. Bu inson kim edi?

678. Kichkina shaharchada oliyjanob taniqli xonim teatrga bordi. Teatr birinchi parda yopilgunga qadar juda zerikarli bo'ldi. U bunga chidayolmay teatrnı tark etdi. Shundan so'ng teatrdı to'polon boshlandi. To'polon bo'lishiga sabab nima deb o'ylaysiz?

679. Bir kishi har kuni nonushtaga 1 ta tuxum iste'mol qilardi. Qizig'ı uning 1 dona ham tuxumi yo'q edi. Tovug'ı bor qo'shnilardan qarzga ham, sovg'aga ham, pulga ham tuxum olmas edi. Shunday bo'lsa, u tuxumni qayerdan olishi mumkin?

680. O'rdaklar qator bo'lib suv ichgani ketishayotgan edi. Ulardan biri oldinga qarab 7 ta boshni ortiga qarab 12 ta panjani ko'rdi. O'rdaklar nechta?

681. Geografiya fanidan savol: Uganda, Ekvador, Kolumbiya, Indoneziya, Somali, Kenya, Braziliya, Kongo. Bu davlatlarnı bir narsa birlashtirib turadi. U nima?

682. Ikki odam 5 partiya shashka o'ynab 5 martadan g'alaba qozondi. Buqanday bo'lishi mumkin?

683. Amerikalik Charlz Braun 10 yil qulog'iga eshitish moslamasini taqib yurdi. Lekin, apparatni quloqdan olsa yaxshiroq eshitayotganligini bilib qoldi. U qattiq g'azablanib apparatni taqishni tavsiya qilgan shifokorga shikoyatlar bilan bordi. Bemorni sinchkovlik bilan tekshirgandan so'ng, shifokor buning sababini aniqladi. Siz buning sababini nima deb o'ylaysiz?

684. Matematik masala: Hayvonot bog'ida 100 juft it bor. Har bir itga ikki juft chaqaloq tug'iladi. Afsuski, itlardan 23 nafarivafot etdi. Shunday qilib, hammasi bo'lib qancha it qoladi?

685. Ko'p kiprikli, oyoqsiz

Shoxli ichak teshiksiz.

686. Kuniga ikki marta ta'tib ko'rasiz-u lekin hech qachon yemaysiz.

687. Shifoxonadan to'rt muchchasi sog' bo'lgan odamni qo'lda ko'tarib olib chiqishdi. U mutlaqo sog'lom bo'lsa, nega ko'tarib olib chiqishmoqda?



[688. Bu soʻzni rus tilida “havodagi ilon” deb aytishadi. Nima u?](#)

[689. Paygʻambarimiz u xaqida shunday deganlar: «U zulmatda quyosh, vaxshatda hamroh, yolgʻizlikda yoʻldosh, begona yurtda sirdosh, ogʻir damda raxbar, dushmanga qarshi quroldir». U nima?](#)

[690. Qiz bola oʻzining ismidagi har bir harf oʻrniga uning alifbodagi tartib raqamini qoʻydi va 1114111 sonini hosil qildi. Qizning ismi nima?](#)

[691. Tili poʻlat shovvoz, soʻzlay olmas beqogʻoz.](#)

[692. Bolalari qarsak chaladi, onalari raqsga tushadi.](#)

[693. Ushbu fin topishmogʻi ancha mazmunli va mantiqli.Yaxshilab tinglab chuqur oʻylaning](#)

Dengiz boʻyidagi bir toʻnka ustiga Oʻtirib u zoʻr xonish qilmoqda Mendan hamma bab-barovar qoʻrqadi Qoʻrqmasa ham yaqinlashsam xavotirga tushadi Mening oʻtkir nigohimdan qariya ham Goʻdaklar ham hatto qochib qutilmas Faqat dengizdagi baliqlargaQoʻlim yetmas tishim oʻtmas Savol: Dengizga qarab xayol surgan shumtakani toping?

[694. Meni soʻraydilar, Koʻrinsam qochadilar.](#)

[695. Bu patdan ham yengil, ammo 10 daqiqa ham ushlab turolmaysiz. Bu nima?](#)

[696. Bir inspektor, jinoyatchining izidan quvib ketayotgan edi. Izlar esa uni tez oqadigan va chuqur bir daryoning oldiga olib keldi.](#)

Izquvar qirgʻqda dam olib turgan yosh yigitlarga koʻzi tushdi va ular bilan baʻzi narsalarni bilish uchun suhbatlashib koʻrdi: - Kechirasiz, biz tahminan siz qatori bir yigitni izlab yuribmiz. Shu atroflarda koʻrmadingizmi biron shubhali shaxsni? Yigitlar bir yigit bir necha daqiqa oldin bir yigitni koʻrganini aytishdi va: - Mana bu yerdau daryoga sakradi. Ana qarang hozir u daryoning narigi qirgʻoqidan chiqib ketyabti. - deyishdi. Yigitlar inspektorga yordam berishni istashardi, va unga oʻz qayiqlarini taklif qilishdi. Lekin inspektor: - Mayli u qochaversin — dedi. — men hozir sizlarni yaxshiroq soʻroq qilmoqchiman. Savol: Nega izquvar bu yigitlarning gapiga ishonmadi va ularning oʻzidan shubha qildi?

[697. Tarix fanidan savol: Qadimgi Sparta davlatida mast qiluvchi ichimliklarni ichish taʻqiqlangan edi. Qonunni buzganlar qattiq jazolangan, ammo baribir ichimlik ichish davom etavergan. Shundan soʻng shafqatsiz buyruq eʻlon qilingan. Savol: bu qanday buyruq edi?](#)

[698. Qanday soat kuniga ikki marta toʻgʻri vaqtni koʻrsatadi?](#)

699. Bola choynak va uning qopqog'i uchun 11 so'm pul to'ladi. Choynakning narxi qopqog'iga qaraganda 10 so'm qimmat. Qopqoqning narxi necha pul?

700. U har doim keladi, lekin hozir kelmaydi.

## **701 DAN 800 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR**

701. Bir narsa bor 35 soatda tayyor bo'ladi buni ko'pchilik seb istemol qiladi u nima?

702. 1 dan 100 gacha sonlar orasida 8 raqami necha marta keladi?

703. Dunyoda zilzila bo'lish xavfini hamma narsadan oldindan sezizsh qobiliyatiga ega bo'lgan jonzod?

Dunyoda zilzila bo'lish xavfini hamma narsadan oldindan sezizsh qobiliyatiga ega bo'lgan jonzod?

704. 1 dan 50 gacha bo'lgan sonlarda nechta 4 raqami bor?

705. 4 kishi kafega kirishdi. Bunda:

1-kishi 3 ta shashlik yeb 30 ming to'ladi 2-kishi 1 ta shashlik va 2 ta somsa yeb 20 ming to'ladi 3-kishi 1 ta somsa va 2 ta pirashka yeb 9 ming to'ladi 4-kishi 1 ta shashlik, 1 ta somsa va 1 ta pirashka yedi. Savol: 4-kishi qancha to'ladi?

706. 2007-yilda ekranlarga chiqqan "Sunshine" filmida odamlar so'nib borayotgan quyoshni qayta tushirishga harakat qilishadi. Filmida rol ijro etgan Killian Myerfi personaji uni ishga tushiradigan asosiy mutaxassis hisoblanadi. Diqqat savol: Uni ikki so'zli javobni toping.

707. Buyuk Xitoy devorini qurishda mustahkam bo'lish uchun tosh, tuproq va o'sha narsani ishlatishgan. Savol: o'sha narsa nima?

708. 5 ta olmani 6 kishiga pichoq yordamisiz teng taqsimlash uchun nima qilish kerak?

709. 1926-1936-yillarda SSSR hukumati uni xristian diniga bog'liq atribut, belgi sifatida ko'rib taqiqlagan. Ashaddiy kommunistlar esa bu ekologiyani o'ylab chiqarilgan qaror deb hisoblaydi. Uni toping.

710. Sinfda 36 ta o'quvchiga joy bor. 37- o'quvchiga ustoz o'zining joyiga o'tirishiga ruxsat berdi. Geografiya darsi edi. O'quvchilarga quyidagicha topshiriq berildi. Barcha o'quvchilar daftarlari varaqlarini yuqori qismiga shimolni belgilab, maktab planini chizib xovlidagi derazadan ko'rinib turgan dub daraxtini joylashtirishni aytdi. Barcha o'quvchilar 2 baho va faqat ustoz o'rnida o'tirgan o'quvchi 5 baho oldi.

Savol; Nima uchun, ustozni stolida to'g'ri javob bo'lganmidi?.

711. Ilhom bozordan 1 kg. lik tarvuz olib keldi. Tarvuz 99% suvdan iborat edi. Ilhom tarvuzni quyoshda unutib qoldirdi va keyin tarvuz 98% suvdan iborat bo'lib qoldi. Savol: quyoshda qolib ketgandan keyin tarvuzning og'irligi necha kg bo'lgan?

712. Tseylonda har bir oilaniki alohida o'z hovlisida joylashgan, bizning yerlarda esa hammaniki umumiy. Savol: nima haqida gap ketmoqda?

713. Qadimgi Sparta ayollari erlari qabriga borganda o'z vafodorliklarini belgisi sifatida bir kichkina idishda hech qayerda sotilmaydigan suyuqlik quyib kelishar ekan. Savol: qanday suyuqlik haqida gap ketmoqda?

714. Hazil savol: Nima uchun inson orqasiga qaraydi?

715. Bir qushim bor, suyagi yo'q/

716. Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiyada yangi yil kuni uni sovg'a qilishsa bilingki, sizga baxt va iliqlik istashayotgan bo'ladi. Yunoniston va Ispaniyada u havf-xatar belgisi bo'lgan. Haqiqatdan ham undan katta xavf bo'lishi mumkin. Savol u nima?

717. 1 ta bakteriya 1 sekundda 2 taga ko'payadi. O'sha 1 ta bakteriyani bir bonka (idish)ga solganimizda 1 soatda liq to'ldi. Qancha vaqtda bakteriya Bonka (idish)ni yarmiga keladi?

718. Fil kabi katta, lekin og'irligi yo'q. Bu nima?

719. Tuxumni 3 metr balandlikdan tashlab sinmasligi uchun nima qilish kerak?

720. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlari bo'yicha, undan o'lish hollari yurak-qon tomir kasalliklari, onkologik kasalliklardan o'lish xollaridan keyin uchinchi o'rinda turadi. U qanday sabab?

721. Bu ovozni eshitgan qoplon irillashdan, sirtlon uvillashdan to'xtaydi, maymunlar ayuhannos solib daraxtlarning eng baland shohlariga chiqib ketadi, kiyiklar, ohular yashin tezligida ko'zdan g'oyib bo'ladi, podada ma'rayotgan qo'y, echkilarning ovozi o'chadi, tuyalar arqonini uzib qochadi, otlar oldinig ikki oyog'ini tik ko'tarib, og'ir hansirab, kishnay boshlaydi va zo'r berib orqasiga tisariladi, itlar dumini qisib egasining pinjiga kiradi. Bu ovozni eshitganda hatto odam ham bezgak tutgandek qaltirab, bekinish uchun joy axtaradi. Bu qanday ovoz?

722. Bir ozig'ga o'n xizmatkor,

Qanday o'lja unga darkor?

723. Eng katta mevali o'simlik nima? \*\*\*58\*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

724. Folklend orollari atrofidagi hududlar noaniq huquqiy maqomga ega bo'lib , bu holat ko'plab baliq ovlash kemalarini o'ziga jalb qiladi. Kemalarning bu kontsentratsiyasi hatto maxsus xaritani chiqarishga tayyorlanayotgan ma'lum bir tashkilotning e'tiborini tortgan. Diqqat savol: Qaysi tashkilot?

725. O'tirganda nimani olish mumkin emas?

726. Matematik masala: Doira shaklidagi stol atrofida 6 ta stul bor. Ali, Vali va G'ulom bu stullarga o'ttirishganda ularning qarshisidagi stullar bo'sh qoldi. Har bir minutdan keyin bolalarda bittasi o'rnidan turib qarshisidagi stulga borib o'tiradi. 15 minutdan keyin bolalar oldingi joylarida o'tirgan bo'lishi mumkin-mi?

727. Kichkina dekcha, ichi to'la mixcha.

728. Dalada bir kishi o'lib yotibdi. Uning yonida sumkasi bor. Bir necha chaqirim atrofida hech kimsa yo'q edi. U bechora qanday qilib o'lgan bo'lishi mumkin?

729. Hazil savol: Er xotiniga:

- iltimos, kostyumimni tozalab qo'y - tozaladim - iltimos, shimimni ham tozalab qo'y - tozaladim - iltimos, tufligimni ham tozalab qo'ygin Savolni hazilligini hisobga olib aytingchi, ayol nima deb javob berdi?

730. To'rtta besh raqami va arifmetik ishoralar yordamida 100 hosil qiling!

731. Uch kishi 30 so'mga tushlik qilishdi. Ular ketishgandan so'ng kafe xo'jayini tushlik narhi 30 so'm emas, 25 so'm ekanligini payqab qoldi va o'sha yerdagi bir yosh bolani qo'lga 5 so'm berib ularning orqasidan jo'natdi. Xurrandalarning har biri o'zlariga 1 so'mdan olishdi va 2 so'mni bolaga qaytarib berishdi. Bundan chiqdiki, har bir kishi tushlik uchun 10 so'mdan emas 9 so'mdan to'lashgan. Ular 3 kishi:  $3 \times 9 = 27$ , yana 2 so'm bolada:  $27 + 2 = 29$ . Savol 1 so'm qayerga g'oyib bo'ldi?

732. Hech qachon tishlarini ovqatlanish uchun ishlatmaydigan narsa nima?

733. B Nadejninning saylovda ishtirok etish uchun to'plangan ovozlarni 15 % foizi soxta ekanligi aytilgan podkastda 1835-yilda yozilgan asar nomi eslab o'tilgan. Diqqat savol: Asar nomini toping.

734. Aslida bu anjom erkaklar uchun o'ylab topilgan ammo keyinchalik ayollar uning butkul egasiga aylangan. Qaysi buyum?

735. 1921-yil Qohirada Yaqin sharq hududini bo'lib olish bo'yicha sammit bo'lib o'tadi. Unda qatnashgan 50 ga yaqin arab delegatsiyasi o'z

[vaqtida Usmoniylar va Britaniyaga qarshilik talonchilik, qaroqchilik, partizan urushlari olib borishgani sabab, Cherchill bu delegatlarni ular bilan qiyoslaydi. Diqqat savol: Ularni bir xil harfdan boshlanuvchi ikki soʻzda toping.](#)

[736. Yozgi uyga ettita opa-singillar kelishdi va ularning har biri oʻz hobbisini boshlashdi.](#)

Birinchi oʻzining birinchi muhabbati haqida sheʼr yozdi. Ikkinchi ertak aytib berdi, Uchinchi musiqa tingladi, Toʻrtinchi krossvordlarni echish, Beshinchi basseyniga choʻmilish, Oltinchi bogʻga suv qoʻygani ketdi. Ettinchi qiz nima qildi?

[737. Shum kampir, shumaloq kampir, ikki beti yumaloq kampir.](#)

[738. Avtobusda 15 yoʻlovchi ketayotgan edi. Birinchi bekatda 3 yoʻlovchi chiqdi, keyingi bekatda 2 yoʻlovchi tushib qolib, 4 yoʻlovchi chiqdi, keyingi bekatda 4 yoʻlovchi tushib 7 yoʻlovchi chiqdi, keyingi bekatda esa 1 yoʻlovchi tushib 6 yoʻlovchi chiqdi. Avtobus necha bekat yurdi?](#)

[739. U Yerning 70 foizini egallagan bolsa-da, odamlar shu paytgacha uning 5 foizini organgan xolos. U nima?](#)

[740. Bu baliqning bolgʻa, tulki, arratumshuq, zebrasimon, yoʻlbarssimon kabi turlari bor. Bu qaysi baliq?](#)

[741. Bir romanda donorlik uchun maxsus tarbiyalanadigan maktab oʻquvchilariga bu ish qatʼiyan taqiqlanadi. Maktab kutubxonasida Sherlock haqida biror asar ham yoʻq. Diqqat savol: Qanday ish?](#)

[742. Buxgalter advokat akasi borligini aytdi, advokat ukasi yoʻqligini aytdi. Kim yolgʻon gapirmoqda?](#)

[743. Daraxtda 7 ta chumchuq bor edi. Ulardan birini mushuk yeb qoʻydi. Daraxtda nechta chumchuq qoldi?](#)

[744. Yaponiyada urush vaqtida oʻz qoʻshinlariga kaptarlar yordamida xabar yetkazilayotganda bir muammo paydo boʻladi. Yaʼni xabarni olib ketayotgan kaptarni dushman merganlari urib tushirar yoki ularga yirtqich qushlar xujum qilar edi va xabar kerakli joyga yetib bormas edi. Shunda uddaburon yaponlar bu muammoning xam yechimini topishdi va xabarlar ilgarigidek, kerakli joyiga xech bir shikastsiz yetib bora boshladi. Ular kaptarlar bilan bogʻliq qanday yangilikni oʻylab topishgan?](#)

[745. Ikki ota va ikki oʻgʻil yoʻlda ketayotib, 3 ta olma topib olishdi. Ularning har biriga bittadan olma tegdi. Bu qanday sodir boʻldi?](#)

[746. Qancha koʻp boʻlsa, shuncha kamroq narsani koʻrasiz.](#)

747. Pashsha , chivin ,ari ilon va shunga o'xshagan mavjudodlar qishda qanday kun ko'rishadi? ?

748. Amir Temur jang payti ularning o'rni beqiyos, 100 ta mohir jangchi ham ularning o'rnini bosa olmaydi deb aytganlar. Savol: Sohibqiron kimga ta'rif berganlar?

749. Men bir son o'yladim. Uning yarmiga choragini qo'shsak , 18 hosil bo'ladi. Savol: Men qanday son o'ylabman?

750. Bu so'z ingliz tilida dexqon uyi degan ma'noni bildiradi. Asosan 16 asr oxiri 17 asr boshlarida Angliyada qurila boshlagan, keyinchalik Skandinaviya, AQSh va b. joylarda tarqalgan. Bu dexqon uyini biz qanday ataymiz?

751. Xomligida iste'mol qilinmaydi, qaynatilganda tashlab yuboriladi.

752. Samyuel Jonson: «Qachonki ikkita angliyalik uchrashib qolsa, ularning birinchi kalomi hamisha mana shu mavzudan boshlanadi» degan. Qaysi mavzudan?

753. Topqirlar uchun: 88888888 yozuvda raqamlar orasiga (+) ishorasini qo'yib, 1000 sonini hosil

qiling.

754. Shifokorlarning ta'kidlashlaricha, ushbu soha vakillari chap quloqlarining yaxshi eshitmasligidan ko'p shikoyat qilishadi. Ushbu soha vakillarini toping.

755. Matematik masala: Biro damning 500 so'm puli bor edi. U 100 ta uy hayvoni olishi kerak. Ot – 50 so'm, sigir – 10 so'm, qo'y – 1 so'm. U hamma pulini ishlatib 100 ta hayvon sotib olish uchun qaysi hayvondan nechtadan olishi kerak?

756. Matematik masala: Qo'lingizda bir xil kattalikdagi, bir xil rangli 9 ta shar bor. Sharlardan 1 tasi boshqalariga qaraganda biroz yengilroq. Ikki pallali tarozidan 2 marta foydalanib yengilroq sharni toping.

757. Professor kech soat sakkizda budelnikni 9 ga qo'yib uyquga yotdi. U necha soat uxlaydi?

758. Merining otasining beshta qizi bor. Ularning ismlari Chacha, Cheche, Chichi, Chocho... Beshinchi qizining ismi nima bo'lishi mumkin?

759. Xonada 12 ta tovuq, 3 ta quyon, 5 ta kuchukcha, 2 ta mushuk, 1 ta xo'roz va 2 ta tovuq bor edi. Xonaga uy egasi iti bilan kirdi. Xo'sh, xonada nechta oyoq bor?

760. To'ni zardan - yaltiroq.

\*\*\* 61 \*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

Mo'ylovi mitti – taroq. Chiroy berar yashil qanoti, Qani top – chi , nimadir oti.

761. Daraxtning 4 ta shoxi bor, har bir shoxida yana 4 tadan shoxchalari bor, bu shoxchalar ham yana 4 tadan mayda shoxchalarga bo'lingan va ularni har birida bittadan olma bor, barcha olmalar sonini hisoblang.

762. Quyvon ikki oyog'ida turganda 5 kg kelsa 4 oyog'ida tursa necha kg keladi?

763. Nuriddin Ismoilovning "O'limga mahkum qilinganlar" asarida Germaniyada ayeroportda mehmonni kutib olish vaqtida, taksilar tala top bo'lib ketishi, bardaklik haqida so'z boradi. Muallif bunday holat har yerda borligini aytib, bir iborani eslab o'tadi. Bu iborada uy jonzoti esga olingan. Diqqat savol: Bu qanday ibora edi?

764. Qirg'izistonning Jalolobod viloyatidagi shahar, Buxoro viloyatidagi tuman, Tojikistondagi katta ko'llardan biri, shuningdek qo'y zoti. Ularning barchasi bir hil ataladi. Qanday ataladi?

765. Boshida bor baq – baqasi,

Tinim bermas vaq – vaqasi.

766. Choyga shaker solib qaysi qo'l bilan aralashtirgan ma'qul?

767. Madj Uotts opasi Agata oila qurganida, oilasi mustahkam bo'lishiga ishonmaydi va tezda ajralib keltishlarini taxmin qiladi. Bu orada u opasiga bu predmetdan bir nechta jo'natib turgan. Bu predmetni ayting?

768. Ko'msa ko'milmaydi.

769. Bolalar uchun savol: Olovda yonmaydi, suvda cho'kmaydi. U nima?

770. U Geyms Kukda kichkina, Arnold Shvartsnegrda katta, Madonna va Kleopatrada umuman yo'q, Rim papasida bor, lekin uni ishlatmaydi. Gap nima haqida ketyapti?

771. Javobim "ha", lekin "yo'q" demoqchiman. Savol nima edi?

772. Afrikadagi Ruki daryosida organik moddalar oqishi sabab shunday, O'sh viloyatidan boshlanuvchi daryo ham shunday. Shunday o'rnidafi sifatni bir so'zni toping.

773. Qiziq savol: Teatr aktyorlari bir narsadan juda qo'rqishadi, hatto tushlariga kirsam o'ngimda teskarisi bo'ladi deb o'zlarini yupatishadi. Chunki u aktyorlik ijrosiga ham salbiy ta'sir o'tkazadi. Savol: teatr aktyorlari nimadan ko'proq qo'rqishadi?



[774. Dengizda kemalar bir-biriga ko'ringanda qo'l silkitib salomlashganday bo'lishar ekan. Ba'zi kemalarda matroslar arqon ko'rsatishar ekan. Savol: arqon ko'rsatish bilan nima demoqchi bo'lishadi?](#)

[775. Ota va o'g'il avto halokatga uchrashdi. Otasi shu joyning o'zidayoq halok bo'ldi, o'g'lini esa kasalxonaga yuborishdi. Operasiya vaqtida xirurg bolani](#)

ko'rib: «Voy xudoyim-ey, bu mening o'g'lim-ku-deb baqirib yubordi. Shunday ham bo'lishi mumkinmi?

[776. Ko'p yeydi, tez, yeydi, mayday chaynaydi, yutolmaydi, o'zgalarni to'ydiradi.](#)

[777. 12 ta odam bir-biri bilan salomlashganda salomlar soni nechta bo'ladi? \(Bitta odamga ikki marta salom berish va o'ziga-o'zi salom berish yo'q\)](#)

[778. 1945-yilga atab chiqarilgan karikaturada Gitler o'lim vaqti ko'rsatilgan bo'lib, unda SSSR, Aqsh va Buyuk Britaniya ramzlari tushirilgan qilich Gitler jonini olmoqda. Diqqat savol: Bu qilichlar qanday qurilmaning qismlari sifatida ko'rsatilgan?](#)

[779. Bu narsa insonga 2 marta beriladi. Uchinchisida sotib olinadi.](#)

[780. O'zi qorong'u, lekin yorug'lik ta'sirida yaralgan. U nima?](#)

[781. Shifokor sizga 3 ta tabletka berib har yarim soatda ichishni buyurdi. Barcha tabletkalarni qancha vaqt ichida ichib tugatasiz?](#)

[782. Rasul Hamzatov sheri:](#)

Shomil qilichiga yozilgan bu bayt Bolaligimdan yod, hech unutilmas: "Maydonga ot solib jangga kirgan payt ..... !" Diqqat savol: Sherni so'nggi qatorini mantiqiy topgan holda, bu so'zlarni qaysi kino personaj yanada mashhurroq qilgan edi?

[783. Siz musobaqada ishtirok etmoqdasiz va ikkinchi o'rinda yugurayotgan kishidan o'zib ketdingiz. Siz hozir nechanchi o'rindasiz?](#)

[784. Soy juda tezlik bilan shovullab oqyapti. Tepasidagi daraxtda xo'roz o'tiribdi. Xo'roz tuxum tug'sa toshga tegib sinadimi yoki oqib ketadimi?](#)

[785. 1943-yil, 27-noyabrda tobora kamayib borayotgan militsiya hodimlari uchun bir qaror chiqarishgan. Ushbu qaror tufayli militsiya hodimlari safi yana to'ldirilgan. Savol: bu qanday qaror edi?](#)

[786. Qirq ko'ylagi bor, bir tugmasi yo'q](#)

[787. X nomli filmni \(1970-1980\) yillar o'rtalarida Robert Enriko tomonidan yaratilgan. Xuddi shu nomli teleserialni Ozarbayjonlar ishlagan. Arab donishmandlaridan biri esa, X ni kabutarga o'xshatib, u qo'llarimdan chiqib ketdimi, qanot qoqa boshlaydi degan. Qisqa so'zli javobni toping.](#)

[788. Qanotlari yo'q ucha oladi, ko'zlari yo'q yig'laydi. Bu nima?](#)

[789. Ko'rganda quvonamiz, lekin baribir ko'zimizni olib qochamiz.](#)

[790. Kulgili savol: Tuyaga qushning tuxumini bostirsa nima bo'ladi?](#)

[791. Ko'pincha yomg'ir yoqqanda nima ko'tariladi?](#)

[792. Har yili millionlab odamlar haj amalini bajarishadi. Makka shahriga bu tadbirni o'tkazish uchun xavfsizlik masalalarida, xizmatkorlar, taksistlar va boshqa yollanma ishchilar jalb etiladi. Turkiya davlatidan bir kasb vakillaridan 30 minglab kishilar chaqiriladi. Savol: bu qaysi kasb vakillari va ular qanday ishni bajarishadi?](#)

[793. Aliyaning tug'ilgan kuni!!!](#)

U o'z do'stlarini kechaga taklif qildi. Aliya 9-sinf. Bayramdan keyin Aliya uyga qaytmadi. Xavotirlanib, ota-onasi do'stlarining uyiga borib, ularni so'roq qilishdi. 1 Gulya: Men ziyofatda oshqozonim og'riyapti va kasalxonaga yotdim! 2 Zulya: Men partiyadan keyin mashinamni olish uchun avtoullov xizmatiga bordim! 3 Dilya: Men kechani erta tark etib, uyga kirdim! Hurmatli olimlar: Uchta egizaklardan qaysi biri yolg'on gapirgan ???

[794. Otasi uyda qolar, bolasi bozor borar.](#)

[795. Uzun-uzun ko'chalar, ichi to'la bachchalar.](#)

[796. Hamid Sodiq bu toponim etimologiyasi haqida " Bu shahar Amudaryo bo'yida joylashib, bir vaqtlar gullab-yashnagan, rivojlangan. Keyinchalik mo'g'ullar bosqini sabab shahar yoqib yuboriladi. Buning natijasida esa hozirgi nomi chiqqan bo'lishi haqida versiya ham bor", deydi. Diqqat savol: Bu toponimni toping.](#)

[797. "Ono" filmida Pennivayz\(masxaraboz qotil\) rolini gavdalantirgan Tim Karri masxarabozlardan juda qo'rqgan. Shuning uchun ham suratga olish jarayonida uni deyarli uchratmaysiz. Diqqat savol: Uni aniq ayting.](#)

[798. Mashhur sehrGAR xonaning o'rtasiga qo'l zo'rg'a sig'adigan shisha qo'yib uning ichiga kira olishini aytdi. U buni qanday uddalashi mumkin?](#)

[799. It 4 oyog'i bilan daraxtga chiqib 3 oyog'i bilan tushdi. Bu bo'lishi mumkinmi?](#)

800. 1945-yil may oyida Königsberg qal'asi atrofidagilar igna bargli qarag'ayning yoqimli iforini his qilishlari sabab bu hodisa edi. Pyotr 1 ga berilgan sovg'ani yo'qolishiga sabab ham bu hodisa. Diqqat savol: Bu qanday hodisa edi?

## **801 DAN 900 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR**

801. Antiqa savol: Yaxudiyalar fikricha, o'g'il bola tug'lsa tinchlik qaror topadi. Qiz bola tug'ilsachi?

802. Qora sigir qarab turar, sariq sigir yalab turar.

803. Ushbu kasallikda insonning miyasi uchta sistemadagi nomutanosiblikni aniqlaydi, ya'ni noto'g'ri signallarni qabul qiladi. Vestibulyar apparati xabar beradiki, sizning tanangiz harakatlanmoqda, ko'zlaringiz esa, aksincha, sizning tanangiz harakatsiz deb. Shu sababdan muskullaringiz sizni harakatga keltirmaydi. Bundan qutulishni eng zo'r yo'li - ufqqa termulib turish. Ushbu kasallikni toping. Yordam: siz u kasallikni yerda his qilmaysiz.

804. Oltin kosada toshib turar

Dala husnini ochib turar.

805. Shvetsiyada o'tkazilgan so'rovnomada mamlakatning eng mashhur oltita bayram va odatlari sanab o'tilgan. Ularga kiradi: Avliyo Lyuchiya kuni, Rodjestvo, Pasxa, Valpurgiyev kechasi, Yozning O'rta kuni bayramlari va... Oltinchisini siz toping.

806. Hozirgi vaqt faylasuflar modada emas:

Aflotun, Kant, Gegel, Bebel va Suqrot. Lek menga yoqar bir faraz: Haqiqat bordir "X" da faqat! "X"ni toping.

807. Boshlang'ich sinf o'quvchisi bu vazifani besh daqiqada, yuqori sinf o'quvchisi o'n besh daqiqada, oliygoh talabasi oltmish daqiqada yechadi, olim esa yecholmaydi. Mana o'sha vazifa: "BIUTBOYeSTO" nimani bildiradi?

808. 1960-70 yillarda Eron chegara postlarida bojxonachidan boshqa yana bir kasb egalari faoliyat yuritishgan. Bu kasb egasiga o'z ishini bajarishga qarshilik qilgan chet elliklar esa mamlakatga kiritilmagan. Diqqat savol: Qaysi kasb egasi?

809. Farg'ona viloyatidagi bir tumanda suv juda ko'p isrof bo'layotgani haqida bir ayol intervyu beradi. Birozdan keyin muammo juda oddiy tarzda yechim topiladi. Ayolni eri ishdan olinadi. Bu haqidagi post izohida 1967-yilda chiqqan filmdagi mashhur fraza (yoki qo'shiq so'zlari) eslab o'tilgan. Buni topenim qatnashgan holda toping.

810. Oyog'li yo'q qochadi.

Qanoti yo'q uchadi.

811. Uchta ayiq qish uyqusigaketdi: birinchisi 24-dekabrda, ikkinchisi 29-dekabrda, uchinchisi 2-yanvarda uxlab qoldi. Ayiqlarning har biri qachon uyg'onadi?

812. Dunyoda o'qitiladigan fanlar ko'p. Har bir fan o'z ma'nosiga ega. Qaysi fan "Donolikni sevaman" ma'nosini bildiradi?

813. Nimani ishlash uchun sozlaymiz, ishlashi bilan o'chiramiz?

814. Deyarli barcha irland familiyalari "Mas- (Mc-)" yoki "O'-" prefiksi bilan boshlanadi. (Masalan, McTominay, O'Shea).

"Mas" irland tilidan "o'g'il" ma'noni beradi. "O'" qanday ma'noni beradi?

815. Mantiqiy: Yomg'irda qo'lida soyaboni bo'lmasa ham, bosh kiyimi bo'lmasa ham kimning sochlari xo'l bo'lmaydi?

816. 20 - asr o'rtalariga kelib teatrlar yil davomida har kuni ishlay boshlashdi. Qaysi ixtiro teatrlar to'xtamay ishlashiga yordam bergan?

817. Timsoxlar suv ostiga chuqurroqa sho'ng'ishi uchun nima qilishgan?

818. Dunyoga mashhur bu mahsulot yaratilishiga ixtirochi jangda ko'ksidan yarador bo'lib, keyinchalik davolanish vaqtida morfinga qaram bo'lib qolishi va qaramlikdan qisman qutilish uchun harakatlari eslab o'tiladi. Savol: Bu mahsulotni toping.

819. Yunon faylasufi Diogen "Agar bo'ysunmas, to'polonchi qulim bo'lsa uni jazolab Kolizeyga olib borib o'tirmasdim." Degan. Savol: faylasuf to'polonchi qul hovurini bosib olish uchun qayerga jo'natishni aytgan bo'lishi mumkin?

820. Yosh matematiklar uchun: Ikki xonali sonning raqamlar yig'indisi eng katta bir xonali songa teng. O'nlari xonasidagi raqam esa, bu yig'indidan 2 ga kam. Shu sonni toping.

821. Suvga tushsa mingta, suvdan chiqsa bitta.

822. Nuriddin doim fudbol boshlanishidan oldin aniq hisobni ayta oladi. Shunaqa ham bo'lishi mumkinmi?

823. Pallali tarozining pallalariga bitta 7 grammlik, bir nechta 6 grammlik va bir nechta 8 grammlik toshlarni joylashtirib, tarozini muvozanat holatga keltirish mumkin-mi?

[824. Mantiqan o'ylang, nimaning qanoti bor suza olmaydi, ko'zlari bor yumilmaydi, oyoqlari bo'lmasa ham uni quvib yeta olmaysiz?](#)

[825. Qanday 3ta sonning yig'indisi ularning ko'paytmasiga teng?](#)

[826. Qip - qizilu, anormas .](#)

Cho'g'ga o'xshar, yonolmas, Mo'ralaydi egatdan, Joy oladi savatdan.

[827. Futbol fanatlari uchun savol. Italiyada shunday futbol maktablari borki, hujumchilar alohida, yarim himoyachilar alohida, himoyachilar alohida o'qitiladi. Himoyachilar maktabida 1 yil faqat shunday narsa o'rgatiladiki, bu narsani qilolmagan himoyachi boshqa mashg'ulotlarga qo'yilmaydi. Savol: nima ularga 1 yil o'rgatiladi?](#)

[828. Qaysi so'z har doim xato bo'lib eshitiladi?](#)

[829. 1945-yilning 9-may kuni BBC yangiliklar ko'rsatuvi inglizlarga Germaniya kapitulyatsiya bo'lganini e'lon qiladi. Va olti yil ichida ilk bor ushbu yangiliklar xulosasi "X" bilan tugatiladi. "X" ni toping.](#)

[830. Psixologlarning fikricha qaysi oy eng shirin oy hisoblanadi?](#)

[831. 3 toshbaqa emaklab borardi.](#)

Birinchi toshbaqa dedi: mening ortimdan 2 toshbaqa boryapti. Ikkinchi toshbaqa dedi: mening oldimda 1 ta va ortimdan 1 ta toshbaqa boryapti. Uchinchi toshbaqa dedi: mening oldimda 2 ta va ortimdan 1 ta toshbaqa boryapti. Toshbaqalarning so'zlari to'g'ri bo'lsa bu qanday sodir bo'lishi mumkin?

[832. Tarixdan savol: Aholini ro'yhatga olish qadimgi misrdan boshlangan. Ular eramizdan avvalgi 3,5 ming yil avval bu ishni amalgam oshirganlar. Savol: aholini ro'yhatga olishdan maqsad nima bo'lgan?](#)

[833. Tepdim, tepdim, terakka chiqdim.](#)

[834. 1968 yilda birinchi feminist yozuvchilardan biri Elizabet Kedi Stenton ularga shunday ta'rif bergan: «Bu shafqatsiz, o'ziga bino qo'ygan, ochofat, urushga va bosqinchilikka moyil yemiruvchi kuchdir. Ham moddiy, ham ma'naviy dunyoda u faqatgina tartibsizlik, dushmanlik, kasallik va o'lim sochadi» degan. U kimlar haqida shunday yozgan?](#)

[835. Kichkina qiz qo'lida bigiz.](#)

[836. Kulgili savol: Kelajakda tort bo'lish uchun yashagan qo'mondon?](#)

[837. Bolalar oson topadigan mantiqiy savol: Ko'chada yashil odamni ko'rganda nima qilish kerak?](#)

[838. 100 so‘m pulingiz bor. 100 ta hayvon olishingiz kerak. Mol – 10 so‘m, qo‘y – 3 so‘m, xo‘roz – 50 tiyin. Qaysi hayvonlardan nechtadan olasiz?](#)

[839. Odamning eng katta organi qaysi?](#)

[840. Men har doim ochman va agar ovqatlanmasa o‘laman, lekin nimaga tegsam, tez orada qizarib ketadi. Men kimman?](#)

[841. Yelkasi bor boshi yo‘q, oyog‘l bor qo‘li yo‘q.](#)

[842. O‘tmas pichoq yer kovlar.](#)

[843. Eng yirik va baquvvat qushlardan biri bo‘lgan bu qush qadim zamonlardan buyon go‘zallik va sevgi, poklik va nafislik ramzi hisoblanadi. Bu qush xalq rivoyatlari va ertaklarida ko‘p kuylangan. Qadimgi rivoyatlardan birida bu ajoyib go‘zal qush o‘z o‘limi oldidan qo‘shiq kuylashi haqida hikoya qilinadi. Bu qaysi qush?](#)

[844. O‘zi bitta, tishi mingta.](#)

[845. Bir yigit va qiz sevishib turmush qurishdi. Ular uzoq vaqt hech qayerda ishlamay baxtli hayot kechirishdi. Ular bir-birlariga tez-tez qimmatbaho sovg‘alar berib turishar edi. Bora-bora ular millionerga aylanishdi. Buning sababini tushuntira olasizmi?](#)

[846. Ishga ketish oldidan Inspektor rafiqasi bilan tortishib qoladi, uydan asabiy holda chiqib ketadi.](#)

Ishdan qaytganida uyida Militsiya rafiqasini so‘roq qilmoqda edi. Inspektor voqea tafsilotini so‘radi, shunda militsiya; Eshik taqillagan, ayolingiz eshikni siz deb ochgan, aslida o‘g‘ri kirgan, o‘g‘ri ayolingizga tashlangan va ayolingiz o‘zini himoya qilish uchun o‘g‘riga pichoq tiqqan deydi. Shunda Inspektor ayolini qo‘lga olish kerakligini aytadi. Inspektor nega bunday qarorga keldi?

[847. Daraxtda 8 ta olma bor. 3 ta qizil va 5 ta yashil. 3 kundan keyin 2 ta yashil olma qizarib ketdi. Daraxtda nechta olma qoldi?](#)

[848. Ona tili bilimdonlari uchun mantiqiy savol: Qaysi olmoshlar bir-biri bilan kelisholmasligi mumkin?](#)

[849. Ispaniya Burbonlar sulolasining bir taniqli bo‘lmagan vakili haqida vikipediya maqolasi deyarli faqat undan iborat. Uni qisqa so‘zda toping.](#)

[850. Matematik mantiqiy savol: Zilola 96 varaqli daftar sotib oldi va uning xamma betlarini 1 dan 192 gacha bo‘lgan sonlar bilan nomerlab chiqdi. Xilola bu daftarning qandaydir ketma\\_ket kelgan 50 betini yirtib oldi va betlarga yozilgan 50 ta sonning yig‘indisini hisobladi. Hilola yig‘indida 2008 hosil qila olmasligini isbotlang](#)

851. Yaponiyaning qadimgi ananalaridan biri "国見-saltanatni ko'rish" bo'lib, odatga ko'ra yangi taxtga chiqqan imperator Ama no Kaguyama tog'iga chiqadi va o'z saltanatini ko'zdan kechiradi. Diqqat savol: O'tgan asr ohirlarida chiqqan qaysi animatsion filmda shu odatga hos jarayon sodir bo'ladi?

852. Snayper. Binodan turib boshqa bino ichidagi mo'ljalidagi Botirni yurib kelayotgan vaqtda ochiq derazadan otib o'ldirdi. Botir derazaga kelguniga qadar snayperchi nishonni kuzatmagan, sababi devor ortida ko'rmagan. Snayperchiga o'ldirishi uchun esa Botirning bino tansoqchilaridan birining bir harakati yordam beradi. Tansoqchi nima qilgan?

853. Soyabonga o'xshar tanasi,

Gar teginsang, chaqar ninasi.

854. Traktorchining Farhod ismli akasi bor edi, lekin Farhodning ukasi yo'q edi. Buning sababi qanday?

855. Mantiqiy boshqotirma: Er-xotin bor edi. Erning alohida xonasi bo'lib xotiniga bu xonaga kirishni taqiqlagan edi. Bir kuni er maxsus xona kalitini o'z eshigida unutib qoldirib ishga ketdi. Xotin erim bilmaydi baribir deb xonaga kirdi. Chiroqni yoqib xonani aylandi. Xona o'rtasidagi kitobni o'qidi. Shu vaqt uy eshigi taqilladi. Xotin tez xonadan chiqib yana qulflab qo'ydi. Eri uyga kelib xotining maxsus xonaga kirganligini bilib qoldi.

856. Shifokor bemorga 30 daqiqa oraliq bilan 3 ta ukol olishni belgiladi. Hamshira ukol qilishni soat 8:30 da boshlasa, bemor soat nechida ukollarni to'liq olib bo'ladi?

857. Otda ketayotgan Kenja botirga dashtda bo'rilar galasi hujum qildi. Kenja botir

ikkita bo'ri yonidan o'tayotganda, bu bo'rilar unga tashlandilar. Kenja botir bo'rilarga chap berdi, bo'rilar esa bir-biri bilan to'qnashib, yarador bo'lishdi. Shu chap berish usulini qo'llab, Kenja botir barcha bo'rilarni yarador qildi. Galada 23 ta bo'ri bo'lgan bo'lishi mumkinmi?

858. Zukkolar uchun savol: Xona tashqarisida turibsiz. Ichkarida 3 ta lampochka bor, ularning yoqqichi tashqarida. Xonaga 1 marta kirganda tashqaridagi uchta yoqqichning qay biri xona ichidagi lampochkaning qay biriga tegishli ekanligini qanday aniqlash mumkin?

859. Komikslarni birida u yerda joylashmagan semiz kit sifatida tasvirlanadi. U?



[860. Shimoldan janubga qarab elektropoyezd ketmoqda, shamol janubdan shimolga qarab esmoqda. Savol tutun qaysi tarafga qarab ketadi?](#)

[861. Yugurish musobaqasida oxirgi o'rinda borayotgan qatnashchidan o'zib ketdingiz. Siz nechanchi o'rindasiz?](#)

[862. Geografiyadan savol: Bu poytaxt ikki shaharning birlashishidan tashkil topgan. Uning nomi ham ikki shahar nomining qo'shilishidan paydo bo'lgan. Bu qaysi shahar?](#)

[863. Italiyan topishmog'i:](#)

Mening hayotim bir necha soat davom etishi mumkin, men nimadir ishlab chiqaraman, lekin u meni yutib yuboradi. Men kim yoki nimaman?

[864. Qo'qon xonligi davrida mashhur Qo'qon bozoriga vodiy bo'ylab turli tomonlardan kishilar to'planar edi. Qizig'i bir xil mahsulotni bir xil miqdorda olib kelgan bo'lsa ham sharq tomondan kelgan sotuvchiga 100 tanga, g'arb tomonidan kelgan sotuvchiga esa 50 tanga soliq solingan. Savol: nega g'arb tomondan kelgan sotuvchilarga ikki barobar kam soliq solingan?](#)

[865. Osti tosh, usti tosh, o'rtasida jondor bosh.](#)

[866. Suv tubida bor ekan tomchi,](#)

Qanday tirik jon ekan - topchi.

[867. Ushbu jumboqni bolalar osonlik bilan topishadi. Kattalar esa ko'p o'ylanib qolishadi. Jumboqni toppish uchun bolalardek fikrlash kerak. Mana o'sha jumboq:](#)

6589 = 4; 5893 = 3; 1236 = 1; 1234 = 0; 0000 = 4; 5794 = 1; 1111 = 0; 4444 = 0; 7268 = 3; 1679 = 2; 3697 = 2 2793 = 1; 4895 = 3

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytingchi, 5894 = necha bo'lishi kerak?

[868. Yaqinda ekranlarga chiqqan bir film uchun kompyuter grafikasidan kamroq foydalanish qaror qilindi. Bu esa bozorda "shunday u" ning qimmatlab ketishga sababchi bo'ldi. Diqqat savol: "Shunday u" ni rang qatnashtirgan xolda ikki so'zli javobni toping.](#)

[869. Oson savol: 32 jangchining 1 qo'mondoni bor. U nima?](#)

[870. Shunday bir narsa borki u dastlab qo'shiq kuylab, so'ngra ko'zyosh to'kadi. Bu nima?](#)

[871. Soqoli bor, mo'ylovi yo'q.](#)

[872. 19-asr ikkinchi yarmida Yaponiya hukumati umummiy islohotlar o'tkazadi. Sababi hukumat davlat ishchilariga maosh berishga mablag' yetishmagan. Islohotlar natijasida ufa<sup>\\*\\*\\*70\\*\\*\\*</sup> soni bittaga qisqardi. 1956-yilgi](#)

sovet multfilm nomida ham u bor. Diqqat savol: Uni qisqa so'zli javobni toping.

873. Hamma narsani ko'rayotganingizda uni ko'ra olmaysiz, hech narsani ko'rmaganingizda esa uni ko'ra olasiz. U nima?

874. 1980-yilning boshida Timberland kompaniyasi qiyin davrlarni boshdan kechirgan. U yuqori sifatli tuflilar ishlab chiqarardi, biroq uning narxlari Topsyders kompaniyasidanikidan past edi. Yaxshi mahsulot va past narx aslida ularning foydasiga ishlashi kerak edi, lekin ishlar yomonlashib borardi. Keyinchalik Timberland kompaniyasi juda oddiy qaror qabul qiladi. Savol: ular qanday qarorga kelishadi ?

875. Bir asar personaji kelajakdagi kasbini tanlash masalasida tibbiyot insonni, u esa insoniyatni davolaydi, deb hisoblagan edi. U qaysi kasbni nazarda tutgan edi?

876. Kelar, ketar izi yo'q, qaragani ko'zi yo'q.

877. Is biladi, it emas.

O'zi kichik, bit emas. Odamni xo'p talaydi, Qon ichib, hech to'ymaydi.

878. Dastlab 16-17 asrlar Frantsiyadagi katta hashamatli uylar shunday atalgan. Keyinchalik shularga taqlidan qurila boshlagan shahardagi bir turkum binolar o'sha nom bilan atalgan. Ular qanday atalgan?

879. U haqida Ismoil Jurjoniy «U hamma uchun foydali, charchoqni chiqazadi, ovqat hazm qilishni yaxshilaydi» degan. Ruslarning 1770 yilda chop etilgan kitobida uni «ikkinchi ona» deb tasvirlaydilar. U nima?

880. Sog'lom turmush tarzini va chekishning zararli ekanligini targib qilgan "Papay" multfilmidan keyin AQShda uning iste'moli keskin oshib ketgan. U nima?

881. Bir necha yillar avval italiyalik qari kampir 40 yosh atrofidagi ikki o'g'lini sudga beradi. Diqqat savol: Bunga sababni toping.

882. Yerdan osonlikcha ko'tarish mumkin, lekin uni uzoqqa otib bo'lmaydi. Bu nima?

883. Nomini aytishingiz bilan u yo'qoladi. U nima?

884. XX asrdagi yillar ichida bir yil borki uni teskari qilib qo'ysangiz ham shakli va qiymati o'zgarmaydi. Bu qaysi yil?

885. Uelsda 18 asrda bu ishni amalga oshishi uchun supurgini ustidan bir ikki marta sakrash kifoya bolgan, sobiq ittifoq davrida maxalliy gazetalarda u haqida albatta e'lon berilgan, yava orolida u ishni amalga

oshiradigan kishi 5 ta daraxt ekib berishi lozim bolgan, filippinda uni taqiqlash haqida xam qonun qabul qilingan.

Diqqat savol:shuncha harakatlar nimani amalga oshirish uchun aytiyapti?

886. Tizza bo'g'implari 4 ta bo'lgan yagona sutemizuvchi hayvon qaysi?

887. Ular bamisoli «tirik konservalar». Ularni kemalarga to'ldirib olib ketilaverganligining boisi ham shundadir. U nima?

888. L.N.Tolstoy maishiy turmushga bag'ishlangan barcha asarlar, roman bo'ladimi, film bo'ladimi, qissa afsona bo'ladimi voqealar rivojlanib borib u bilan tugaydi, hayotda esa aksincha hamma voqealar undan keyin boshlanadi degan. Mantiqiy o'ylab aytingchi, L.N.Tolstoy nimani nazarda tutgan?

889. Aforizmga ko'ra u uzoq vaqt davom etadigan va zerikarli tushlik. Qizig'i unda birinchi desert beriladi. Diqqat savol: Desertni ikki so'zda toping.

890. Bolalarga mos savol: G'orda qaroqchilar qarorgohi bor edi. U yerga kirish uchun mahfiy parolni aytish kerak edi. 1 qaroqchi kelganda qo'riqchi unga 1 dedi, qaroqchi 3 deb aytdi va ichkariga o'tib ketdi. Boshqa bir qaroqchi kelganda qo'riqchi unga 2 dedi va u 4 deb javob berdi, u ham to'g'ri aytgani uchun o'tkazib yuborildi. Boshqa bir qo'riqchiga 7 raqami berildi u esa 5 deb javob aytdi. Uning javobi ham to'g'ri edi. O'ylab ko'rib aytingchi, 1-3, 2-4, 5-3 raqamlari qanday mantiq asosida tuzilgan?

891. Sarvar o'yinchoq askarlarni o'ynayapti. Dastlab o'yinchoqlarni juft-juft qilib joylashtirishga urindi, ammo bitta ortib qoldi. So'ngra Sarvar o'yinchoqlarni 3 tadan joylashtirmoqchi bo'ldi. Unda ham bitta o'yinchoq ortib qoladi. Agar u 4 tadan, 5 tadan, 6 tadan joylashtirmoqchi bo'lsa ham bitta ortib qoladi. Oxiri 7 tadan safga joylashtirishga erishdi. Agar Sarvardagi o'yinchoqlar soni 1000 tadan kam bo'lsa, unda nechta o'yinchoq bo'lishi mumkin?

892. Latifa savol: Kunlarning birida bir chiroyli qiz oltin baliqcha tutib olibdi. Oltin baliqcha "Tila, tilagingni", - debdi. Qiz xursand bo'lib, shunday bo'lsinki, barcha yigitlar ortimdan yugurib yurishsin. Oltin baliqcha qizning tilagini bajarib uni bir narsaga aylantirib qo'yibdi. Endi yigitlar doim uning ortidan yugurib yurishadigan bo'libdi. Qiz nimaga aylantirib qo'yildi?

893. Kamalakning oxirida nima bor?

894. Matematikani yaxshi ko'radiganlar uchun: Raqamlari o'rnini almashtirganda 4,5 marta ortadigan ikki xonali sonni toping.

\*\*\* 72 \*\*\*

895. Bir necha soniya va kunlarda uni toppish mumkin, ammo, yillar va asrlarda topib bo'lmaydi. Bu nima?

896. Finlandiya hukumati tepasiga Urxo Kekkonen kelgach, SSSR bilan aloqalar ancha yaxshilinadi. Bu munosabatlar 25-yilligi bayramona keng miqyosda nishonlanadi. Diqqat savol: Bu bayram arafasida qaysi film premyera qilinadi?

897. Qanoti bor uchmaydi, quruqlikda yurmaydi.

898. Kichkina, kulranggina, filga o'xshaydi.

899. Hindistonda har oyda ularga ma'lum miqdorda pul to'lab boriladi. Bundan tashqari, ular bepul tibbiy xizmatdan foydalanishlari mumkin. Ular qarigan paytida xam davlat qaramog'ida bo'lishadi. Ular buning uchun davlat bilan shartnoma tuzishadi. Agar ular shartnomani buzishsa, ularni qamoq va jarima jazosi kutadi. Ular kimlar?

900. Hazil savol: savatda 5 olma bor. 5 kishiga olmalarni taqsimlab 1 ta olmani savatda qoldirish uchun nima qilish kerak?

## **901 DAN 1000 GACHA BO'LGAN SAVOLLAR**

901. Hazil savol: 50 litrli bochkada 50 litr suv bor. Bochkada 25 litr suv qolishi uchun bochkaga nima qo'shish kerak?

902. Qanday idishda ovqat yeb bo'lmaydi?

903. Dengiz tubida qanday tosh bo'lmaydi?

904. Harbiy bilim egalari uchun savol: Bu harbiy unvon Frantsiyada 15 asrda paydo bo'lgan, o'sha paytlarda boshlig'i vazifasini vaqtinchalik bajarib turgan ofitserni shunday deb atashgan. U qanday atalgan?

905. Birdan yuzgacha bo'lgan sonlar orasida ko'pi bilan nechta sonning raqamlari yig'indisi bir xil?

906. Shoh vaziriga menga nok olma anor keltir - deb buyurdi. Zukko vazir bitta meva keltirdi. Bu qaysi meva edi?

907. Mantiqan o'ylab ayting, kartoshka dastlab qayerda paydo bo'lgan?

908. Nok osilib turibdi, lekin uni yeb bo'lmaydi. Lampochka emas.

909. Osiyoda juda taraqqiy etgan bu davlatning qadimiy poytaxti shohlar shahri edi. Bu poytaxtning hozirgi nomi shaharlar shohiga o'zgargan. Qaysi davlat va shaharlar so'ralmoqda?

910. Bitta birga bitta uch

Yopishibdi qolibdi, Har ikkisi sarflab kuch, Bitta bosh harf bo'libdi?

911. Xitoyda suniy intellektni o'rgatish uchun "Bo'rilar qo'yarga qarshi" o'yini ishlab chiqilgan. O'yinda bo'rilar xarsangtoshlardan qochib, qo'ylarni tutishi kerak. Agarda bo'rilar ko'p vaqt sarflab yuborishsa, ular jarimaga tortiladi. Ammo bo'rilar jazodan qochish yo'lini topishgan. Diqqat savol: Bo'rilar qanday qilib jazodan qutilib qolishadi?

912. 17-asrda chex protestantlarini jazolash uchun qirol Ferdinand II fuqarolarga chex tilida gapirishni taqiqlaydi va nemis tilini joriy qiladi. Biroq chexlar ular yordamida chex tilini eshitishlari mumkin bo'lgan va o'z tillarini saqlab qolishgan desak bo'ladi. Diqqat savol: Ularni toping.

913. Fotima Zuhra urushadi, merosini bo'lishadi.

914. Qaysi oddiy odam oldida podshohlar ham boshlarini egishgan?

915. O'tgan asr o'rtalarida AQShning bir qancha shtatlarida alkogol maxsulotlariga taqiqlar bor edi. Shuning uchun ham bu kasb egalari yonida doim xarita va soat bo'lgan. Diqqat savol: Bu kasb egalarini toping.

916. Bu jonzotning tezligiga hatto kosmik kemalar ham havas qiladi. U millisekundda 8 santimetr masofani bosib o'ta oladi. Qaysi jonzot?

917. Bir kishi tashqarida qor yog'ishiga qaramasdan, boshiga hech narsa kiymay, soyabonni olmay ko'chaga chiqib aylanib keldi. Buni qarngki, uning sochlari nam bo'lmadi. Nega?

918. Kalta bobom ichkarida, quloqlari tashqarida.

919. Bir o'simlik bor u erdan o'sib chiqib tomiridan o'zi vos kechadi keyin yana yashayveradi. Savol bu qaysi o'simlik

920. Qiziqarli fakt: u AQSHliklarda O. K. Y. tarzida berilsa yaponlarda Y. O. K. shaklida, bizda K. O. Y. ketma-ketlikda beriladi. Agar anglagan bo'lsangiz nimaning ketma-ketligi keltirilmoqda?

921. Kulgili savol: qanday qilib xom tuxumni beton polga tashlab yorib yubormaslik mumkin?

922. Bozorda ko'rmaysiz, ko'rsangiz ham olmaysiz, olsangiz ham kiymaysiz, kiysangiz ham ko'rmaysiz. U - ?

923. Devorni qurish uchun 8 kishi 10 soat sarfladi. 4 kishi qancha sarflagan bo'lar edi?

924. Alisher Navoiy ijodida “Munshaot” nomli asar bor. Bu asar yozilishi uchun ular manba bo‘lib xizmat qilgan. Ular nimalar?

925. Maktabdan Oybekning uyigacha 30 daqiqalik yo‘l bor. Agar Oybek 3 do‘sti bilan uyiga boradigan bo‘lsa qancha vaqtda yetib boradi?

926. Boshi oq qoshi qora

927. Yiqilsa sakraydi, ursangiz yig‘lamaydi

928. Cho‘ponlar bozordan echki xarid qilayotganda uning qulog‘iga nazar solishar ekan. Aynan katta va uzun quloqli echkini tanlashar ekan. Savol: nega katta quloqli echki sotib olishadi?

929. Rossiyada joylashgan «Kasperskiy laboratoriyasi» tahliliy markazi u yerda tarqalgan viruslar haqidagi ma‘lumotni e‘lon qildi. O‘tgan yili 9 ta virus epidemiyalari va 26 ta lokal virus tarqalgan. Bu viruslar qaerda tarqalgan?

930. Ummon davlatida ayollarga mashina minish huquqi bir shar bilan ruxsat berilgan. Bu qanday shart?

931. Bo‘yi bir qarich, soqoli ikki qarich.

932. Spenser fikricha bu hissiyotga to‘lgan nutq oxangi, Darwin fikricha qushlarning sayrashi va hayvonlarning o‘z juftlarini chaqirishi, Byuxer fikricha ibtidoiy odamlarning mehnat usullari, Shtumpf fikricha ibtidoiy odamlarning chaqiriq tovushlari, Kombare fikricha esa jodu sehrlash marosimlari uning ilk manbalari xisoblanadi. 65-savol ham shu haqida edi. U nima?

933. Avstraliya aboriginlari mifologiyasiga ko‘ra osmonda yoysimon ilon kezib yuradi. Bu mif davomida ilonning tili X ga, ovozi esa y ni ifodalaydi. Diqqat savol: X va y ni toping.

934. Savolim kulcha haqida. Kulchalarni tarqatganda har birimizga 1.5 tadan to‘g‘ri kelyapti. Lekin Oramizdan 1 kishi kulcha yemasa, har birimizga 2 tadan to‘g‘ri keladi. Biz necha kishimiz?

935. Meksikaning Kankun shahrida qiziqarli haykaltaroshlik muzeyi mavjud. Biroq, hamma ham unga tashrif buyurishi mumkin emas - surunkali migren, yurak-qon tomir va nafas olish tizimi kasalliklari bilan og‘rigan ko‘plab odamlar muzeyga kirishlari taqiqlangan. Savol: Bu muzeyni qanday o‘ziga xos xususiyati bor?

936. Nima oq bo‘lganda toza xisoblanadi, yashil bo‘lganda tozalash kerak?

937. Xo‘roz o‘zini qush deb atashi mumkinmi?

938. Men soʻzman, meni toʻgʻri talaffuz qilsangiz notoʻgʻri boʻladi. Notoʻgʻri talaffuz qilsangiz toʻgʻri boʻladi. Meni toping.

939. Men suvman va suv yuzida suzib yuribman. Men kimman?

940. Ikki ogʻayni bir-birini koʻrmaydi.

941. Otasi bor, onasi bor, oʻn ikkita bolasi bor.

942. Jiddiy savol: Qiz dori ichishdan avval bir necha marta sakradi. Nega shunday qilganini izohlang.

943. X - odamlarda Logan personajini gavdalantirgan Xyu Jekman bu personaj haqida sir saqlashi buyuriladi.

Biroq aktyor Kanadaga ish safari bilan borganida bu kasb egasiga bu sirni aytishga majbur boʻladi. Diqqat savol: Qaysi kasb egasiga?

944. Estoniyada toʻy kuni kelin shishasimon xumchaga qogʻozga bir narsa yozib tashlaydi. Uni kuyovning oʻzi, uning barcha qarindoshlari toshchalar bilan toʻldirib suvga uloqtirishadi. Savol: kelin qogʻozga nima yozadi.

945. Mark Meysonning bir asarida mitti ilon bilan tomosha koʻrsatuvchi fokuschi personaji bor. Fokuschi gavjum koʻchada oʻtar ekan, uni baland ovozda baqirgani yoziladi. Diqqat savol: Uni kasbini toping.

946. Nima uchun odamlar yangi uylar qurishadi?

947. Tuxumdan qanday qush tugʻiladi, lekin tuxum bermaydi?

948. Siz mashinaga oʻtirdingiz va uni haydamoqchisiz, lekin oyoqlaringiz pedallarga yetmayapti. Bu holda nima qilish kerak?

949. Oʻzbekistonda shunday bir daraxt bor erta bahorda gʻarq gullaydi ammo meva bermaydi. Shuning uchun ham fargʻonaliklar uni vadaboz deb ham atashadi.

Savol: Bu taʼrif qaysi daraxtga berilgan?

950. 1,2,3,4,5 raqamlar orasiga arifmetik amallar ishoralarini shunday qoʻyingki natijada 100 hosil boʻlsin!

951. Qanday soat sutkada ikki marta aniq vaqtni koʻrsatadi?

952. XIII asrda bu narsaga ehtiyoj sezila boshlagan. XII-XIII asrlarda universitetlarning koʻpayganligini bunga sabab sifatida keltirish mumkin. Oʻsha vaqtgacha uni hech kim bilmagan. Savol: u nima?



953. Devorning uzunligi 20 metr va balandligi 3 metr bo'lib, og'irligi 3 tonna. Uni qo'shimcha qurilmalarsiz qanday ag'darish mumkin?

954. Bu davlatning nomi arabcha so'zdan olingan bo'lib «suv o'rtasidagi quruqlik, orol» degan ma'nolarni bildiradi. Bu davlatning nomi nima?

955. Joni bor qoni yo'q, yer ostida soni yo'q.

956. Ikkita harfli ucta hayvon bor ular qaysilar?

957. Ular qanchalik ko'payib ketsa, vazni shunchalik kamayib boraveradi.

958. Yesam tishimga kiradi, yemasam tushimga kiradi.

959. U atigi 2 soatda qariydi. U o'z o'limi bilan boshqalarga foyda keltiradi. Uni o'limdan shamol va suv qutqarib qolishi mumkin.

960. Darsning boshida doim nima bo'ladi?

961. Mantiqan o'ylab javob bering, Azizaning nikoh uzugi qahvali finjonga tushib ketdi, lekin ho'l bol'lmadi. Qanday qilib?

962. Aylananing necha tomoni bor?

963. 2023-yil dekabr oyida Myunxen aeroportida bir guruh odamlar muzlab qolishadi. Eng qizig'i shundaki ular Dubayda bo'lib o'tishi kerak bo'lgan sammitga yo'l olishgan edi. Diqqat savol: Bu sammitda qanday muammoni muhokama qilinishi kerak edi?

964. Bir qirol ritsarni qamoqqa olib, unga ko'z-quloq bo'lib turish uchun bitta faqat rost gapiradigan va bitta faqat yolg'on gapiradigan ikki soqchi tayinlabti. Ritsar o'tirgan xonada ikki eshik bo'lib, ulardan biri qullikka, yana biri ozodlikka olib borar ekan. Qirol ritsarga xohlagan eshigini tanlashini, agar erkinlik bo'lsa ozod qilishini aytibti. Faqat bir shart bilan: ritsar qorovullardan eshiklar haqida so'rashi mumkinligi, lekin faqat bitta savol berish huquqiga ega ekanligini aytibti. Ritsar esa ularni qaysi biri yolg'on, qay biri haqiqatni gapirishini bilmasdi. Diqqat: ritsar qorovullarga qanday savol bergan?

965. Millatlar hamdo'stlik o'yinlarida, hususan regbi o'yinlarida ko'pincha "The Corries" qo'shig'ini eshitish mumkin. Chunki regbidagi bir kuchli davlatda u yo'q. Diqqat savol: Davlat ni va uni toping.

966. Sankt-Peterburgda yangi texnika magazine ochildi. Uning nomi Titanik edi. Tez orada unga raqobatchi magazine paydo bo'ldi. Mantiqan o'ylab raqobatchi magazinining nomini toping.

967. Rassom Leonardo da Vinchi u haqida shunday firk aytgan: "Ha, u shaytonning quli, lekin unda go'zal narsalar yaratish mumkin. Agar uni ishlata olsangiz. To'g'ri kimdir uni bermalol ishlata oladi. Men esa uni majburlab ishlatganman."

Savol: u nima?

968. Boshqotirma: Siz xonaga qamaldingiz. Xonada 3 ta eshik bor:

1-eshikning orqasida 2 yildan beri hech narsa yemagan ikki och she'r bor. 2-eshikda tanani eritib yuboradigan elector lazer nurlari bor. 3-eshikda hujum qilishga tayyor 3 ta jangchi bor. Siz qaysi eshikdan chiqib omon qolishingiz mumkin?

969. Onasidan kiyim – boshim,

Bolasidan moyli oshim.

970. O'rta asrlarda rus dehqonlari orasida turfa xurofotlar bor edi. Xususan yong'inlar to'g'rida. Dehqonlar fikriga ko'ra undan kelib chiqqan yong'inni faqatgina yangi sog'ilgan sut yordamida o'chirish mumkin. Diqqat savol: Uni toping.

971. Bir buvi, ikkita onasi va ikki qizi birgalikda konsertga borishdi va bittadan chipta sotib olishdi. Ular jami qancha chipta sotib olishgan?

972. Ikki qurol bor, biri qora va biri oq. Qora qurol doim birinchi bo'lib janga kiradi, oq qurol esa uning mehnatini yo'qqa chiqaradi. Agar qora quroldan ehtiyotlik bilan foydalanilmasa oq jangchidan foydalanish mumkin. Savol: bu ikki qurolning nomini toping.

973. Sardor 5 yoshda, Sobir 9 yoshda. Uch yildan keyin ularning yoshlari o'rtasidagi farq necha bo'ladi?

974. O'zi pillaga o'xshar, ichi tillage o'xshar.

975. Qiziq, tug'ilishidan avval va o'lganidan keyin ham yeyiladigan jonzot?

976. "To'yingda elak bilan suv tashiy" degan ibora mavjud. Bu mumkinmi?

977. Hazil savol: Qachon bir teshikdan kirib bir vaqtning o'zida ikki teshikdan chiqasiz?

978. Yuliy Sezar bazan sudga shaxsan o'zi raislik qilgan. Afsonaga ko'ra qiyin vaziyatlarni hal qilishda Sezarni qaysi tarafda turgani hal qilgan edi. Diqqat savol: Yuliy Sezar tarixda birinchi bor qo'llagan amaliyotni bir hil harfdan boshlanuvchi ikki so'zli javobni toping.

979. Tayland qonunlariga ko'ra pul va tangalarni oyoq bilan bosish mumkin emas. Bunday ishni qilgan shaxslarga jarima solinadi. Bu qonun o'ziga xos ma'noga ega. Savol: nima uchun bunday qonun chiqarilgan?

980. Kichkina xurmacha, og'izlari burmacha.

981. Kulollar kattta-katta xumchalar yasaganda og'iz qismini qalinroq, tub qismini yupqaroq qilib tayyorlashadi. Savol: nega tub qismi yupqaroq qilinadi?

982. Xitoy harbiy akademiyasiga qanday yigitlarni o'qishga olishmaydi?

983. Qaysi 3 ta raqamlar ko'paytirilganda va qo'shilganda bir xil natijani beradi?

984. Kuril orollarida yashovchi tub aholi juda qadimdan beri eulaxon baliq'ini tutib olishsa juda xursand bo'lar ekan. Bu baliq ingichka va juda yog'li baliq bo'lib uni quritib olib qo'yishar ekan. Savol: ular bu baliqdan nima maqsadda foydalanishlari mumkin?

985. Bo'sh savatga nechta olma sig'adi?

986. Mashina qachon Tezyurar poyezd kabi tezlikka chiqa oladi?

987. Sizga orolda yashaydigan Ali va Vali duch kelishdi. Ali dedi: "bizlar ritsarmiz".

Vali dedi "Mening yonimda turgan odam yolg'onchi bo'ladi". Ular kimlar?

988. Agar ushbu raqamni har qanday songa ko'paytirsangiz har doim bir xil son kelib chiqadi. Bu qaysi raqam?

989. Men birinchi marta u bilan 16 yoshimda tanishdim. U bilan oz emas, ko'p emas 10 yil birga bo'ldik. Keyin u meni vaqtinchalik tark etdi. Biroq hijron uzoqqa cho'zilmadi, oradan 3 hafta o'tib biz yana diydor ko'rishdik. U endi boshqacha, o'zgacha edi. Biz yana 20 yil u bilan birga bo'ldik. Buni qarangi, yana ayriliq. Bu ayriliq ham uch haftaga cho'zildi va biz yana diydor ko'rishdik, endi ajralmas bo'lib, umrbod birga qoladigan bo'lib uchrashdik. Mening bu beqaror va sodiq do'stimni ayting.

990. Bir maqolada UNI aniqlashda sizga UNING tashqi ko'rinishidagi, ya'ni ko'z osti ko'karishidan, barmoqdagi ezilgan izlardan(mazol) va belidagi gematoma orqali aniqlasa bo'lar ekan. Savol: U kim?

991. Tarixchi olim Rouzning ta'kidlashicha: bu narsa orqali kishilar o'zaro so'zlarsiz, samimiyat ila suhbat qurgan ekanlar. Shu bilan birgalikda "bu narsa" insonga yuqori harorat bilan aktivlikni ham bera olar ekan. Qadimgi sharqdan boshlab to hozirgi zamonaviy yevropaga qadar "ushbu narsa" o'zida ilm-fan, she'riyat, tantana va tragediya, umid va

tushkunlik va nihoyat hayot va o'limni aks ettira olgan. Diqqat, nima haqida gap ketyapti?

992. Bu holat ilmiy tilda presbiopiya deb nomlanadi. Shifokorlar xazil tariqasida uni " kalta qo'llar kasali" deydilar. Bu kasalikmas shunchaki vaqtning odamga ta'siri holos. Savol: bu kasallik da'vosi nima?

993. -Bobojon nabirangiz nechchi yoshda?

-Mening yoshim nechchi yosh bo'lsa nabiram shuncha oylik. -Bobojon yoshingiz nechchida ? -Mening va nabiramning yoshini qo'shsak 78 yosh chiqadi. Savol: nabiraning yoshini toping?

994. Hazil savol: Qizlar qaysi oyda kamroq uxlaydi?

995. Bir odam yotog'ida u yoqdan bu yoqqa dumalab bezovtalanar, ammo hech uxlay olmasdi! 📞 Oxiri u telefonini oldi-da, raqam terdi. Bir necha marta gudok ketgach, telefonni o'chirib, uyquga ketdi. Diqqat savol: U nega uxlay olmagan?

996. Yigit bilan qiz avtobusda utirishib qolibdi yigit qizga men sizni sevib qoldim debdi va qizdan sizche deb surabdi qiz 20 30 40 deb avtobusdan tushib ketibdi yigit darrov qizning javobini bilib olibdi savol? qiz yigitga nima degan?.

997. Bir necha yillar oldin Gana davlatida bir qonunni sinov tariqasida qo'llab ko'rishdi. Unga ko'ra, ajrashish uchun sud majlisiga kelgan er-xotinga o'zlarining eng baxtli kunlaridan birini eslashi va o'z qarorlarini yana qayta ko'rib chiqishi uchun antiqa talab qo'yilgan. Diqqat savol, ushbu qonun er-xotinga qanday majburiyat yuklagan?

998. Tarix otasi Gerodot shunday yozadi: U yo'q joyda donolik bo'lmaydi, san'at gullamaydi, kuch bo'lmaydi, boylik foyda bermaydi va aql ojiz qoladi. Savol u deganda nima nazarda tutilyapti?

999. Germaniya Federativ Respublikasida ularning uyushma tuzish haqidagi birinchi syezdida ko'p masalalar qatori, qog'oz sanoati kasaba uyushmasi tarkibiga qo'shilish haqida ham muhokama qilishadi. Mashhur iborada esa, ular muhandislarga tenglashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ham bir nechta nutqlarida ularni alqab, qalb muhandisi ekanliklariga alohida urg'u bergan. Diqqat: Ular qaysi kasb egalari?

1000. Hayotiy va mantiqiy savol: Avvallari rus shaharlarida qiziq bayram o'tkazilgan: Osmonga 100 lab yoki 1000 lab sharlar uchirilgan. Diqqat savol: Bu bayramni kimlar uyushtirgan? Yordam tariqasida variantlar taqdim etilmoqda: Merganlar, O'g'rilar, Oshpazlar, Tabiblar.

## **BARCHA JAVOBLAR**

1- javob: U kishi avval milliarder edi.

2- javob: Oyna

3- javob: Avval, 3 litrda to'ldirib suv oladi. Bu suvni 5 litrlik idishga soladi. Keyin yana 3 litrlikda to'ldirib suv oladi va 5 litrlikka idishdagi suv ustiga soladi. Shunda 3 litrlik idishda 1 litr suv ortib qoladi. Endi 5 litrlik idishni bo'shatib, Haligi 1 litr suvni 5 litrlik idishga solidi. Va uning ustiga 3 litrlik idishda suv to'ldirib soladi. Shunda 4 litr suv bo'ladi.

4- javob: Kardiogramma.

5- javob: Rassom eshikdan ichkariga kirishi bilan oilasidagi mehrlil ko'zlarni, vafoli jilmayishlarni va uyidagi tinchlikni ko'rib, o'z oilasining suratini chizibdi. Uni "Dunyodagi eng go'zal manzara" deb nomlabdi.

6- javob: Hayvonot bog'i.

7- javob: Musofir

8- javob: Qo'ng'iroq

9- javob: Kungaboqar

10- javob: Metroning bekatga kirib kelishi.

11- javob: Dasturxonga tortilgan taomlarning soni.

12- javob: Tushlikni tuxumdan boshlab olmada tugatish kerak.

13- javob: Muammo

14- javob: Hindlar uchun Sigirni ovozi yetadigan joy 1 "Mu" ga teng ekan.

15- javob: Hazil qilish.

\*\*\* 81 \*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

16- javob: Donorlik organlarni tashuvchilar.

17- topishmoqning javobi: Koptok

18- javob: D harfi

19- javob: Bodom

20- javob: Qish bo'lganligi uchun daryo muzlagan edi, osongina o'tib olgan

21- javob: Yetti yoshga kiradi

22- javob: Chingizxon.

23- javob: 6 ta

24- javob: Palov.

25- topishmoqning javobi: Xo'roz

26- javob: 9 ta

27- javob: Qo'zichoqlar sukunati. Izoh: Detektiv asar personaji fermadagi qo'zichoqlar ovozidan hech uxlay olmaydi va hech qo'zichoqlar jim tura olmaydi deya film nomini oksyumoron deb ataydi

28- javob: Yonidagi qarindoshi 1 oylik bo'lsa ishonish mumkin

29- javob: Odamxo'r. Izoh: Vyetnamda odamlarga hujum qiluvchi yo'lbars keskin ortmoqda. Bunga sabab yo'lbarslar urush va vabo vaqtida ko'milmay qolib ketgan jasadlarni yeyishgan. Tabiiyki odam go'shti shirin va ular bunga o'rganib qolishgan.

30- javob:  $111-11=100$

31- javob: Odam yoshi

32- javob: Futbolchilar

33- javob: Sarimsoq

34- javob: Choy

35- javob: 28

36- javob: Soya

37- javob:  $C=2$   $c=2 =450$   $c=2 =800$   $30:450= 0,0(6)$   $40:800=0,05$   
 $0,0(6)>0,05$  Bundan kelib chiqadiki, xaridorga 40 diametrli pitsani ogan foydali, sotuvchiga 30 diametrli pitsani sotish foydalidir.

38- javob: Kiprik.

39- javob: Chunki, tuxumni tashlasalar sinib qoladi

40- javob: Xo'roz tuxum qo'ymaydi

41- javob: Gippokrat qasamini ichgani uchun. Izoh: O'g'li doktor. U esa Gippokrat qasamini ichgan. Gippokrat qasamida har qanday holatda insonni o'ldirish mumkin emas.

42- topishmoqning javobi: Ot mingan odam

43- topishmoqning javobi: Do'ppi

44- javob: Bumerang. Izoh: Bilasizki bumerang vatani Avstraliya bo'lib, olimlar 500 yillik skelet ustida tadqiq o'tkazib bumerangning birinchi qurbonini topishgan. Psixologiyada bumerang effekti mavjud.

45- javob: Aks-sado

46- javob: Tunda ishlaydiganlar.

47- javob: Qisqichbaqa

48- javob: 1 ta. Davlat bayrog'idagi ranglar soni

49- topishmoqning javobi: Jiyda



50- javob: Kontrabandachilar. Izoh: Yevropa ittifoqi tuzilgach Kontrabandachilarga ish qolmadi. Oldin esa Baarl kontrabandachilar makoni edi.

51- javob: Mumiyolangan sichqon. Izoh: Mushuk vafotidan keyin mumiyolangan. Misrliklar o'lik mushuk och qolmasin deb, mumiyolangan sichqon bilan dafn etishgan. Uzoq yo'l - o'limdan keyingi hayotga borishi ma'nosida ishlatilgan.

52- javob: avval 2 ta bo'ri o'tadi, bitta bo'ri qaytadi va 3- bo'rini ham olib o'tadi, bitta bo'ri qayiqni qaytaradi va bu safar 2 ta quyon ketadi. keyin 1 ta quyon va 1 ta bo'ri qaytadi, endi 2 ta quyon o'tadi, oxirida 1 ta bo'ri (yoki 1 ta quyon oxirgi bo'rini olib o'tsa bo'laveradi) bo'rilarni ni olib o'tadi.

53- javob: 2022-yil. Izoh: 22.02.2022 polindrom hisoblanadi. Savolni ikkinchi qismida eslatilgan ko'zgu polindromga ishora edi.

54- javob: erta tongda. Izoh: Ertalab uyqudan turishda yerni tortishish kuchi yanada kuchliroq ishlar ekan.

55- javob: Puliga sotib oldi

56- javob: Muqaddas suv. Izoh: Xristian dinida muqaddas suv qadrlanadi. Papa bazi vaqtlarda mast qiluvchi ichimliklarni muqaddas suv deb atagan. Vatikan matbuoti esa buni oldini olish uchun, xabarlarini senzura qilishga majbur.

57- javob: 0 yoki 1

58- javob: Qo'rquv

59- javob: Pingvin

60- javob: Kapalak. Izoh: Ijodkorlar bu bilan "kapalak effekti" ga ishora qilishadi. Bilasizki kapalak effektida arzimagan kichik xodisa kelajakda katta narsalarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan Gitlerni abortdan saqlab qolinishi.

61- javob: Chalg'ituvchi savolning javobi Zebra edi

62- javob: +15 darajani

\*\*\* 84 \*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida

63- javob: ikkita osma qulfni bir=biriga zanjir sifatida foydalanishgan.

64- javob: A harfi.

65- javob: Jimjiloq barmoq

66- javob: Muhabbat.

67- javob: Yashil evglena

68- javob: Kapalak

69- javob: Tirik qolganlarni ko'mishning hojati yo'q!:)

70- javob: Xarita

71- javob: Chayon

72- javob: Sartarosh

73- topishmoqning javobi: Qo'ng'iz

74- javob: Keyin kur bulib kolgan odam tush kura oladi.

75- javob: 0 ta stakan bo'sh

76- javob: Soat

77- topishmoqning javobi: Mushuk

78- topishmoqning javobi: Sham

79- javob: Oshpazlar uchun Iguanalardan taom tayyorlash maslahat kitobi. Iguanalar shu darajada ko'payib ketadiki, aholi keyinchalik ularni yeyishni boshlaydi

80- javob: 47. Izoh: Judda oddiy hisoblash kerak. Kuniga ikki barobar ko'paysa va u 48 kun ketsa undan bir kunni ayirish kerak halos. 47-kun yarmi to'lgan bo'lsa demak 48-kun ko'l nilufarga to'ladi.

81- javob: 100 dollarlik pul

82- topishmoqning javobi: Qovun

83- javob: Ular qadam olishni chap oyoqdan boshlaydi.

84- javob: Zaxar muzda edi. Ayol tez ichganligi uchun muz erishga ulgurmagan Erkak esa sekin ichgani uchun muz erib ichimlikka o'tgan va o'limga olib kelgan.

85- javob: Qorbobo chanasini.

86- javob: Kungaboqar

87- javob: Qishloqda

88- javob: Shohning qulog'i og'ir bo'lgan. Sher unga rupor vazifasini bajargan.

89- javob: Qamish

90- javob: G'iybat bo'lmasin.

91- javob: Zahiradagi g'ildirak

92- javob: Qaynatilgan tuxum

93- javob: Agar bugungi kun 1 yanvar bo'lsa, Murodning tug'ilgan kuni 31 dekabrda. Kechadan oldin (30 dekabr) u 17 yosh edi, kecha (31 dekabr) u 18 to'ldi, shu yil u 19 ga kiradi, keyingi yilda esa 20 yoshni qarshi oladi.

94- javob: 7 kg

95- javob: Sherlok Xolms erkakka qotillik sodir bo'lgan manzilni aytmagan edi.

96- javob: Qo'lqop

97- javob: Niagara sharsharasi. \*\*\* 86 \*\*\*

98- javob: Egar

99- javob: Chuqur

100- javob: Assalomu Alaykum-Vaalaykum Assalom.

## **MUNDARIJA**

\*\*\* 87 \*\*\*

Yanada ko'proq mantiqiy savollar [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz) saytida